O‘ZBEKISTONDA KONCHILIK QAZISH ISHLARINI BARQARORLIGI YO‘LIDA

“NKMK” AJNING 2025-YIL UCHUN BARQAROR RIVOJLANISH BO‘YICHA HISOBOTI

NAVOIY, 2026

MUNDARIJA

1. **KOMPANIYA HAQIDA 5**
1.1. Rahbariyat murojaati 5
1.2. Barqaror rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari 9
1.3. “NKMK” AJ missiyasi va qadriyatlari 12
1.4. Kompaniyaning biznes-modeli 12
1.5. Faoliyat hududlari va bozorlar 14
1.6. Iqtisodiy samaradorlik 16
1.7. Kapitalni boshqarish 18
2. BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH 20
2.1. Barqaror rivojlanish masalalarini boshqarishga yondashuv 20
2.2. Barqaror rivojlanish sohasida xavflarni boshqarish 24
2.3. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari 28
2.4. Barqaror amaliyotlar evolyutsiyasi va xalqaro tamoyillarga amal qilish 31
2.5. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik 34
2.6. Dolzarb mavzularni aniqlash 35
2.7. Innovatsion rivojlanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish 39
2.7.1. Innovatsion rivojlanishni boshqarish tuzilmasini takomillashtirish 39
2.7.2. Raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish 41
3. KORPORATIV BOSHQARUV 43
3.1. Korporativ boshqaruv tizimi 43
3.1.1. Aksiyador va oliy boshqaruv organi 43
3.1.2. Kuzatuv kengashi qo‘mitalari 49
3.1.3. Boshqaruv 51
3.2. Boshqaruv tamoyillari va ishbilarmonlik etikasi 54
3.2.1. Boshqaruvga yondashuv 54
3.2.2. Xavflarni boshqarish 55
3.2.3. Ichki audit 55
3.2.4. Komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish 55
3.3. Javobgar ta’minot zanjiri 58
3.3.1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish: mahalliylashtirish va sanoat kooperatsiyasi 61
3.3.2. Yetkazib beruvchilarni nazorat qilish va tekshirish 63
4. XODIMLARNI BOSHQARISH 65
4.1. Kadrlar boshqaruvi yondashuvi 65
4.2. Xodimlar huquqlarini himoya qilish va “NKMK” AJ Kasaba uyushmalari kengashi 69
4.3. Xodimlar tuzilmasi 70
4.4. Xodimlarni tanlash va qo‘nimsizlik 76
4.5. Mukofotlash va rag‘batlantirish 81
4.6. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish 87
4.7. Kadrlar zaxirasi va intellektual kapital 94
4.8. Ijtimoiy-madaniy xilma-xillik va teng imkoniyatlar 96
4.8.1. Gender tenglik 99
4.8.2. Yoshlar siyosati 101
4.8.3. Ijtimoiy siyosat va xodimlar oldidagi mas’uliyat 101
5. MEHNAT MUHOFAZASI VA SANOAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH .. 104
5.1. Mehnat muhofazasini boshqarishga yondashuv 104
5.2 Xavflarni aniqlash, risklarni baholash va insidentlarni tekshirish 108
5.3. Xodimlarni jalb etish, o‘qitish va xavfsizlik madaniyati

5.4. Ishlab chiqarishdagi shikastlanish ko‘rsatkichlari 109
5.5. Tibbiy ko‘riklar va kasb kasalliklari profilaktikasi 113
5.6. Ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik 116
5.6.1. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish nazorati....116
5.6.2. Ishlab chiqarish obyektlarida avariya va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik 117
5.6.3. FM sohasida mashqlar o‘tkazish va xodimlarni o‘qitish....117
5.7. Pudrat tashkilotlarini boshqarish 118
5.8. Xavfsizlikni ta’minlashning raqamli vositalari 118
6. ENERGIYA MENEJMENTI VA IQLIM O‘ZGARISHLARIGA MOSLASHISH 121
6.1. Energiya menejmenti 121
6.1.1. Energiya balansini boshqarish....121
6.1.2. Energiya iste’moli....122
6.1.3. Muqobil energetika....126
6.1.4. Energiya iste’molini qisqartirish....127
6.1.5. Avtotransport sohasida energiya resurslarini boshqarish....133
6.2. Iqlim o‘zgarishlariga moslashish 134
6.2.1. Issiqxona gazlari chiqindilari masalalarini boshqarishga yondashuv....134
6.2.2. Iqlim tahdidlari va imkoniyatlari....139
7. EKOLOGIK JIHATLARNI BOSHQARISH 144
7.1. Ekologik menejment tizimi 144
7.2. Ekologik talablarga muvofiqlik va atrof-muhit monitoringi 149
7.3. Chiqindilarni boshqarish va monitoring qilish 151
7.4. Yerdan oqilona foydalanish va bioxilma-xillikni himoya qilish 155
7.4.1. Tuproq-gruntlarning ifloslanish manbalari monitoringi....156
7.4.2. Bioxilma-xillikni himoya qilish....157
7.4.3. “Yashil makon” umummilliy loyihasi....158
7.5. Chiqindilarni boshqarish 159
7.6. Suv resurslarini boshqarish 165
7.6.1. Boshqaruvga yondashuv....165
7.6.2. Suv ta’minoti....166
7.6.3. Suvni chiqarib yuborish....172
7.6.4. Suv resurslari ifloslanishini monitoring qilish va oldini olish....173
7.7. Chiqindi saqlagichlarni boshqarish 173
8. JAMOALAR BILAN HAMKORLIK VA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH 180
8.1. Jamoalar bilan hamkorlik masalalarini boshqarishga yondashuv 180
8.2. Murojaatlarni boshqarish va muloqotni qo‘llab-quvvatlash 183
8.2.1. Murojaatlarni boshqarishning yagona mexanizmi....183
8.2.2. Shaxsiy qabullarni o‘tkazish....186
8.2.3. Jamoatchilik eshituvlari....186
8.3. Hududlarni rivojlantirish dasturlari 187
8.4. Ish o‘rinlari yaratish va aholining ijtimoiy zaif guruhlarini qo‘llab-quvvatlash 188
8.5. Yoshlarni rivojlantirish imkoniyatlari va kadrlarni rivojlantirish dasturlari 193
8.6. Homiylik va xayriya 195
8.7. Sportni qo‘llab-quvvatlash 198
8.8. Mayda va hunarmandchilik qazib oluvchilarini qo‘llab-quvvatlash 198
8.9. “NKMK” AJ yoshlarining ijtimoiy ko‘ngillilik faoliyati – ezgu ishlar loyihalari 200

ILOVALAR 201
1-ILOVA. HISOBOT HAQIDA 201
2-ILOVA. KONTAKT MA'LUMOTLARI 203
3-ILOVA. GRI KO'RSATKICHLARI JADVALI 204
4-ILOVA. SASB INDIKATORLARI MAZMUNI 223
5-ILOVA. GLOSSARIY 231

1. KOMPANIYA HAQIDA

Muhim mavzular
• Davlatga to‘lovlar va davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Kompaniya tushumi — **10,827 mln AQSh dollari** (2024-yilga nisbatan +46.4%); • Oltin sotish hajmi – **3,156.6 ming troya unsiyasi** (2024-yilga nisbatan +2.1%); • Davlatga to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlar — **4,187 mln AQSh dollari**; • **6.75%** kupon stavkasi bilan **500 mln AQSh dollarlik** yevroobligatsiyalar chiqarildi; • Kompaniyaning umumiy kapitali **5,425 mln AQSh dollariga** yetdi.
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-9, 2-12, 2-13, 2-14, 2-17, 2-23, 2-24, 3-3

1.1. Rahbariyat murojaati

GRI 2-22

HAMJIHATLIK, MAS’ULIYAT VA FIDOKORONA MEHNAT — NKMK BARQAROR TARAQQIYOTNING ASOSI

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ mamlakatdagi eng yirik konchilik va metallurgiya korxonalaridan biri, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan sanoat korxonasi hisoblanadi. Kombinat ko‘p yillar davomida mamlakatning mineral-xomashyo resurslarini samarali o‘zlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va keng ko‘lamli investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali rivojlanib kelmoqda. Atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat, xodimlarga g‘amxo‘rlik, faoliyat yuritilayotgan hududlarni rivojlantirish va ilg‘or korporativ amaliyotlarni joriy etish “NKMK” AJ strategiyasining ajralmas qismi va Kompaniyaning uzoq muddatli ta’minlovchi muhim omillardir.

Hurmatli aksiyadorlar, hamkorlar va hamkasblar!

2025-yil korxonamiz uchun samarali, muhim voqealarga va salmoqli yutuqlarga boy yil bo‘ldi. Tajribali mutaxassislarimizning bilim va tajribasi, yoshlarning tashabbuskorligi va g‘ayrati jamoaning ahilligini ta’minlab, Kompaniyaning uzoq muddatli barqaror o‘sishi uchun

mustahkam zamin yaratdi. Ayniqsa, hamjihatlik, o‘zaro hurmat va har bir xodimning o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashishi erishilgan natijalarning muhim omili bo‘ldi. Bu esa yangi marralar sari ishonch bilan intilishimizga imkon berdi.

2025-yil yakunlari ko‘ra, “NKMK” AJ jamoasi barqaror ishlab chiqarish natijalarini ta’minlab, rivojlanishning ustuvor vazifalarini bajardi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishidan olingan tushum 10,827 mln dollarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 46.4 foizga oshdi. Oltin ishlab chiqarish bo‘yicha 100.1 foizga, kumush ishlab chiqarish 100.5 foizga bajarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 108.2 mln AQSh dollari (1,406.7 mlrd so‘m) miqdorida mahsulot ishlab chiqarildi. Bu belgilangan prognoz ko‘rsatkichning 103.1 foizni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan o‘sish 153.6 foizni tashkil etdi. Navoiy mashinasozlik zavodida kombinat ishlab chiqarish obyektlari uchun 4 ta tegirmonning tayyorlanishi mahalliy sanoat salohiyatini rivojlantirish yo‘lidagi muhim yutuqlardan biri bo‘ldi.

Yil davomida ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli investitsiya loyihalarini amalga oshirish davom ettirildi. “Qo‘qpatas va Dovgiztov konlarida ruda qazib olish (III navbat)” loyihasi doirasida 3-GMZ biooksidlash sexida 9- va 10-modullar ishga tushirildi. Shuningdek, “Dovgiztov” konida esa uzunligi 1,900 metr bo‘lgan sikl-oqim majmuasi ishga tushirildi. “Zarmitan” konida esa chuqurligi 1,000 metr bo‘lgan, Markaziy Osiyoda noyob inshootlardan biri sanalgan skipli shaxta stvoli qurilib, foydalanishga topshirildi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va operatsion samaradorlikni oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy kon texnikasini joriy etish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, unumdorlikni oshirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish imkonini beradi. 2025-yilda yuk ko‘tarish quvvati mos ravishda 254 va 220 tonna bo‘lgan yuqori unumli Komatsu-860 va Hitachi EH4000AC-3 avtosamosvallari, shuningdek, zamonaviy frontal yuklagichlar va buldozerlar foydalanishga topshirildi.

Hisobot yilida Kompaniya barqaror rivojlanish va korporativ boshqaruv sohasidagi yutuqlari uchun xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Sustainable Fitch agentligi “NKMK” AJga birinchi marta 3-daraja (51 ball) ESG-reytingini berdi. Fitch Ratings va S&P Global Ratings xalqaro reyting agentliklari Kompaniyaning kredit reytingini barqaror prognoz bilan “BB” darajasigacha oshirib, uning moliyaviy barqarorligi va boshqaruv samaradorligini tasdiqladi. Bu Kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va boshqaruv samaradorligiga berilgan muhim bahodir.

Faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash “NKMK” AJning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kompaniya to‘rt yildan buyon milliy Ochiqlik indeksi yetakchilari qatoridan o‘rin olmoqda, jumladan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha “NKMK” AJ 94.4 ball to‘plab, Ochiqlik indeksi bo‘yicha birinchi o‘rinni egalladi.

Biz teng imkoniyatlar va inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoqdamiz. 2025-yilda Kompaniyada gender tenglik va inklyuzivlik xizmati tashkil etildi, barcha ishlab chiqarish obyektlarida ilk kompleks gender audit o‘tkazildi. Ushbu tashabbuslar hurmat, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan zamonaviy korporativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya “NKMK” AJ rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri hamda ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi, xavfsizligi va barqarorligini oshirishning muhim

vositasi bo‘lib qolmoqda. Hisobot yilida kompaniya sun’iy intellekt texnologiyalarini asosiy ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etishni nazarda tutuvchi “SI – Xavfsiz raqamli kon”, “SI – Aeromarkshayder” va “SI – Raqamli gidrometallurgiya” loyihalarini bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishdi. Ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashning intellektual tizimlaridan foydalanish sanoat xavfsizligi darajasini, ishlab chiqarishni rejalashtirish aniqligini, resurslarni boshqarish samaradorligini va texnologik operatsiyalar natijadorligini oshirish imkonini beradi. Sun’iy intellektga asoslangan raqamli yechimlarni rivojlantirish “NKMK” AJ texnologik modernizatsiya bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, kompaniyaning kon-metallurgiya sohasi innovatsion rivojlanishi yetakchilaridan biri sifatidagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash kompaniyaning so‘zsiz ustuvor vazifasi va uning ishlab chiqarish faoliyatining ajralmas qismidir. Kombinat mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimini izchil takomillashtirib, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirmoqda. Shuningdek, xodimlarni zarur shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlab, ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, xavfsiz mehnat madaniyatini mustahkamlash bo‘yicha muntazam ishlar olib borilmoqda. Mehnat muhofazasi masalalariga kompleks yondashuv xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga, ishlab chiqarish xavflarini kamaytirishga hamda korxonaning barqaror va samarali ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatimizni anglagan holda, tabiatni muhofaza qilish tashabbuslarini izchil amalga oshirishda davom etmoqdamiz. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “NKMK” AJ jamoasi ishlab chiqarish obyektlari hududlari va magistral yo‘llar bo‘ylab 450 ming donadan ortiq daraxt va buta ko‘chatlarini ekdi. Nurota tumanidagi “Pistali” koni hududida maydoni 165 gektar bo‘lgan Alisher Navoiy nomidagi bog‘ barpo etildi. Ushbu tashabbus hudud tabiiy muhitini saqlash va tiklash, ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xodimlar va ularning oila a’zolari farovonligini ta’minlash “NKMK” AJning doimiy ustuvor vazifalaridan biridir. Inson kapitalini barqaror rivojlanish va ishlab chiqarish samaradorligining asosiy omili deb bilgan holda, kombinat xodimlar sog‘lig‘ini saqlash, ularning hayot sifatini oshirish va ijtimoiy himoyalanganligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirmoqda. Xodimlar uchun sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalari, tibbiyot tashkilotlari, bolalar oromgohlari, sport va madaniyat obyektlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Sog‘liqni saqlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xodimlarni rivojlantirish sohasidagi tizimli ishlar qulay mehnat muhitini shakllantirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga hamda kompaniyaning uzoq muddatli istiqboldagi barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil Kompaniya tarixidagi muhim yubiley sanalar bilan ham yodda qoldi. Zarafshon qurilish boshqarmasining 60 yilligi va 3- gidrometallurgiya zavodining 30 yilligi keng nishonlandi. Ushbu qutlug‘ sanalar Kompaniya xodimlarining boy tarixi, to‘plangan tajribasi va avlodlar o‘rtasidagi izchillikni yorqin ifodasi bo‘ldi.

2025-yilda erishilgan barcha yutuqlar “NKMK” AJning ko‘p ming kishilik jamoasi yuksak kasbiy mahorati, mas’uliyati va fidokorona mehnatining natijasidir. Biz Kompaniyamiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shayotgan barcha xodimlarimiz va manfaatdor tomonlarga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Ishonchimiz komilki, barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq qolish, innovatsiyalarni izchil joriy etish hamda inson qadri va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish orqali kelgusida ham jamiyat, mamlakat iqtisodiyoti va kelajak avlodlar manfaatlariga xizmat qiluvchi uzoq muddatli qadriyatlarni yaratish mumkin.

Quvondiq Sanaqulov “NKMK” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor

1.2. Barqaror rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari

1-jadval. Barqaror rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Operatsion ko‘rsatkichlar				
Oltin ishlab chiqarish, ming troya unsiya	2,830	2,936	3,091.1	3,156.6
Ma’danni qazib olish, mln tonna	67.9	85.7	94.7	101.7
Ma’danni qayta ishlash, mln tonna	97.0	99.3	105.07	116.7
Moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar				
Tushum, mln AQSh dollari	5,095	5,708	7,395	10,827
Adjusted EBITDA, mln AQSh dollari	3,131	3,318	4,561	6,951
CAPEX, mln AQSh dollari	825	761	995	1,149
To‘langan dividendlar, mln AQSh dollari	1,389	1,202	1,731	3,204
Investitsiya dasturi bo‘yicha o‘zlashtirilgan mablag‘lar, mln AQSh dollari	486	474	790	561
Tannarx tejamkorligi, mln AQSh dollari	99.1	116	293	336
Mahsulotni mahalliylashtirish dasturi, mln AQSh dollari	50.18	53.6	72.4	108.2
Mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulot xaridi, mln AQSh dollari	438.98	472.5	490	562

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Ijtimoiy mas’uliyat				
Xayriya va homiylik yordami, mln AQSh dollari	36	80	90.6	98
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish (yangi infratuzilma obyektlari qurilishi), mln AQSh dollari		19	0.9	0.5
Sog‘liqni saqlash obyektlarini saqlash xarajatlari (“NKMK” AJ jamg‘armasi), mln AQSh dollari	1	1	1	1
Ish haqi to‘lovlari, mln AQSh dollari	374	472	527	558
Xodimlarning o‘rtacha soni, nafar	45,696	46,220	46,866	48,771
Ishga qabul qilingan xodimlarning umumiy soni, nafar	3,747	3,987	1,456	4,632
Yaratilgan ish o‘rinlari soni, dona	2,095	1,445	715	2,628
Kadrlar qo‘nimsizligi, %	5.1	2.9	2.5	2.5
Xodimlarning umumiy sonidagi ayollar ulushi, %	13	13	13	12
O‘qitish va rivojlantirish dasturlarida qatnashgan xodimlar soni, nafar	15,051	15,048	15,261	17,686
O‘rtacha ish haqi, AQSh dollari	762	838	917	1,053
Kompaniya mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi OTMlarida ta’lim olayotganlar, nafar	292	279	312	248
Atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika, iqlim o‘zgarishi				
Ekilgan daraxt va butalar, ming dona	96.1	443.0	460.0	456.4
Qayta foydalanilgan suv resurslari, %	16%	23%	23%	26%
Energiya qisqartirish hajmi, ming GJ	204.0	787.5	1,490.10	1,616

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Qayta tiklanuvchi manbalardan iste’mol qilingan energiya hajmi (FES va gelioqurilmalarni hisobga olgan holda o‘z ishlab chiqarishi), GJ	9,818.9	32,152.9	68,322	83,436
Fotoelektr stansiyalarining umumiy o‘rnatilgan quvvati, kVt	250	1,450	7,200	10,050
Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi, FVga tayyorgarlik				
MM, SX va FVga tayyorgarlik bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar soni, ming kishi	34.0	18.3	22.5	14.8
LTIFR	0.68	0.21	0.36	0.32
FAR	0.18	0.01	0.10	0.08

1.3. “NKMK” AJ missiyasi va qadriyatlari

“NKMK” AJ missiyasi – Barqaror kelajak va farovonlik uchun mas’uliyatli oltin qazib olish.

Kompaniya ishlab chiqarishga mas’uliyat bilan yondashadi, O‘zbekiston atrof-muhitiga va o‘z xodimlari mehnatiga ehtiyotkorlik va e’tibor bilan munosabatda bo‘ladi. Maqsadlarga erishish uchun “NKMK” AJ sohaning ilg‘or amaliyotlari va standartlarini joriy etadi. Kompaniya o‘z missiyasini eng samarali va mas’uliyatli tarzda bajarishga hamda barcha manfaatdor tomonlar uchun qo‘shimcha qadriyat yaratishga qaratilgan.

Kompaniya uzoq muddatli rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari:

- Faoliyat yuritilayotgan hududlar farovonligini ta’minlash va mahalliy hamjamiyatlar bilan o‘zaro hamkorlik;
- Ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi;
- Innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish;
- Uzoq muddatli barqaror qadriyat yaratish;
- Mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shish.

2-jadval. “NKMK” AJ qadriyatlari

Bizning insonlarimiz	Biz yangi avlodlar uchun porloq kelajak yaratib, ishchi-xodimlarimiz, ularning oilalari haqida qayg‘uramiz
Xavfsizlik	Mehnat xavfsizligini ta’minlashda doimo ilg‘or texnologiya va standartlarni joriy etmoqdamiz
Samaradorlik	Biz faoliyatimizda yuqori natijalarga erishishni harajatlarni hamda barcha resurslarimizni tejash orqali amalga oshiramiz
Mas’uliyat	Biz o’z ishimizda mas’uliyatni zimmamizga olib, eng yuqori ekologik va ijtimoiy standartlarga amal qilmoqdamiz
Innovatsiyalar	Biz ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda innovatsion texnologiyalarga tayanamiz
Hamkorlik	Biz sanoatning umumiy maqsadlari va o‘zaro muvaffaqiyatiga erishish uchun hamkorlik qilishga intilamiz

1.4. Kompaniyaning biznes-modeli

GRI 2-1, 2-6

“NKMK” AJ faoliyatining asosiy yo‘nalishlari tabiiy boyliklarni sanoat usulida o‘zlashtirish, foydali qazilmalarni, xususan, qimmatbaho metallarni qazib olish va qayta ishlashdan iborat. Kompaniyaning asosiy mahsuloti — oltindir. Kompaniya mahsulotni sotish bo‘yicha ikkita manfaatdor tomon bilan hamkorlik qiladi: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish zavodlari. “NKMK” AJ biznes-modeli qiymat yaratishning ishlab chiqarish zanjiri har bir bosqichida manfaatdor tomonlar manfaatlarini

hamda faoliyatning uzoq muddatli barqarorligiga qaratilgan barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yuritiiladi.

3-jadval. Ishlab chiqarish zanjiri

Konlarni qidirish va konchilik loyihalarini loyihalashtirish	Qidiruv	Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish
	Zaxiralarni hisoblash	Foydali qazilmalar zaxiralarini Davlat zaxiralari komissiyasi tomonidan baholash
	Loyihalash	Loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash
	Qurilish	Ishlab chiqarish obyektlari va infratuzilmani loyihalash hamda qurish
Qazib olish	Qazib olish	Oldindan va ekspluatatsiya jarayonida amalga oshiriladigan qidiruv ishlarini olib borish
		Kon-qazib olish ishlarini bajarish
		Ma’danni gidrometallurgiya zavodiga (GMZ) tashish
Ma’danni qayta ishlash va oltin ishlab chiqarish	Ma’danni tayyorlash	Maydalash, shixtalash, ezish, klassifikatsiya, quyuqlashtirish
	Boyitish	Gravitatsiya, flotatsiya
	Gidrometallurgiya	Sorbsion ishqorlash, regeneratsiya, desorbsiya, BIO ishqorlash, KIO ishqorlash
	Pirometallurgiya	Oksidlovchi kuydirish
	Uyumli ishqorlash	Oltin va kumushni uyumli ishqorlash
	Oltin ishlab chiqarish	Affinaj va 999,9 probali oltin hamda kumush quymalarini ishlab chiqarish
Affinaj qilingan oltinni realizatsiya qilish	Tashish	Tayyor mahsulotni tashish

1.5. Faoliyat hududlari va bozorlar

Kompaniya barcha ishlab chiqarish faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi. “NKMK” AJning ishlab chiqarish obyektlari Navoiy, Samarqand, Jizzax va Xorazm viloyatlarida joylashgan. Shuningdek, Kompaniya Xorazm, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida yordamchi ishlab chiqarish obyektlariga ega. Yirik ishlab chiqarish majmualari Navoiy, Uchquduq, Zarafshon shaharlari hamda Zarkent shaharchasiga yaqin joylashgan. Aholi punktlari markazlashtirilgan issiqlik va suv ta’minoti, uy-joy fondi hamda ijtimoiy soha obyektlarini o‘z ichiga olgan mustaqil ta’minot tizimlariga ega bo‘lib, transport va energetika infratuzilmasi bilan ta’minlangan.

“NKMK” AJ Boshqarmasi Kompaniyaning ma’muriy va moliyaviy faoliyati markazi bo‘lib, Navoiy shahrida joylashgan. Boshqarma, shuningdek, faoliyatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha funksional boshqaruvni muvofiqlashtiradi va strategik hamda operatsion vazifalarni amalga oshirishda yagona yondashuvni ta’minlaydi.

To‘rtta kon boshqarmasi (kon-metallurgiya ishlab chiqarish majmualari) “NKMK” AJning oltin qazib olish va ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy obyektlari hisoblanadi. Korxona tarkibiga yordamchi ishlab chiqarishning yirik aktivlari ham kiradi. 2025-yil hisobot davrida Kompaniya quyidagilarni boshqargan:

- 12 ta kon (har bir kon ochiq yoki yer osti usulida qazib olish ishlari olib boriladigan bir nechta konlarni birlashtiradi);
- 8 ta qayta ishlash zavodi (oltin yarim tayyor mahsulotini ishlab chiqaruvchi 7 ta zavod va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi 1 ta zavod);
- 2 ta uyumda eritmaga o‘tkazish sexi (oltin va kumush yarimtayyor mahsulotlarini uyumda ishqorlash orqali ishlab chiqarish sexlari);
- “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi;
- Zarafshon qurilish boshqarmasi.

4-jadval. “NKMK” AJning asosiy aktivlari

Ko‘rsatkich	Markaziy konboshqarmasi (MKB)		Sharqiy konboshqarmasi (ShKB)		Janubiy konboshqarmasi (JKB)		“Qizilqum” konboshqarmasi (QKB)		“Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi (NMZ)	Zaraflashtirish boshqarmasi (ZB)
Boshqaruvning joylashuvi	Zarafshon		Uchquduq		Zarmitan		Navoiy		Navoiy	Zarafshon
Faoliyat turlari	Tarkibda qimmatbaho rudalar bo‘lgan maydonlarda qazib olish va maydonni maydalash dan yuqori sifatli quyma oltin va kumush konsentratini tayyorlash bilan bog‘liq texnologik jarayonlar		Tarkibda qimmatbaho rudalar bo‘lgan maydonlarda qazib olish va maydonni maydalash dan yuqori sifatli quyma oltin va kumush konsentratini tayyorlash bilan bog‘liq texnologik jarayonlar		Tarkibda qimmatbaho rudalar bo‘lgan maydonlarda qazib olish va maydonni maydalash dan yuqori sifatli quyma oltin va kumush konsentratini tayyorlash bilan bog‘liq texnologik jarayonlar		Tarkibda qimmatbaho rudalar bo‘lgan maydonlarda qazib olish va maydonni maydalash dan yuqori sifatli quyma oltin va kumush konsentratini tayyorlash bilan bog‘liq texnologik jarayonlar		“NKMK” AJ yer osti va ochiq usulda qazib olish uchun mo‘ljallangan mashina va jihozlarni, shu jumladan, maxsus avtosamosvallar, dastgohlar, metallokonstruksiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, avtomobil ta’mirlash xizmatlarini ko‘rsatish	“NKMK” AJning ochiq va yer osti usulida qazib olish uchun obyektlarni qurish va zarur qurilish materiallarini ishlab chiqarish
Aktivlar	Qazib olish, ming tonna ruda		Qazib olish, ming tonna ruda		Qazib olish, ming tonna ruda		Qazib olish, ming tonna ruda		Asosiy aktivlar	Asosiy aktivlar
	Murunto–Muruntau (OKK*)	62,807.233	Sharqiy (OKK)	9,682	Zarmitan (YKK*)	1,507.72	Qoraqo‘ltan (YKK)	260.1	Navoiy mashinasozlik zavodi	Zarafshon qurilish boshqarmasi
	Balpantov (OKK)	5,791.68	Duvaqtov (OKK)	2,781	Gujumsoy (YKK) Oltinsoy (YKK)	889.607	Aristontov (OKK)	1,862.306	Temirmexanika zavodi	Navoiy qurilish boshqarmasi
	Bessapantov (OKK)	6,197.4	Aumpo–Amantoy (OKK)	3,768.645	Marjonbuloq (OKK)	702.417	Pistali (OKK)	5,516.929	Metallokonstruksiya va nostandart uskunalar ishlab chiqarish laxalobi zavodi	“Sanoatenergomontaj” montaj qurilish tresti
	Qayta ishlash, ming tonna ruda		Qayta ishlash, ming tonna ruda		Qayta ishlash, ming tonna ruda		Qayta ishlash, ming tonna ruda		Nurdog‘dagi ta’mirlash mexanika zavodi	Ishlab chiqarish-texnik bo‘linish boshqarmasi
	2-GMZ	55,600.46	3-GMZ	10,241.00	4-GMZ	2,107.77	1-GMZ	1,984.53		
	7-GMZ	21,830.61	5-GMZ	5,689.01	MUS Marjonbuloq oltin ajratish sexi	903.50	6-GMZ	5,331.13		
	Uyumchi maydonga o‘tkazish sexi UEO's	12,581.10	UMS	501.32						
Xodimlar soni, erkaklar/ayollar	15,561/2,091		12,194/1,574		5,329/412		3,679/357		2,895/688	2,405/245
Xodimlar tarkibida mahalliy aholi ulushi, %*	98%		99%		98%		99%		99%	91%
MMvaTX statistikasi, LTIFR/FAR	0.20/0.10		0.13/0.04		1.09/0.22		0.58/0.00		0.31/0.15	0.22/0.00
Suv iste’moli, Ml	88,941		32,476		7,165		11,855		975	
Suv resurslaridan qayta foydalanish*, %	13,477 (15%)		15,469 (48%)		3,922 (55%)		4,315 (36%)		“Qizilqum” KB qayta foydalanish uchun suv uzatish	Resurslar iste’moli va IG chiqindilarini sobiq amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha ishlab chiqarish maydonlaridan olinadigan yuritiladi
Energiya resurslari iste’moli, ming GJ	22,657.38		11,445.125		1,599.373		1,944.616		573.802	
Energiya resurslari tejamkorligi, ming GJ	1,007.4		389.3		88.9		81.7		46.8	
IG chiqindilari, ming t CO2 ekv.	3,196		1,245		202		258		70	

*Mahalliy aholi ulushi (%) “NKMK” AJ ishlab chiqarish obyektlariga bevosita yaqin manzildagi yoki ularga ilmoq xodimlar soni asosida hisoblangan.
*Suv resurslaridan qayta foydalanish – loy isalkonishlab chiqarish bo‘linmasi ichidagi suv iste’molini qisman suv resurslaridan qayta foydalanish imkonini beradi.
OKK – ochiq konchilik usullari
YKK – yer osti konchilik usullari

1.6. Iqtisodiy samaradorlik

Boshqaruvga yondashuv

GRI 3-3,GRI 201-1, 201-4

Samarali iqtisodiy faoliyat va yuqori moliyaviy natijalar "NKMK" AJga manfaatdor tomonlarning barcha asosiy guruhlari uchun qiymat yaratish imkonini beradi. Kompaniya davlat byudjetiga soliqlar va ijtimoiy majburiy to'lovlarni amalga oshiradi hamda mamlakatdagi eng yirik soliq to'lovchilardan biridir. Kompaniya soliqqa tortish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga amal qiladi.

5-jadval. Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat, mln AQSh dollari

Ko'rsatkichlar	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat	**5,095**	**5,709**	**7,384**	**10,782**
Tushum	5,095	5,708	7,395	10,827
Moliyaviy daromadlar	2	2	1	-
Moddiy aktivlarni sotishdan (xarajat)/daromad	(2)	(1)	(12)	(45)
Taqsimlangan iqtisodiy qiymat	**4,161**	**4,968**	**6,476**	**10,165**
Operatsion xarajatlar	1,098	1,560	1,921	2,552
Ish haqi, Tannarx	332	426	474	558
Ish haqi, Ma'muriy xarajatlar*	42	46	53	63
Ijtimoiy obyektlarni saqlash	1	1	1	1
Xayriya va homiylik	232	99	91	98
Kapital yetkazib beruvchilarga to'lovlar	**1,523**	**1,416**	**1,985**	**3,425**
Shu jumladan to'langan dividendlar	1,389	1,202	1,731	3,204
Shu jumladan moliyaviy xarajatlar	134	214	237	221
Davlatga to'lovlar	**1,540**	**1,992**	**2,587**	**4,187**
Foydali qazilmalarni qazib olish solig'i (FQQS)	517	584	840	1,239
Foyda solig'i (kechiktirilgan soliqlar ta'siri bundan mustasno)	958	1,333	1,660	2,838
Soliqlar, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va foyda solig'i bundan mustasno	23	24	30	44

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Ish haqidan yagona ijtimoiy to‘lov	42	51	57	66
Yil uchun taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat = Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat - Taqsimlangan iqtisodiy qiymat	**934**	**741**	**908**	**617**

Jadvaldagi ma’lumotlar “NKMK” AJning 2025-yil uchun auditorlik tekshiruvidan o‘tgan moliyaviy hisoboti asosida tayyorlangan: https://www.ngmk.uz/en/investors/reports-and-results/#tabs-2025.

Tushum:

Tushumning 3,432 mln AQSh dollariga (46.4%) o‘sishi 2 ta asosiy omil bilan bog‘liq:

1. Asosiy omil: O‘rtacha sotish narxining 1,038 AQSh dollari/unsiyaga (43.4%) o‘sishi - jahon oltin narxlari dinamikasi (jumladan, LBMA) bilan bog‘liq.

2. Qisman: Sotish hajmining 65 ming unsiya yoki 2,023 kg (2.1%) ga oshishi.

Operatsion xarajatlar:

Operatsion xarajatlarning oshishi asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq:

1) Tovar-moddiy boyliklar (TMB) sarfining 403 mln AQSh dollariga (56,3 %) oshishi asosan shinalar va ehtiyot qismlar xarajatlarining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunga tog‘ massasini qazib olish hajmining 15 % ga ortishi, Muruntov karerida 2024-yil dekabr oyidan boshlab kon ichidagi davriy-oqimli texnologiya (DOT) demontaj qilingandan so‘ng o‘rtacha ko‘tarish balandligining oshishi, rudani karyer texnikasi yordamida tashishga ustuvor e’tibor qaratilishi hamda tog‘-kon texnikasini joriy ta’mirlash ishlari bilan bog‘liq;

2) Amortizatsiya xarajatlarining 93 mln AQSh dollariga (18%) o‘sishi tashqi xalqaro mustaqil konsultantlarni jalb qilgan holda foydali qazilmalar zaxiralari baholarining yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu qazib olish huquqlari amortizatsiyasining 31 mln AQSh dollariga oshishiga olib keldi. Bundan tashqari, 2024-yil oxirida foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar amortizatsiyasining ta’siri 2025-yilda to‘liq aks etadi.

Ish haqi, Tannarx:

Xodimlarga saflanadigan xarajatlarning 84 mln AQSh dollariga (18%) oshishi xodimlarning o‘rtacha sonining 4.24 % ga oshishi va ish haqining oshirilishi bilan bog‘liq. Asosiy omil - tarif stavkalarining oshirilishi, jumladan, 2024-yil dekabridan o‘rtacha tarifning 10 % ga oshirilishi.

Xayriya va homiylik:

2025-yilda homiylik xarajatlari 98 mln AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 7 mln AQSh dollariga ko‘p.

Aksiyador (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) qarorlariga muvofiq, “NKMK” AJ 52 ta bayonnoma bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirdi, bu 2024-yilga (36 ta bayonnoma) nisbatan 16 ta bayonnomaga ko‘p.

Moliyaviy xarajatlar:

Moliyaviy xarajatlarning 16 mln AQSh dollariga (6%) kamayishi quyidagi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Kreditlar va qarz mablag‘lari bo‘yicha foiz xarajatlari 36 mln AQSh dollariga (15,4 %) kamaydi. Bunga kredit portfeli hajmining 62 mln AQSh dollariga (2 %) qisqargani, shuningdek, qimmat kreditlarning nisbatan arzonroq moliyalashtirish manbalari (yevroobligatsiyalar) hisobidan qayta moliyalashtirilgani sabab bo‘ldi. Natijada 2025-yilda samarali foiz stavkasi 114 bazis punktga pasayib, 7,37 %ni tashkil etdi (2024-yildagi 8,81 %ga nisbatan).

2. Mazkur ijobiy ta’sir ARO majburiyatlarini diskontlash ta’sirining 8 mln AQSh dollariga (67 %) oshishi hisobiga qisman qoplandi.

Foydali qazilmalarni qazib olish solig‘I (FQQS):Foydali qazilmalarni qazib olish solig‘i bo‘yicha hisoblangan summaning 321 mln AQSh dollariga (44,4 %) oshishi tushumning (46,4 %)ga ko‘paygani bilan izohlanadi. Shuningdek, 25 % stavka bo‘yicha maxsus renta solig‘i 78 mln AQSh dollariga (67 %) oshdi. Mazkur o‘sish asosan Balpantov, Turboy va Pistali karyerlari hissasiga to‘g‘ri keladi.;

Foyda solig‘i (kechiktirilgan soliqlar ta’siri bundan mustasno):

Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlarning oshishi soliqqa tortilgunga qadar foydaning o‘sishi bilan izohlanadi. Bu o‘z navbatida 2025-yil tushumining oshishi bilan bog‘liq. 2025-yil uchun hisoblangan foyda solig‘i: 2,838 mln AQSh dollarini tashkil etdi. MHXS (IAS) 12 talablariga muvofiq kechiktirilgan soliqlarni hisoblash ta’siri: -198 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Ma’lumot uchun: 2025-yilda Kompaniya byudjetga foyda solig‘I bo‘yicha amalda 2,367 mln AQSh dollari miqdorida to‘lov amalga oshildi.

1.7. Kapitalni boshqarish

Kompaniyaning kapitalni boshqarish bo‘yicha asosiy maqsadi aksiyadorlik qiymatini maksimal darajada oshirish va umumiy daromadlilikni yaxshilashdan iborat. Kompaniya passivlar tuzilmasini (qarz mablag‘lari va kapital) optimallashtirish orqali faoliyatning uzluksizligini hamda barqaror moliyaviy holatni ta’minlaydi.

2025-yil may oyida Kompaniya London fond birjasida 144A qoidasi va S Nizomi (Regulation S) talablariga muvofiq, kupon stavkasi 6.75% va to‘lov muddati 2030-yil may oyi bo‘lgan 500 mln AQSh dollarlik yevroobligatsiyalar chiqardi. Fitch va S&P agentliklari ushbu obligatsiyalarga “BB-” reytingini berdi. Ushbu emissiyadan olingan mablag‘lar 2025-yil may oyida to‘liq qabul qilinib, mavjud qarzdorlikni ixtiyoriy muddatidan oldin to‘lashga yo‘naltirildi.

6-jadval. Qarz va o‘z kapitali kesimida umumiy kapitallashuv, mln AQSh dollari

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025

Umumiy kapital	4,965	4,716	4,809	5,425
Uzoq muddatli majburiyatlar hajmi	3,231	3,116	2,899	2,833
Joriy majburiyatlar hajmi	854	738	1,174	1,464

2. BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH

Muhim mavzular
• Barqaror rivojlanishni boshqarish • Ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik
Asosiy ko‘rsatkichlar
• **Sustainable Fitch debyut ESG**-reytingi olindi; • **6 ta korporativ ESG**-siyosat tasdiqlandi; • “NKMK” AJ **BMTning Global kelishuvi** tashabbusiga qo‘shildi; • Gender tengligi va inklyuzivlik xizmati tashkil etildi. Birinchi ichki gender audit o‘tkazildi.
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-9, 2-12, 2-13, 2-14, 2-17, 2-23, 2-24, 3-3

2.1. Barqaror rivojlanish masalalarini boshqarishga yondashuv

GRI 3-3, 2-24, 2-9, 2-12, 2-13, 2-14, 2-17, 2-23

Barqaror rivojlanish masalalari Kompaniya tomonidan uning uzoq muddatli muvaffaqiyati va manfaatdor tomonlar bilan samarali o‘zaro hamkorligini asosi sifatida qaraladi. ESG-yondashuvlari “NKMK” AJning barcha bo‘linmalarining strategik rejalashtirish va kundalik operatsion faoliyatiga izchil integratsiya qilinadi.

- **Manfaatdor tomonlarning kutilmalari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari tahlili asosida “NKMK” AJ uchun ESG-transformatsiyaning maqsad va vazifalari belgilandi:** “NKMK” AJning investitsion jozibadorligini oshirish;
- Manfaatdor tomonlarning talab va kutilmalarini qondirish;
- Uzoq muddatli istiqbolda biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlash, “yashil” iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish;
- ESG tamoyillarini biznes-model va korporativ madaniyatga tizimli integratsiya qilish.

Barqaror rivojlanishni boshqarish tizimi barcha darajalarda joriy etilgan bo‘lib, Kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi. Ichki normativ hujjatlarga muvofiq, boshqaruvning asosiy organlari Aksiyador, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv bo‘lib hisoblanadi hamda ularning har biri o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi.

Kuzatuv kengashi Kompaniyaning barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyati va erishilgan natijalari ustidan nazoratni amalga oshirishda markaziy o‘rin tutadi. U ESG-strategiyasini tasdiqlaydi, maqsadlarni belgilaydi, barqaror rivojlanish bilan bog‘liq xavflarni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, har yili asosiy tashabbuslarni kelishadi va mehnat muhofazasi hamda ekologiya sohasidagi ko‘rsatkichlarning bajarilishini nazorat qiladi. Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotni tasdiqlash masalasi Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilmagan. Ushbu tashabbus “NKMK” AJ Ustavi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv to‘g‘risidagi nizomlarning keyingi tahrirlariga o‘zgartirishlar kiritish jarayonida kelishish uchun ko‘rib chiqiladi.

2025-yilda Kompaniya barqaror rivojlanish sohasidagi yondashuvlarini rasmiylashtirish va tizimlashtirish maqsadida bir qator siyosatlarni qabul qildi:

- mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosat;
- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi siyosat;
- inson huquqlari bo‘yicha siyosat;
- xilma-xillik va inklyuzivlik bo‘yicha siyosat;
- manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha siyosat;
- bioxilma-xillik bo‘yicha siyosat.

1-rasm. 2025-yil 31-dekabr holatiga barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha boshqaruv tuzilmasi



“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

ESG tamoyillarining operatsion faoliyatda amalga oshirilishi

Transformatsiya dasturi doirasida va ESG tamoyillarini hamda mas'uliyatli oltin qazib olish tamoyillarini (RGMP)ni integratsiya qilish maqsadida Transformatsiya boshqarmasi tarkibida Barqaror rivojlanish va atrof-muhit bo‘limi (ESG) tashkil etildi. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Strategik va operatsion ESG-maqsadlarni yuqori rahbariyat bilan kelishish;
- ESG-transformatsiya vazifalarini muvofiqlashtirish va monitoring qilish;
- Barqaror rivojlanish bo‘yicha ichki korporativ siyosatlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Barqaror rivojlanish sohasida hisobot tayyorlash va ma'lumotlarni oshkor qilish;
- ESG-tashabbuslarning amalga oshirilishini nazorat qilish va zarur hollarda rejalarni to‘g‘rilash.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini samarali amalga oshirishning asosiy elementi barcha darajadagi xodimlarning faol ishtiroki hisoblanadi. ESG bo‘limi ishlab chiqarish bo‘linmalari va boshqaruv tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ularni dasturlar va tashabbuslarni ishlab chiqish hamda qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etadi. Boshqaruv a'zolari va funksional rahbarlarning faol ishtiroki ESG tamoyillarining korporativ madaniyatga har tomonlama integratsiyasini ta'minlaydi.

Strategik tashabbuslar, oltin qazib olishga mas'uliyatli yondashuv tamoyillari va Sianidlarni boshqarish xalqaro kodeksi

"NKMK" AJning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ESG dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish hamda joriy etish quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- Manfaatdor tomonlarning kutilmalari;
- Mintaqaviy kontekst va O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari;
- Konchilik va oltin qazib olish sohasidagi xalqaro tendensiyalar;
- BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari.

2023-yildan boshlab barqaror rivojlanish kun tartibining strategik yo‘nalishlaridan biri oltin qazib olishga mas'uliyatli yondashuv tamoyillari (RGMPs) va Siyanidlarni boshqarish bo‘yicha xalqaro kodeksi (ICMC) talablariga muvofiqlik yuzasidan yili o‘tkaziladigan audit hisoblanadi. Dastlabki auditning maqsadi RGMP va ICMC tamoyillari asosida ilg‘or xalqaro amaliyotni joriy etish bo‘yicha yo‘l xaritasini shakllantirish edi. 2025-yilda yo‘l xaritalari ijrosi jarayonini baholash va harakat rejalariga zarur tuzatishlar kiritish uchun ikkinchi nazorat auditi o‘tkazildi. Audit asosiy ishlab chiqarish bo‘linmalarini, jumladan, 7 ta qayta ishlash va 10 dan ortiq qazib olish obyektini qamrab oldi. O‘tkazilgan audit natijalari asosida Siyanidlarni boshqarish bo‘yicha xalqaro kodeks tamoyillarini joriy etish rejalari yangilandi, shuningdek, ekologik monitoring qamrovi kengaytirildi.

2025-yil noyabr oyida “NKMK” AJ BMTning Global kelishuvi strategik tashabbusiga qo‘shildi, bu barqaror rivojlanish tamoyillarining Kompaniya strategik rivojlanishi uchun ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ayollar yetakchiligini rivojlantirish yo‘nalishini kuchaytirish doirasida ishlab chiqarish bo‘linmalarida tashkil etilgan Xotin-qizlar kengashlarini birlashtiruvchi gender tengligi va inklyuzivlik xizmati alohida tuzilma sifatida ajratildi.

2.2. Barqaror rivojlanish sohasida xavflarni boshqarish

2025-yilda “NKMK” AJ risklarni boshqarish tizimini shakllantirish uchun asos yaratdi. Hozirgi vaqtda yangi tashkil etilgan Risklarni boshqarish bo‘limi tomonidan “NKMK” AJda risklarni boshqarish tizimini joriy etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Mazkur tizimning tarkibiy qismlaridan biri barqaror rivojlanish sohasidagi risklarni boshqarish hisoblanadi. Risklarni boshqarish haqida batafsil ma’lumot 3-bobda (3.2.2-bo‘lim) keltirilgan.

7-jadval. Asosiy risklar toifalari va tahlili

Risk nomi	**Boshqaruv chora-tadbirlari**
Biznes yuritishning etik tamoyillari: • Korrupsiyaviy holatlar va manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi risklari; • “NKMK” AJ xodimlari o‘rtasida axloqsiz xatti-harakatlarning sodir etilishi va korporativ madaniyatga putur yetishi	• Korrupsiyaga qarshi menejment tizimini ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha sertifikatlash; • “NKMK” AJning 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish; • Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki siyosatlar va tartib-taomillarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash, jumladan: — Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; — “NKMK” AJ va uning bo‘linmalarida Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom; — “NKMK” AJning xayriya va homiylik yordamini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizom; — “NKMK” AJ va uning bo‘linmalarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom; — “NKMK” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki audit o‘tkazish tartibi.
Faoliyatimizning ta’sirini anglash: • Manfaatdor tomonlar bilan samarasiz kommunikatsiya risklari;	• Ichki va tashqi manfaatdor tomonlardan kelib tushadigan shikoyat va murojaatlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish uchun yagona mexanizmning optimal faoliyat yuritishini ta’minlash (ushbu vazifani Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash ustidan nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi amalga oshiradi);

Risk nomi	Boshqaruv chora-tadbirlari
• Manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyat va kelishuvlarning bajarilmasligi risklari; Atrof-muhit va faoliyat hududlaridagi mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfi.	• Yozma va og‘zaki murojaatlar qilish uchun manfaatdor tomonlar uchun aloqa kanallarini ta’minlash, shuningdek, fuqarolar uchun bosh boshqarmada qabullar va ishlab chiqarish bo‘linmalari markazlarida sayyor qabullar tashkil etish; • Murojaatlarni qabul qilish uchun Telegram botning va Kompaniyaning rasmiy veb-saytida elektron yordamchining samarali ishlashini ta’minlash; • Kommunikatsiyani ta’minlash uchun yangi formatni joriy etish (“NKMK” AJ telegram-kanali orqali video-konferensiya va jonli efirlar o‘tkazish), murojaatlarni qabul qilish xizmati xodimlarini imo-ishora tiliga o‘rgatish; • Sanitariya muhofaza zonalarida (SMZ) va kuzatuv zonalarida davriy ekologik monitoring o‘tkazish, zarur hollarda tuzatish va oqibatlarni bartaraf etish choralarini ko’rish.
Yetkazib beruvchilar va pudratchilar: • Mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobatining cheklanishi riski; • Mahalliy ishlab chiqarilgan ehtiyot qismlar va uskunalarning muqobil variantlari mavjud emasligi riski.	• Qonunchilik talablariga muvofiq ochiq va shaffof xaridlar faoliyatini amalga oshirish; • “NKMK” AJ va uning bo‘linmalarida Yetkazib beruvchilarning prekvalifikatsion tekshirish to‘g‘risidagi nizomlar va Kontragentlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomani joriy etish; • “NKMK” AJ Yetkazib beruvchilari va kontragentlari axloq kodeksini joriy etish; • Mahalliylashtirish va sanoat kooperatsiyasi dasturini amalga oshirish.
Xavfsizlik va sog‘liqni saqlash: • Sabablarni bartaraf etish va baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilishini samarasiz nazorat qilish xavf; • Hodisalarning takrorlanishi risklari.	• Har bir ishlab chiqarish obyekti uchun ixtisoslashtirilgan nazorat varaqalaridan foydalangan holda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi tekshiruvning tubdan yangi tizimi tufayli mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi nazorati tizimining samaradorligini oshirish; • Hodisalarning yashirin sabablarini tahlil qilish metodologiyasini joriy etish hamda hodisalarning takrorlanishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish; • Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik xizmatida tarkibiy islohotlarni amalga oshirish;

Risk nomi	Boshqaruv chora-tadbirlari
	• Ishlab chiqarish bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga mehnatni muhofaza qilinish holati uchun bevosita javobgarlikni yuklash; • Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik talablariga rioya qilinishini ta’minlash uchun xodimlarning motivatsiyasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni joriy etish..
Inson huquqlari va nizolar: • Inson huquqlarining buzilishi riski; • Huquq egalarining yetarlicha fikr bildirmaslik riski.	• Barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarida ish joylarini attestatsiyadan o‘tkazish; • "NKMK" AJning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarida xodimlarining ishdagi faoliyi va qoniqish darajasini kompleks tahlil qilish; • Manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni ta’minlash va barcha kanallar orqali olingan so‘rovlarni va yuzaga keladigan har qanday muammolarni hal qilish.
Mehnat munosabatlari: • Kamsitish holatlari va mehnat huquqlari buzilishining namoyon bo‘lishi risklari; • Yuqori malakali xodimlarning ketib qolishi riski; • Chekka hududlarda malakasi past yoki malakasi yetarli bo‘lmagan ishchilarni yollash xavfi..	• “NKMK” AJ Kadrlar siyosati, Xodimlarning Odob-axloq kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni ta’minlash; • Ish haqi miqdorlarini har yil MHTEKM asosida indeksatsiya qilish, rag‘batlantirish va "NKMK" AJning ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘rtasida xodimlarni bir ishdan boshqa ishga o‘tkazish tizimini joriy etish; • Kompaniyaning barcha xodimlari, ularning oila a’zolari va pensionerlariga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish; • Xodimlar takliflari va “NKMK” AJ xodimlari Kasaba uyushmasi kengashi Markaziy komissiyasi qarori asosida Jamoa shartnomasini har yili qayta ko‘rib chiqish va yangilash; • “NKMK” AJ Gender tengligi va inklyuzivlik xizmatini joriy etish hamda gender tengligi bo‘yicha davriy audit o‘tkazish; • Xodimlarni o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Risk nomi	Boshqaruv chora-tadbirlari
Mahalliy hamjamiyatlar bilan ishlash: • Kompaniyaning ishlab chiqarish faoliyati doirasida mahalliy hamjamiyatlar jamoalarga ta’sir ko‘rsatish risklari; • Jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazishda ijtimoiy ma’qullash olinmasligi risklari; • Jamoalar oldidagi majburiyatlarning bajarilmasligi risklari.	• Respublikaning olis tumanlarida ish o‘rinlari yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta’minlash; • Prezident Administratsiyasining murojaatlar portali orqali kelib tushgan tashqi manfaatdor tomonlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish; • Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va mahalliy hamjamiyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni ta’minlash.
Atrof-muhitga g‘amxo‘rlik: • Atrof-muhit ko‘rsatkichlarining normativ talablari va belgilangan parametrlaridan oshib ketish riski; • Atrof-muhit qonunchiligi talablari buzilishi riski lari; • Atrof-muhitni muhofaza qilish choratadbirlari va harakatlar rejalarining bajarilishi ustidan samarasiz nazorat olib borishrisklari.	• Atrof-muhitga ko‘rsatiladigan ta’sirni davriy monitoring qilish va har bir obyekt bo‘yicha ishlab chiqarish faoliyati uchun ekologik ko‘rsatkichlar me’yorlariga (MREE va REMK) rioya qilish; • Bundan tashqari, Kompaniya ichki me’yoriy talablar va qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish uchun o‘zi ichki tekshiruvlarini o‘tkazadi va tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari tomonidan davriy rejali va rejadan tashqari tekshirishlardan o‘tadi.
Bioxilma-xillikni saqlash, yerdan foydalanish va konlarni yopish ishlari: • Faoliyat yuritilayotgan hududlarda va tutash hududlarda bioxilma-xillikka ta’sir ko‘rsatish riski; • Korxona va ishlab chiqarish obyektlarni majburiyatlarni noto‘g‘ri baholash riski.	• Kompaniya hududlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha “Yashil makon” davlat dasturini amalga oshirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda, hisobot davrida 450 mingdan ortiq manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekildi; • “Qizilqum” KB ishlab chiqarish hududida bioxilma-xillik bo‘yicha pilot tadqiqot o‘tkazildi.

Risk nomi	Boshqaruv chora-tadbirlari
Suv resurslari, energiya iste'moli va iqlim o'zgarishi: • Faoliyat yuritilayotgan hududlarda suv resurslarining miqdori va sifatiga ta'sir ko'rsatish riski; • Ishlab chiqarish o'sishi munosabati bilan energiya resurslari iste'moli va issiqxona gazlari (IG) chiqindilari miqdorining ortishi riski.	• Chora-tadbirlar rejalari har yili yangilanib boriladigan 2028-yilgacha energiya resurslarini tejash dasturi; • Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish; • Issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini inventarizatsiyasini o'tkazish, iqlim risklarini baholash hamda dekarbonizatsiya va iqlim o'zgarishlariga moslashish strategiyasini ishlab chiqish; • 2040-yilgacha bo'lgan davr uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish strategiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

2.3. BMTning ustuvor Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)

Kompaniya o'z operatsion faoliyati doirasida BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni qo'llab-quvvatlaydi. Bunda faoliyat yuritayotgan hududlarning rivojiga hissa qo'shadi, mas'uliyatli biznes yuritish tamoyillariga amal qiladi, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda xodimlar uchun adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlash ta'minlash yo'lida izchil ish olib boradi. "NKMK" AJ 2015-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan har bir 17 BRM muhim ekanligini e'tirof etadi va o'z faoliyati doirasida ularga erishishda faol ishtirok etadi. Kompaniyaning o'ziga xos sohaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, Kompaniyaning vazifalari va maqsadlariga muvofiq, "NKMK" AJ eng katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan BMTning 10 BRMni belgilab oldi.

8-jadval. Kompaniyaning BMTning ustuvor barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan faoliyatining qisqacha tavsifi

Maqsadlar	"NKMK" AJning maqsadlarga erishishga qo'shgan hissasi
Mavzu: Ekologiya va iqlim	
6-maqsad: Barcha uchun suv resurslari va kanalizatsiyadan foydalanish imkoniyatini hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash.	• "NKMK" AJning 2040-yilgacha suvdan oqilona foydalanish bo'yicha Strategiyasi va maqsadlari tasdiqlandi. • Umumiy suv iste'molidagiqayta foydalaniladigan suv resurslari ulushi - 26.29%
7-maqsad: Barcha uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiyadan foydalanishni imkoniyatini ta'minlash	• Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarini amalga oshirish davom ettirildi. • Hisobot davri yakuniga ko'ra o'rnatilgan geliokollektorlar soni 4,993 donani tashkil etdi.

"NKMK" AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

Maqsadlar	“NKMK” AJning maqsadlarga erishishga qo‘shgan hissasi
12-maqsad: Ratsional iste’mol qilish va ishlab chiqarish modellariga o‘tishni ta’minlash	• Ishlab chiqarish korxonalari chiqindilarini qayta ishlash tamoyillari joriy etilmoqda. Ushbu yo‘nalish doirasida texnologik reglamentni ishlab chiqish maqsadida GMZ sharoitida volfram va molibdenni yo‘ldosh ravishda ajratib olish bo‘yicha respublikaning ilmiy-sanoat markazlari bilan hamkorlikda tajriba-sanoat ishlari olib borilmoqda. • NMZ ishlab chiqarish birlashmasida “NKMK” AJ ehtiyojlari uchun metall detallar va metall konstruksiyalar ishlab chiqarishda foydalanish maqsadida 46 700 tonna metall miqdorida metallolomni ko‘p marotaba qayta ishlash amalga oshirildi.
13-maqsad: Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish uuchun shoshilinch choralar ko‘rish	• 1 va 2-qamrovlar bo‘yicha issiqxona gazlari chiqindilari manbalarining inventarizatsiyasi o‘tkazildi. • Kompaniya va mahalliy hamjamiyatlarning iqlim risklarini baholash yondashuvlari ishlab chiqildi. • Qayta tiklanuvchi energiya (QTE) manbalaridan foydalanish natijasida 7,074 t CO_2-ekv. miqdoridagi issiqxona gazlari chiqindilarining oldi olindi.
Mavzu: Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mehnat muhofazasi	
3-maqsad: Barcha yoshdagi insonlar uchun sog‘lom hayot tarzi va farovonlikni ta’minlash	• LTIFR ko‘rsatkichi 0.32 ni, FAR ko‘rsatkichi — 0.08 ni tashkil etdi. • Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va FV holatlarida harakat qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarni tekshirishdan 14.8 ming xodim o‘tdi. • Sun’iy intellekt asosidagi videoanalitika tizimi (240 dan ortiq kamera) joriy etildi. Mazkur tizim qoidabuzarliklarni aniqlash, xavfli hududlarni nazorat qilish hamda shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanishni monitoring qilish imkonini beradi. • 2025-yilda “NKMK” AJ xodimlarining professional tibbiy ko‘riklardan o‘tganlar soni 40,687 nafarni tashkil etdi (erkaklar – 89,2 %, ayollar – 10,8 %).
4-maqsad: Keng qamrovli va adolatli sifatli ta’limni ta’minlash va barcha uchun butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish	• Kasbiy o‘qitish va malaka oshirish dasturlari bo‘yicha 17,686 xodim o‘qitildi. • Hisobot davrida korporativ masofaviy o‘qitish platformasida 7,907 dan ortiq xodim ta’lim oldi. • “NKMK” AJ va NDKTU o‘rtasidagi dual ta’lim dasturi bo‘yicha amaliyot o‘tash uchun OTMning 150 nafar talabasi transport, ovqatlanish va mehnat haqi bilan ta’minlandi.

Maqsadlar	"NKMK" AJning maqsadlarga erishishga qo‘shgan hissasi
	• Hisobot davrida "NKMK" AJ obyektlarida O‘zbekiston Respublikasi OTMlaridan 1,193 nafar talaba uchun ishlab chiqarish amaliyoti dasturlari amalga oshirildi. Ishga qabul qilish 953 nafar yosh mutaxassisni tashkil etdi.
5-maqsad: Gender tengligini ta’minlash va barcha ayollar va xotinqizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	• Kompaniyaning birinchi ichki gender auditi o‘tkazildi. • Gender tengligi va inklyuzivlik xizmati tashkil etildi. • Teng imkoniyatlarni ta’minlash va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini amalga oshirish davom ettirildi. • Xodimlarning umumiy sonidagi ayollar ulushi 12 % ni tashkil etdi.
8-maqsad: Izchil, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishga, to‘liq va samarali bandlik va hammani munosib mehnat bilan ta’minlashga ko‘maklashish	• Xodimlarning ro‘yxatdagi soni 50,491 kishini tashkil etdi. • 2025-yilda yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni 2,628 tani tashkil etdi. • Xodimlar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish davom ettirildi. • Mayda va hunarmandchilik yetkazib beruvchilaridan oltin qabul qilish - 65.5 kg va kumush - 8.8 kg ni tashkil etdi.
Mavzu: Korporativ boshqaruv	
9-maqsad: Barqaror infratuzilmani yaratish, inklyuziv va barqaror sanoatlashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash	• 500 mln AQSh dollari miqdorida yevroobligatsiyalar chiqarildi. • Kompaniya raqamli transformatsiya va innovatsion yechimlarni joriy etish sohasida yetakchi o‘rinlarni egalladi: 189 ta rasionalizatorlik taklifi ishlab chiqilib, ishlab chiqarishga joriy etildi. Olingan haqiqiy iqtisodiy samara taxminan 355.4 ming AQSh dollarini, kutilayotgan samara esa (joriy etish va tajriba-ekspluatatsiya bosqichidagi takliflar bo‘yicha) — taxminan 9.93 mln AQSh dollarini tashkil etdi.
17-maqsad: Barqaror rivojlanish uchun hamkorlik	• "NKMK" AJ BMTning Global kelishuviga qo‘shildi. • RGMP tamoyillari va Xalqaro sianidlarni boshqarish kodeksi (ICMC) talablariga muvofiqlik bo‘yicha nazorat auditi o‘tkazildi.

2.4. Barqaror amaliyotlarining rivojlanishi va xalqaro tamoyillarga rioya qilish

GRI 2-1

2022-yil 1-yanvardan boshlab Kompaniya aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritmoqda, bu zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, shaffoflikni oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va jahonning eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilari orasidagi mavqeyini mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

“NKMK” AJning tarixiy rivojlanishi barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilishga yo‘naltirilgan yondashuvning shakllanganini namoyon etadi. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, sifat menejmenti, ekologiya, mehnat muhofazasi va energiya menejmenti tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, axborotlarni ochib berish hamda manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlikni kengaytirishni o‘z ichiga oladi.

2025-yil ilk korporativ ESG-reytingi, birinchi ichki gender auditning o‘tkazilishi, BMTning Global kelishuvi tarmog‘iga qo‘shilish, shuningdek, barqaror rivojlanish bo‘yicha korporativ siyosatlarning tasdiqlanishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. 2023-yildan boshlab Kompaniya Mas’uliyatli oltin qazib olish tamoyillari va Siyanidlar bilan ishlash bo‘yicha xalqaro kodeks tamoyillariga muvofiqlik yuzasidan har yili audit (taraqqiyot auditi) o‘tkazib kelmoqda. 2025-yilda audit doirasida Kompaniya so‘nggi 2 yilda erishilgan natijalar asosida harakat rejalarini yangilash maqsadida ICMC tamoyillari bo‘yicha chuqurlashtirilgan tekshiruv o‘tkazdi.

Barqaror amaliyotlar evolyutsiyasi
Xalqaro qarash va ishonchni shakllantirish (1994–2005)

- **1994** — London qimmatbaho metallar bozori assotsiatsiyasiga (LBMA) a’zo bo‘lish, “Optimal yetkazib berish” maqomi hamda Proaktiv monitoring sertifikati olindi.
- **2000** — MITLda ISO/IEC 17025 ni joriy etildi.
- **2005** — MKBda integratsiyalashgan menejment tizimini sertifikatlandi.

Menejment tizimlarini rivojlantirish va ekologik texnologiyalarni joriy etish (2006–2015)

- **2006** — ISO 9001 ni “NMZ” IChBga kengaytirildi.
- **2008** — 3-GMZda ekologik jihatdan xavfsiz BIOX texnologiyasi joriy etildi.
- **2015** — MKB integratsiyalashgan menejment tizimi standartlari yangilandi (sifat, ekologiya, mehnat muhofazasi).

Energiya samaradorligi tamoyillarini joriy etish va hisobot shaffofligini oshirish (2017–2021)

- **2017** — ISO 50001 ni joriy etildi.
- **2018** — ISO 45001 ga o‘tildi va MHXS (IFRS) bo‘yicha birinchi moliyaviy hisobotni e’lon qilindi.

- **2019** — barqaror rivojlanish bo‘yicha birinchi hisobot e’lon qilindi.
- **2020** — barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobotning birinchi mustaqil audit orqali tasdiqlanishi amalga oshirildi (keyinchalik har yili).

“NKMK” AJning ESG-transformatsiyasi (2022–2025)

- **2022** — MM, SX va ekologiya (ESG) bo‘yicha direktor lavozimini joriy etildi
- Komplayens xizmatini joriy etildi;
- Odob-axloq kodeksi tasdiqlandi.
- **2023** — RGMPs va ICMC tamoyillariga muvofiqlik bo‘yicha audit o‘tkazildi;
- “eistb.ngmk” elektron platformasi ishga tushirildi;
- ESG yo‘nalishidagi maxsus bo‘linma tashkil etildi.
- **2024** — MKB integratsiyalashgan menejment tizimini qayta sertifikatlandi;
- ISO 37001 talablari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi menejment tizimi sertifikatlandi;
- masofaviy o‘qitish tizimini ishga tushirildi;
- Kontragentlar etikasi kodeksi tasdiqlandi;
- RGMPs va ICMC standartlarini joriy etish bo‘yicha birinchi progress auditi o‘tkazildi;
- "NKMK" AJ Tog‘-kon sanoatida faoliyat yurituvchi ayollar xalqaro tashkiloti (International Women in Mining — IWiM)ga qo‘shilgan O‘zbekistonning birinchi kompaniyasiga aylandi..
- **2025-yil** - Sustainable Fitch debyut ESG-reytingini olish;
- barqaror rivojlanish bo‘yicha korporativ siyosatlar joriy etildi;
- iqlim strategiyasini ishlab chiqildi;
- “Qizilqum” KBda bioxilma-xillik bo‘yicha pilot tadqiqot o‘tkazildi;
- gender tengligi va inklyuzivlik xizmatini joriy etildi, birinchi ichki gender audit o‘tkazildi;
- RGMP va ICMC tamoyillarini joriy etish progressi bo‘yicha yillik audit o‘tkazildi;
- Barqaror rivojlanish bo‘yicha dunyodagi eng yirik tashabbus — BMT Global Shartnomasiga a’zo bo‘ldi.

9-jadval. Assotsiatsiyalarda ishtirok etish va xalqaro tamoyillarga amal qilish

GRI 2-28

Sertifikatlash	**Joriy majburiyatlar**	**Muvofiqlikni tekshirish davriyligi**
London qimmatbaho metallar bozori assotsiatsiyasi a’zosi	Global qimmatbaho metallar bozori kodeksiga muvofiq majburiyatlarni bajarish	Har yili, 1994-yildan
Proaktiv monitoring sertifikati - Oltin (Proactive Monitoring Certificate)	MKBning Markaziy zavod laboratoriyasi (MZL) 999.9 oltin tahlili bo‘yicha laboratoriya sinovlari to‘g‘ri o‘tkazilishi borasida sinovdan o‘tkazildi.	Har 3 yilda, 1994-yildan
Mas’uliyatli Oltin sertifikati (Responsible Gold Certificate – RGG LBMA)	Rahbariyat talablariga muvofiq hisobotni har yili nashr etish. Hisobotni tashqi mustaqil tomonidan tasdiqlash,	Har yili, 2015-yildan

Sertifikatlash	Joriy majburiyatlar	Muvofiqlikni tekshirish davriyligi
	kompaniya veb-saytidagi ma’lumotlarni oshkor qilish.	
O‘z DSt ISO/IEC 17025:2019 - Sinov va kalibrlash laboratoriyalarining umumiy malaka talablari	Har yil tashqi mustaqil audit o‘tkazish.	Har yili, 2000-yildan
ISO 9001:2015 - Sifat menejmenti tizimi	Yillik tashqi mustaqil auditni o‘tkazish.	Har yili, 2005-yildan
ISO 14001:2015 – Ekologik menejment tizimi	Yillik tashqi mustaqil auditni o‘tkazish.	Har yili, 2015-yildan
ISO 45001:2018 – Mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish xavfsizligi menejmenti tizimi	Yillik tashqi mustaqil auditni o‘tkazish.	Har yili, 2018-yildan
O‘z DSt ISO 50001:2019 – Energiya menejmenti tizimi	Yillik tashqi mustaqil auditni o‘tkazish.	Har yili, 2017-yildan
“NKMK” AJ bosh boshqarmasining ISO 37001:2016 standartiga muvofiq korrupsiyaga qarshi menejment tizimi;	Yillik nazorat auditi	Har yili
IWIM - Tog‘-kon sanoatidagi ayollarning xalqaro assotsiatsiyasi	Assotsiatsiya a’zolari konferensiyalarida har yili ishtirok etish	Talab etilmaydi
UNGC - BMTning Global kelishuvi	BMT GKning 10 ta tamoyilini kompaniya faoliyatiga joriy etish progressi haqida axborotni oshkor qilish	Har yili

2.5. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik

GRI 2-29

Kompaniyaning muvaffaqiyati va uzoq muddatli barqarorligi uning manfaatdor tomonlarning keng doirasi bilan hamkorligiga bog‘liq. “NKMK” AJning manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikka yondashuvi shaffoflik va faol kommunikatsiyaga asoslangan bo‘lib, bu manfaatdor tomonlarning fikr va mulohazalari eshitilishi hamda qarorlar qabul qilish jarayonida inobatga olinishini kafolatlaydi.Kompaniya manfaatdor tomonlarning asosiy guruhlarini aniqlaydi va ularning ehtiyoj hamda kutilmalarini tushunish, shuningdek, salbiy ta’sirlarning oldini olish maqsadida har biri bilan individual yondashuv asosida hamkorlik qiladi. Manfaatdor tomonlarning asosiy guruhlari ularning “NKMK” AJning joriy faoliyati va strategik rivojlanishiga ta’siri, shuningdek, kompaniyaga bo‘lgan manfaatdorlik darajasi asosida belgilanadi.

10-jadval. “NKMK” AJ manfaatdor tomonlari va ular bilan o‘zaro hamkorlik strategiyalari

Shkala: Kompaniyaga ta’ sir			
	Yuqori	**Xabardor qilish va manfaatlarni qondirish**	**Yaqin hamkorlik va sheriklik**
		• Mahsulot iste’molchilari • Investorlar va moliyalashtiruvchi tashkilotlar • Davlat organlari va regulyatorlar	• Aksiyador • Kuzatuv kengashi • Xodimlar • Kasaba uyushmasi • Mahalliy jamoalar
	Past	**Monitoring**	**Xabardor qilish va jalb etish**
		• Analog kompaniyalar	• OAV, jamoat tashkilotlari, NNT • Reyting agentliklari va auditorlar • Ilmiy, ta’lim va ekspert muassasalari • Yetkazib beruvchilar va biznes-hamkorlar • Kichik ko‘lamli va an’anaviy usullarda qazib oluvchilar
		Past	**Yuqori**
	Shkala: Kompaniyaga qiziqish		

2025-yilda Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik bo‘yicha siyosatni qabul qildi. Manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv, ochiq va natijali muloqot tizimini shakllantirish shaffoflik va hisobdorlik, o‘zaro hurmat, mas’uliyatli hamkorlik hamda sheriklik tamoyillariga tayanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlar manfaatlarini aniqlash va hisobga olish korporativ risklarni boshqarish tizimiga ham joriy etilmoqda. Ishonchning oshishi va Kompaniya ishbilarmonlik obro‘sining mustahkamlanishi ana shunday hamkorlikning natijalaridir.

“NKMK” AJning manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik strategiyasining asosiy elementi ularning xavotir va savollariga samarali javob bera olish qobiliyatidir. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik axborot almashinuvi, muloqot formatlari, qayta aloqa kanallari, ijtimoiy dastur va tashabbuslarni amalga oshirish orqali yuritiladi.

11-jadval. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik

Hamkorlik usullari	Vositalar	Asosiy qo‘llanilishi
Axborot	Korporativ veb-sayt, yillik va ESG-hisobotlar, press-relizlar, axborot byulletenlari, OAV, ijtimoiy tarmoqlar	Keng auditoriyani xabardor qilish
Yozma kommunikatsiyalar	Rasmiy xatlar, so‘rov va javoblar, tarqatmalar, nashrlar	Davlat organlari, hamkorlar, investorlar
Muloqot	Uchrashuvlar, jamoatchilik maslahatlari, davra suhbatlari, konferensiyalar, ishchi guruhlar, intervyular	Maslahatlashuv va jalb etish
Bevosita va sayyor uchrashuvlar	Qabul kunlari, jamoalarda sayyor uchrashuvlar, shaxsiy qabul	Mahalliy jamoalar
Elektron kanallar	Elektron pochta, bot-yordamchi, virtual qabulxona, “ishonch telefoni”	Operativ hamkorlik va qayta aloqa
Ommaviy tadbirlar	Loyihalar taqdimoti, ochiq eshiklar kunlari, sohaviy forumlar	Jamoalar, NNT, OAV, hamkorlar

2.6. Muhim mavzularni aniqlash

GRI 3-1, 3-2

Axborotni oshkor qilish doirasida “NKMK” AJ muhimlik tamoyiliga amal qiladi va manfaatdor tomonlar uchun eng muhim masalalarni yoritishga intiladi.

Mazkur Hisobotni tayyorlash jarayonida tog‘-kon sanoati sohasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mavzular (GRI 14: Mining, SASB Mining and Metals), shuningdek, ichki va tashqi manfaatdor tomonlar uchun dolzarb masalalar tanlab olindi. 2025-yilda Kompaniya, shuningdek, muhim ESG omillarini aniqlash maqsadida barqaror rivojlanish bo‘yicha Yevropa hisobot standartlari (ESRS) tavsiyalariga muvofiq ikki tomonlama muhimlikni baholash (DMA)ni amalga oshirdi:[1]

- Kompaniyaning jamoalar va manfaatdor tomonlarning ekologik hamda ijtimoiy farovonligiga ta’siri;

[1]GRI 14: Mining 2024 – konchilik sektori uchun Global hisobot tashabbusi (GRI)ning tarmoq standarti.
SASB Mining and metals - Barqaror rivojlanish hisobi standartlari kengashining metallurgiya va konchilik sektori uchun tarmoq standarti.

- Kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan xatarlar va imkoniyatlar.

2-rasm. Ikki tomonlama muhimlik **konsepsiyasi**



Mazkur Hisobot uchun barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyat natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish “NKMK” AJ boshqaruvi darajasida amalga oshirildi. Ko‘rsatkichlar GRI standartlari talablari hamda SASBning tanlangan ko‘rsatkichlariga muvofiq ochib berildi va hisoblab chiqildi. Hisobot ilovalarida ko‘rsatkichlarni ochib berishda foydalanilgan tegishli standartlarga havolalar (indekslar) keltirilgan. Ikki tomonlama muhimlikni baholash jarayonida ma’lumotnoma ro‘yxati sifatida GRI 14: Mining Sector 2024 tarmoq standarti qo‘llanildi.

Muhim mavzularni aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirildi:

1. “NKMK” AJning biznes-kontekstini tahlil qilish:

- Oxshash kompaniyalar, sohaviy megatrendlar va qonunchilik tahlili;
- Manfaatdor tomonlar va ularning asosiy manfaatlarini tahlil qilish;
- Ichki hujjatlarni tahlil qilish, qiymat yaratish zanjirini xaritalash (yetkazib beruvchilar, o‘z faoliyati, iste’molchilar).

2. Barqaror rivojlanish bilan bog‘liq ta’sirlar, risk va imkoniyatlarni (IRO) aniqlash:

- “NKMK”ning biznes kontekstini tahlil qilish natijalari asosida ta’sirlar vaimkoniyatlarni (IRO) aniqlash;
- O‘ziga xos IROlarni aniqlash maqsadida ichki manfaatdor tomonlar bilan intervyular otkazish;
- IROlarning kengaytirilgan ro‘yxatini shakllantirish.

3. IROlarning muhimligini baholash:

- "NKMK" AJ tomonidan aniqlangan ta'sirlarning atrof-muhit, jamiyat, iqtisodiyot va inson huquqlariga ta'sirining muhimligini baholash (ta'sir kuchi, qamrovi, qaytarib bo'lmasligi va yuzaga kelish ehtimoli);
- Aniqlangan risk va imkoniyatlarning kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri muhimligini baholash (moliyaviy samaraning yuzaga kelish ehtimoli va hajmi).

4. IROlarni ustuvorlashtirish va muhim mavzular ro'yxatini shakllantirish:

- Muhim IROlarning qisqa ro'yxatini kelishish;
- Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha muhim mavzular ro'yxatini shakllantirish: "NKMK" AJning atrof-muhit, jamiyat, iqtisodiyot va inson huquqlariga ta'siri nuqtayi nazaridan hamda "NKMK" AJning biznes-strategiyasi va moliyaviy ko'rsatkichlari uchun ahamiyati nuqtai nazaridan.

O'tkazilgan muhim mavzular tahlili natijalariga ko'ra, ikki tomonlama muhimlikni baholash usuli bo'yicha aniqlangan mavzular GRI 14: Mining ma'lumotlarni oshkor qilish sohaviy standarti mavzulariga mos kelishi aniqlandi. Shunday qilib, ushbu hisobotda axborotni oshkor qilish uchun foydalaniladigan muhim mavzular ro'yxati quyidagi jadvalda keltirilgan.

12-jadval. 2025-yil hisobot davri uchun axborotni oshkor qilishda foydalanilgan muhim mavzular va ularning muvofiqligi

"NKMK" AJ ikki tomonlama muhimlik tahlili natijalari bo'yicha muhim mavzular	**GRI 14: Kon-qazib olish sektori (2024) sohaviy standartining muhim mavzulari**
Ekologik mavzular	
• Energiya va iqlim • Havoning ifloslanishi • Suvning ifloslanishi • Suv resurslaridan oqilona foydalanish • Chiqindilar va xavfli moddalar bilan muomala qilish • Tuproqning ifloslanishi • Chiqindi saqlash omborxonalari va uyumli ishqorlash maydonchalarini boshqarish • Suv resurslaridan oqilona foydalanish • Bioxilma-xillik va yerdan foydalanish • Ishlab chiqarish obyektlarini yopish va rekultivatsiya	14.1-mavzu Issiqxona gazlari (IG) chiqindilari 14.2-mavzu Iqlim o'zgarishiga moslashish 14.3-mavzu Atmosferaga chiqindilari 14.4-mavzu Bioxilma-xillik 14.5-mavzu Chiqindilar 14.6-mavzu Chiqindi saqlash omborxonalari 14.7-mavzu Suv va oqava suvlar 14.8-mavzu Ishlab chiqarish obyektlarini yopish va rekultivatsiya
Ijtimoiy mavzular	

• Adolatli mehnat sharoitlari, xilma-xillik va inklyuzivlik • Majburiy va bolalar mehnati • Mehnat munosabatlari, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish • Mehnatni muhofazasi va xodimlar salomatligini saqlash • Avariya va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik • Ta’sir ko‘rsatilgan jamoalar • Kichik hajmli va an’anaviy usullarda qazib oluvchilar bilan hamkorlik	14.10-mavzu Mahalliy jamoalar 14.11-mavzu Tub xalqlar huquqlari 14.12-mavzu Yer va resurslardan foydalanish huquqlari 14.13-mavzu Kichik ko‘lamli va an’anaviy usullarda qazib oluvchilar 14.14-mavzu Xavfsizlik amaliyotlari 14.15-mavzu Muhim hodisalarni boshqarish 14.16-mavzu Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi 14.17-mavzu Bandlik amaliyoti 14.18-mavzu Bolalar mehnati 14.19-mavzu Majburiy mehnat va zamonaviy qullik 14.20-mavzu Uyushmalar erkinligi va jamoa muzokaralarini olib borish 14.21-mavzu Kamsitmaslik va teng imkoniyatlar
Korporativ boshqaruvga oid mavzular	
• Ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik • Davlatga to‘lovlar va davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish • Korrupsiyaga qarshi kurash va axloqiy xulq-atvor • Mas’uliyatli ta’minot zanjiri	14.22-mavzu Korrupsiyaga qarshi kurash 14.23-mavzu Davlatga to‘lovlar 14.24-mavzu Davlat siyosati 14.25-mavzu Nizolar mavjud hududlarda va yuqori riskli hududlarda faoliyat 14.9-mavzu Iqtisodiy ta’sir

3-rasm. “NKMK” AJning 2025-yil uchun ikki tomonlama muhimlik tahlili



2.7. Innovatsion rivojlanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish

2.7.1. Innovatsion rivojlanishni boshqarish tuzilmasini takomillashtirish

Hisobot davri yakunida (2025-yil) innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini qayta tashkil etish uchun asos yaratildi: 2025-yil 22-dekabrdagi 957-sonli buyruq bilan “NKMK” AJ tarkibida Innovatsion rivojlanish departamenti va uning tarkibida Innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar markazini (R&D) tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorning amaliy amalga oshirilishi 2026-yilga mo‘ljallangan. Departament va Innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar markazini bosqichma-bosqich xodimlar bilan shakllantirish, shuningdek, Markaz hamda tarmoq jurnalining tahririyatini tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu bosqich doirasida Innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar markazi to‘g‘risidagi nizomni hamda Markaz ishchi organ sifatida faoliyat yuritadigan Ilmiy-texnik kengash (ITK) faoliyati reglamentini tasdiqlash ham nazarda tutilgan. Mazkur Markaz loyihalarni ekspert-tahliliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ularning samaradorligini nazorat qilishni ta’minlaydi.

Innovatsion rivojlanish dasturi doirasida 2025-yilda moliyalashtirish hajmi taxminan 7.95 mln AQSh dollari bo‘lgan 55 ta loyiha amalga oshirildi. Ish tannarxni, qazib olish va qayta ishlashning resurs hamda energiya sig‘imini kamaytirish, geologiya-qidiruv samaradorligini oshirish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish ustuvorliklari bo‘yicha olib borildi.

2025-yilda ishlab chiqarishga 189 ta ratsionalizatorlik taklifi ishlab chiqildi va joriy etildi. Olingan amaldagi iqtisodiy samara qariyb 355,4 ming AQSh dollarini, shuningdek, kutilayotgan iqtisodiy samara (joriy etish va tajriba-sanoat ekspluatatsiyasi bosqichida bo‘lgan takliflar bo‘yicha) qariyb 9,93 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

2025-yilda amalga oshirilgan rasionalizatorlik va innovatsion yechimlarning salmoqli qismi Kompaniyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog‘liq.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish yo‘nalishida eng salmoqli samara shahar suv yig‘ish ko‘lidan drenaj suvlarini quduqlar burg‘ilash va ularni texnik suv ta’minoti tarmog‘iga ulash orqali qayta foydalanishga jalb etish hisobiga erishildi (kutilayotgan samara — qariyb 684 ming AQSh dollari). Ushbu yo‘nalishga, shuningdek, “Pistali” konining karyer va drenaj suvlarini 6-GMZ texnologik ehtiyojlari uchun jalb etish (kutilayotgan samara — qariyb 397.6 ming AQSh dollari) hamda suv sarfini 30–60 foizga kamaytiruvchi sug‘orishni avtomatik boshqarish tizimi ham kiradi.

Energiya samaradorligi sohasida uyumni ishqorlash sexidagi tegirmonning chastota bilan boshqariladigan yuritmasini almashtirish (elektr energiyasini tejash), nasos agregatlarini energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan agregatlarga almashtirish (sutkasiga qariyb 1,566 kVt·soat elektr energiyasini tejash), shuningdek, elektr tarmoqlaridagi texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish va yuqori yuklama davrlarini barqarorlashtirish uchun energiya to‘plagichlardan foydalanish bo‘yicha yechimlar joriy etildi.

Barqaror rivojlanish uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri sianidlarni xavfsiz boshqarish bo‘yicha yechimlardir. Ushbu yechimlar ICMC talablari nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi: GMZ-1da sorbsiya chiqindisi pulpasidan natriy sianid eritmasini ajratib olish va qayta foydalanish (NaCN sarfini kamaytirish, kutilayotgan samara — qariyb 23,853 ming AQSh dollari), shuningdek, sianidlash jarayonini optimallashtiruvchi, reagentlar sarfini kamaytiruvchi va ekologik xatarlarni minimallashtiruvchi sianid-ionlari konsentratsiyasini o‘lchashning muqobil usulini joriy etish.

Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi yo‘nalishida shaxsiy himoya vositalarini hisobga olish va nazorat qilish dasturi, tog‘ jinslaridagi osilib qolgan qismlarni mexanizatsiyalashgan holda tozalash, karyer bortlari va kon lahimlarining barqarorligini nazorat qilish hamda boshqa yechimlar amalga oshirildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida yer osti kon texnikasining chiqindi gazlarini qisman tozalash qurilmasi, havo filtrlari tozalash punktlarini aspiratsiya tizimlari bilan jihozlash, daraxt-buta ko‘chatlarini ekish uchun moslama, shuningdek, CODEL GCEM 4000E avtomatik gaz analizatorlarining chiqindilar monitoringi uchun namuna olish zondini himoya qilish tizimi joriy etildi.

2026-yil uchun innovatsion rivojlanish dasturi va ustuvor yo‘nalishlar

2026-yilning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga ISO 56002 va ISO 56001 standartlari asosida innovatsiyalarni boshqarish tizimini joriy etish, “muammolar reyestri” va

"innovatsion yechimlar banki"ni shakllantirish, "Raqamli kon" (Digital Mine) konsepsiyasini rivojlantirish, shuningdek, fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish, jumladan, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlikni rivojlantirish kiritilgan.

2026–2030-yillar istiqbolida "Smart Mining Company" modelini "yashil texnologiyalar" va operatsion samaradorlikka ustuvor e'tibor qaratgan holda shakllantirish rejalashtirilgan. Bunda suv va energiyani tejash texnologiyalarini qo'llash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, ekologik monitoring samaradorligini oshirish, changni bostirish hamda aspiratsiya tizimlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratiladi.

2.7.2. Raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

"Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi doirasida Kompaniya ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha tizimli dasturni amalga oshirmoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda 2025–2030-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha Yo'l xaritasi tasdiqlangan. Mazkur Yo'l xaritasi geologik-qidiruv ishlari, qazib olish, qayta ishlash, sanoat xavfsizligi, energetika hamda uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida sun'iy intellektga asoslangan 24 ta loyihani amalga oshirishni nazarda tutadi. 2026-yil uchun videoanalitika, prediktiv texnik xizmat ko'rsatish, energiya iste'molini optimallashtirish hamda korporativ jarayonlarni avtomatlashtirish yo'nalishlarida sun'iy intellektga asoslangan 10 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari sifatida ishlab chiqarish va biznes jarayonlariga sun'iy intellektni joriy etish, korxonani boshqarishning raqamli platformalarini rivojlantirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va yuqori unumdor hisoblash infratuzilmasini yaratish, shuningdek, xaridlar, budjetlashtirish va shartnomalarni yuritish jarayonlarini raqamlashtirish belgilangan.

Amalga oshirilgan loyihalar va erishilgan natijalar

2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy investitsiya hajmi 14,2 mln AQSh dollari va jami iqtisodiy samarasi 42,41 mln AQSh dollarini tashkil etgan 13 ta raqamlashtirish loyihasi amalga oshirildi. Eng katta samara gidrometallurgiya zavodlarini raqamlashtirish (yillik iqtisodiy samarasi 11,53 mln AQSh dollari) hamda energiya resurslari iste'molini optimallashtirish (18,13 mln AQSh dollari miqdoridagi tejamkorlik) hisobiga ta'minlandi. 2025-yilda Kompaniya texnikani monitoring qilish va dispetcherlashtirish, yer osti xodimlari bilan aloqa o'rnatish hamda ularning joylashuvini aniqlash, texnologik jarayonlarni masofadan nazorat qilish, sanoat xavfsizligi bo'yicha videoanalitika va karyer texnikasi haydovchilarining holatini nazorat qilish tizimlarini kengaytirish hamda foydalanishga topshirish bo'yicha ishlarni davom ettirdi..

Quyidagi asosiy axborot tizimlari joriy etildi:

- kon texnikasi monitoringi va raqamli dispetcherlik boshqaruvi tizimlari;
- texnologik jarayonlarni masofadan nazorat qilish tizimlari;
- faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha KPI ko'rsatkichlarini monitoring qilish uchun BI-dashbordlar;
- "Yagona g'aznachilik" korporativ platformasi — xaridlar, shartnomalarni boshqarish va budjetlashtirish jarayonlarini raqamlashtirish;
- yer osti xodimlarining joylashuvini nazorat qilish uchun sanoat xavfsizligi sohasidagi

sun’iy intellekt yechimlari;
- Xodimlarni boshqarish bo‘yicha raqamli yechimlar va boshqalar.

Avtomatlashtirish texnologik jarayonlarni intellektual boshqarish tizimlarini joriy etish, dispetcherlashtirish va monitoring tizimlarini rivojlantirish, xodimlar hamda texnikaning joylashuvini aniqlash, shuningdek, uchuvchisiz texnologiyalar va raqamli modellashtirishni qo‘llashga qaratilgan. Bunda quyidagi loyihalar flagman loyihalar hisoblanadi:

- “Xavfsiz raqamli shaxta” — mikroseysmik monitoring va geomekanik xatarlarni sun’iy intellekt asosida prognozlash;
- “SI — Raqamli gidrometallurgiya (GMZ-7)” — yangi avlod ishlab chiqarishni tezkor boshqarish tizimini (MES) joriy etish.
- “O‘zbekkosmos” agentligi bilan hamkorlikdagi pilot loyiha — Muruntov konida qazib olish hajmlarini yuqori aniqlikda hisoblash va karyerning raqamli modellarini yaratish uchun uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha 2 000 nafardan ortiq xodim o‘qitildi. Yil yakunlariga ko‘ra, korxona raqamli transformatsiya bo‘yicha milliy reytingda 98,76 ball bilan 1-o‘rinni egalladi.

2026-yil rejalari doirasida Kombinat uchun axborot xavfsizligi talablari, ma’lumotlarni himoyalash ishonchliligi hamda kiberxatarlarni boshqarish samaradorligiga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida xalqaro ISO/IEC 27001:2023 sertifikatini olish bo‘yicha sertifikatsiyadan o‘tkazish auditi rejalashtirilgan.

Uzoq muddatli mo‘ljallar

Kompaniya ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish, ruda qazib olish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlarni tahl qilish aniqligini yaxshilashga qaratilgan innovatsion va raqamli texnologiyalar, shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni bosqichma-bosqich joriy etish amalga oshirilmoqda. 2030-yilga qadar Kombinat mehnat unumdorligining yanada o‘sishi va ishlab chiqarish risklarining kamayishini ta’minlagan holda ishlab chiqarishning intellektual raqamli modelini shakllantirishni rejalashtirmoqda.

3. KORPORATIV BOSHQARUV

Muhim mavzular
• Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi; • Davlatga to‘lovlar va davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish; • Mas’uliyatli ta’minot zanjiri.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Kuzatuv kengashi tarkibida **22 % mustaqil a’zolar** (9 kishidan 2 nafari); • **Mahalliy yetkazib beruvchilardan amalga oshirilgan xaridlar ulushi 97% ni tashkil etadi.**
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-9, 2-10, 2-11, 2-12, 2-13, 2-14, 2-15, 2-17, 2-19, 2-20, 2-23, 2-24, 2-29, 3-3, 205-3, 207-1, 207-2, 207-3, 410-1 SASB EM-MM-510a.1

3.1. Korporativ boshqaruv tizimi

GRI 2-9, 2-10, 2-11, 2-12, 2-13, 2-14

“NKMK” AJ barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarga erishish uchun biznes yuritish, shaffoflik va hisobotning yuqori xalqaro standartlariga amal qiladi. Kompaniyaning korporativ boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 20-maydagi №179-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi (rioya qilish majburiyatlari “NKMK” AJ Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining 2024-yil 28-iyundagi 3-son qarori bilan qabul qilingan)

3.1.1. Yuqori boshqaruv organi va aksiyadorlar

“NKMK” AJ Ustaviga muvofiq, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi “NKMK” AJning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Aksiyador Kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqib, aniq muddatlarini belgilagan holda o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tasdiqlaydi.

2025-yil dekabr holatiga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) “NKMK” AJ ustav kapitalidagi aksiyalarning 100% iga egalik qiluvchi yagona aksiyador vazifalarini bajardi. Aksiyador Kompaniya faoliyatining strategik yo‘nalishini shakllantirishda qarorlar qabul qiladi va “NKMK” AJ faoliyatining milliy iqtisodiy maqsadlar hamda barqaror rivojlanish ustuvorliklariga muvofiqligini ta’minlaydi.

“NKMK” AJ Ustaviga muvofiq (13.6-band, 13–14-kichik bandlar) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi quyidagi vakolatlarga ega:

- Boshqaruv raisi – Bosh direktorni tayinlash, Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlari muddatini uzaytirish, shuningdek, uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
- Boshqaruv raisi – Bosh direktorga va Boshqaruvning boshqa a’zolariga to‘lanadigan mukofot va (yoki) kompensatsiyalarni, ularning chegaraviy miqdorlarini belgilash, shuningdek, Kuzatuv kengashi ma’qullaganidan keyin ularga o‘zgartirishlar kiritish masalalarini tasdiqlash.

Kompaniya faoliyatining umumiy boshqaruv organi Kuzatuv kengashi hisoblanadi. “NKMK” AJ Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining 2024-yil 28-iyundagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to‘g‘risida"gi nizomga muvofiq, Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, shuningdek, Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga qo‘yiladigan talablar belgilangan.

Kuzatuv kengashi qonunchilik va Ustav bo‘yicha Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalarni hal etishdan tashqari, “NKMK” AJ faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Kengash “NKMK” AJ Boshqaruvi faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi. Kuzatuv kengashi vakolatiga, shuningdek, Kompaniyaning rivojlanish strategiyasini, faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini tasdiqlash, Kompaniya tashkiliy tuzilmasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholash ishlarini muvofiqlashtirish, faoliyatning barqaror rivojlanish sohasidagi majburiyatlarga muvofiqligini nazorat qilish kiradi.

Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari ushbu masalalar bo‘yicha davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qiladi. Kuzatuv kengashi manfaatdor tomonlarning fikrlarini korporativ kotibning murojaatlar bo‘yicha hisobotlari, jamoatchilik maslahatlari/jamoalar bilan uchrashuvlar hamda Komplayens xizmati va Ichki audit xizmati hisobotlari orqali oladi va hisobga oladi. Yetarli darajada vakillik qilmagan va zaif guruhlarning fikrlari boshqaruv vakillari ishtirokida muhokama qilinadi (pensionerlar, ayollar, yoshlar, jamoa vakillari).

Kuzatuv kengashi vakolatiga, shuningdek, texnologik va investitsion rivojlanish strategiyasi maqsadlariga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida Boshqaruv hisobotini muntazam eshitish kiradi. Bundan tashqari, Kuzatuv kengashi vazifalariga Kompaniyaning joriy faoliyati doirasidagi iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq risk va imkoniyatlarni ko‘rib chiqish kiradi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining ish reglamenti, huquqlari, majburiyatlari va saylanishi “NKMK” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi 2024-yil 28-iyundagi nizomda belgilangan. Kuzatuv kengashi a’zolari Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashi a’zolarining saylovi qog‘oz byulleten orqali kumulyativ ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kuzatuv kengashi raisi “NKMK” AJ boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallamaydi, shuningdek, “NKMK” AJ Boshqaruvi a’zolari Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Ustav va “NKMK” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan tartibda qayta saylanishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Kuzatuv kengashining barcha yoki

ayrim a’zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatishga haqli. Kuzatuv kengashi a’zosining vakolatlari Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab tugatiladi.

Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi barcha asosiy masalalar bo‘yicha Kompaniyaning rasmiy pozitsiyasini davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlar oldida ifodalaydi. Kuzatuv kengashi a’zolari Kompaniya faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va muvozanatli qarorlar qabul qilishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan keng ko‘lamli kompetensiyalarga ega:[1]

- Iqtisodiyot va moliya;
- Bank ishi;
- Soliqqa tortish;
- Xalqaro munosabatlar va diplomatiya;
- Huquqshunoslik;
- Biznesni boshqarish va transformatsiya qilish;
- Geologiya, energetika va og‘ir sanoat.

Tuzilmasi va soni bo‘yicha Kuzatuv kengashi 9 kishidan iborat bo‘lib, ulardan davlat xizmatchilari - 7 nafar (78%), mustaqil a’zolar - 2 nafar (22%).2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan Kuzatuv kengashi a’zolari ulushi 78% ni tashkil etdi.

13-jadval. Kuzatuv kengashining jins va yosh bo‘yicha tuzilmasi, %

	2022	**2023**	**2024**	**2025**
Gender guruhlari bo‘yicha:				
Ayollar	1	1	0	0
Erkaklar	7	6	9	9
Yosh guruhlari bo‘yicha:				
30 yoshdan kam	0	0	0	0
30–50 yosh	4	3	3	3
50 yoshdan ortiq	4	4	6	6

1 Более детальное описание о членах Наблюдательного совета находится на официальном сайте АО «НГМК» www.ngmk.uz

14-jadval. "NKMK" AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 31-dekabridagi holatiga tarkibi:

Kuzatuv kengashi a'zosi	"NKMK" AJ Kuzatuv kengashidagi maqomi
Qo'chqorov Jamshid Anvarovich	• Lavozimi: Bosh vazir o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri • Kengashdagi maqomi: ijrochi bo'lmagan. mustaqil a'zo maqomi - mavjud emas, Hukumat vakili. • Kengash tarkibida: 2021-yildan boshlab faoliyat yuritadi; • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Iqtisodchi, fan nomzodi. • Moliya vazirligida 25 yillik ish tajribaga ega, jumladan iqtisodiy rivojlanish vaziri lavozimida ham ishlagan. • Strategiyani amalga oshirish va budjet ijrosini nazorat qiladi.
Toshqulov Akbar Jo'raboyevich	• Lavozimi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri • Kengashdagi maqomi: ijrochi bo'lmagan, mustaqil a'zo maqomi - mavjud emas, Hukumat vakili. • Kengash tarkibida: 2023-yildan buyon faoliyat yuritadi; • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Yuridik fanlari nomzodi. • Huquqiy tartibga solish masalalari bo'yicha 20 yildan ortiq tajribaga ega. • Huquqiy risklar va komplaens talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.
Islomov Bobir Farxodovich	• Lavozimi: O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri • Kengashdagi maqomi: ijrochi bo'lmagan, mustaqil a'zo maqomi - mavjud emas, sanoat regulyatorining vakili. • Kengash tarkibida: 2023-yildan boshlab faoliyat yuritadi. • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Geologiya va moliya bo'yicha magistr. • Yer qa'ridan foydalanish masalalarini nazorat qiladi.
Mirzayev Mubin Muhiddinovich	• Lavozimi: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari • Kengashdagi maqomi: ijrochi bo'lmagan, mustaqil a'zo maqomi - mavjud emas, fiskal organlarning vakili. • Kengash tarkibida: 2023-yildan boshlab. • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Iqtisodchi, magistr darajasiga ega. • Moliya va soliqqa tortish masalalari bo'yicha 20 yildan ortiq tajribaga ega.

Kuzatuv kengashi a’zosi	“NKMK” AJ Kuzatuv kengashidagi maqomi
	• Soliq shaffofligi masalalarini nazorat qiladi.
Mustafayev Xurshed Baxtiyorovich	• Lavozimi: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining neft-gaz sektori bo‘yicha o‘rinbosari • Maqomi: KK a’zosi, ijrochi bo‘lmagan. • Kengashda 2024-yildan. • “NKMK” AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Moliyachi, iqtisodchi. • Moliya vazirligida 20 yildan ortiq ish tajribasi. • Byudjetga rioya qilish va investitsiya loyihalarini nazorat qiladi.
Muxtorov Ilhom Muxtorovich	• Lavozimi: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi raisining maslahatchisi • Kengashdagi maqomi: ijrochi bo‘lmagan, mustaqil a’zo maqomi - mavjud emas, Moliya vazirligi vakili. • Kengash tarkibida: 2024-yildan boshlab faoliyat yuritadi. • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Moliya mutaxassisi, iqtisodchi. • Moliya vazirligida 20 yildan ortiq ish tajribasiga ega. • Budjet ijrosi va investitsiya loyihalariga rioya etilishini nazorat qiladi.
Akbarjonov Aziz Akbarjon o‘g‘li	• Lavozimi: “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvi raisi • Kengashdagi maqomi: ijrochi bolmagan, mustaqil a’zo maqomi - mavjud emas, bojxona organlari vakili. • Kengash tarkibida: 2024-yildan buyon faoliyat yuritadi • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Bojxona tizimida 30 yildan ortiq ish tajribasiga ega. • logistika xavflarini nazorat qiladi.
Jon Ferrier	• Kengashdagi maqomi: ijrochi bo‘lmagan, mustaqil a’zo. • Kengash tarkibida: 2024-yil buyon faoliyat yuritadi. • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • Konchilik sohasida 45 yillik tajribaga ega, "Gulf Keystone"ning sobiq Bosh direktori. • ESG bo‘yicha ekspert.

Kuzatuv kengashi a’zosi	“NKMK” AJ Kuzatuv kengashidagi maqomi
Jean Pierre Zigrand	• Kengashdagi maqomi: ijrochi bo‘lmagan, mustaqil a’zo. • Kengash tarkibida: 2024-yildan buyon faoliyat yuritadi. • "NKMK" AJ bilan mehnat munosabatlari: mavjud emas. • London Iqtisodiyot maktabi professori, Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD). • Moliyaviy risklar bo‘yicha mutaxassis.

3.1.2. Kuzatuv kengashi qo‘mitalari

Kuzatuv kengashi faoliyatini eng muhim masalalar yuzasidan faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun Kuzatuv kengashi qo‘mitalari shakllantirilgan. Ular Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiradigan asosiy masalalar bo‘yicha dastlabki tahlilni amalga oshiradilar va Kuzatuv kengashiga ushbu masalalar yuzasidan qaror qabul qilishi uchun yordam beradigan tavsiyalar ishlab chiqadilar. Qo‘mitalar faoliyatini shakllantirish va kelishish, ularning a’zolarini saylash “NKMK” AJ Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining 2024-yil 28-iyundagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to‘g‘risida"gi nizomga, shuningdek, qo‘mita tarkibi, uning vakolatlari, ish tartibi hamda a’zolarining huquq va majburiyatlari kabi qoidalarni o‘z ichiga olgan ichki hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, masalalarni yanada chuqurroq va sifatli ko‘rib chiqish maqsadida 2025-yilda “NKMK” AJ Kuzatuv kengashi huzurida quyidagi qo‘mitalar faoliyat ko‘rsatdi:

- Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi;
- Audit qo‘mitasi;
- Tayinlovalar va haq to‘lash qo‘mitasi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi.

Qo‘mitalar Kuzatuv kengashi tomonidan berilgan vakolatlar va qo‘mitalar to‘g‘risidagi tegishli nizomlarga muvofiq Kuzatuv kengashi oldida hisobdordir.

15-jadval. Qo‘mitalarning vazifalari

Qo‘mita	Qo‘mita vazifasi
Strategiya va investisiyalar qo‘mitasi	• **Strategiyani shakllantirish** — barqaror rivojlanish maqsadlarini o‘z ichiga olgan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash. • **Asosiy korporativ qarorlarni ko‘rib chiqish** — biznes-reja, investitsiya dasturi, dividend siyosati, kapital tuzilmasi, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va qaytarib sotib olish, shuningdek, qayta tashkil etish va sho‘ba jamiyatlar tuzish masalalari bo‘yicha dastlabki ko‘rib chiqish va tavsiyalar berish. • **Strategik risklarni boshqarish** — strategik va investitsiya yo‘nalishlaridagi risklarni muntazam baholash hamda tizimli masalalarni Ilmiy-texnik kengash ko‘rib chiqishiga kiritish. • **Amalga oshirilishini nazorat qilish** — strategiyaning bajarilishini, yirik investitsiya loyihalari va transformatsiya jarayonlari ijrosini monitoring qilish, shuningdek, ularning kompaniya qiymatiga ta’sirini baholash. • **ESG kun tartibini nazorat qilish** — korporativ ijtimoiy mas’uliyat, ekologik faoliyat, mehnat muhofazasi va asosiy ESG-ko‘rsatkichlarni nazorat qilish. • **Kuzatuv kengashi topshiriqlarini bajarish** — belgilangan mandat doirasida qo‘shimcha vazifalarni bajarish.

Qo‘mita	Qo‘mita vazifasi
Audit qo‘mitasi	• **Moliyaviy hisobotlarni nazorat qilish** — Buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri tuzilishini, ma’lumotlarning to‘liq oshkor etilishini va Kompaniya faoliyatining shaffofligini nazorat qilish;. • **Tashqi audit** — Mustaqil auditorlik tashkilotini tanlash, shartnoma shartlarini, xizmatlar narxini kelishish va Kuzatuv kengashiga tashqi auditorni yoki uni o‘zgartirishni tavsiya etish; • **Ichki audit** — Ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish va baholash: budjet va yillik rejani tasdiqlash, har choraklik hisobotlarni ko‘rib chiqish, xodimlarning malakasi va mehnatiga haq to‘lash darajasini baholash. • **Ichki nazorat va risklar** — Ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimining samaradorligini ta’minlash, ichki va tashqi audit natijalarini ko‘rib chiqish, tavsiyalarni amalga oshirish.. • **Maxsus materiallarni ko‘rib chiqish —** Kuzatuv kengashiga Qo‘mita tomonidan tayyorlangan hisobotlarni, shuningdek, Kengash tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan aktivlarning adolatli qiymatini baholash, xayriya va homiylik xarajatlari bo‘yicha materiallarni taqdim etish. • **Tekshiruvlarni tashabbus qilish** — Qo‘shimcha audit tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risida tashabbus kiritish va o’z faoliyati natijalari to’g’risida Kuzatuv kengashiga hisobot berish. • **Mandatni bajarish** — Qonunchilik, Jamiyat ustavi va Kuzatuv kengashi qarorlari bilan yuklangan boshqa vazifalarni bajarish..
Tayinlovalar va haq to‘lash qo‘mitasi	• **Kuzatuv kengashining kadrlar siyosati bo‘yicha qarorlari ijrosini nazorat qilish.** • **Nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar shakllantirish va kadrlar bo‘yicha qarorlarda ishtirok etish** — ijro organi, Kuzatuv kengashi va korporativ kotibiyat rahbari lavozimiga nomzodlar bo‘yicha takliflar tayyorlash. Rahbarlarni tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish va mehnat shartnomalari shartlari masalalarida ishtirok etish. • **Kompetensiya va mustaqillikni baholash** — nomzod etib ko‘rsatilayotgan shaxslarning malakasi, mustaqilligi va ishbilarmonlik obro‘sini tahlil qilish. • **Boshqaruv organlari ishini baholash** — Kuzatuv kengashi va uning qo‘mitalari faoliyatini har yili o‘zini-o‘zi yoki tashqi baholashni tashkil etish; kompaniyaning yillik hisoboti uchun yakuniy hisobotni tayyorlash.. • **Mukofotlash siyosati** — Mukofotlash siyosatini ishlab chiqish va zarur hollarda yangilash; rahbariyat va Kengash a’zolari uchun mukofotlar, kompensatsiyalar va rag‘batlantirish miqdorlarini tavsiya qilish. • **Rahbariyat samaradorligini baholash** — tasdiqlangan KPIga muvofiq yil yakuni bo‘yicha ijro organi va asosiy menedjerlar faoliyatini baholash.

Qo‘mita	Qo‘mita vazifasi
	• **O‘qitish va rivojlantirish** — Kuzatuv kengashi a’zolari uchun individual ta’lim va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish; ularning bajarilishini nazorat qilish. • **Tashkiliy tuzilma** — Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini dastlabki baholash va o‘zgartirishlar bo‘yicha tavsiyalar berish**.** • **Axborotni oshkor qilish** — rahbar xodimlarga ish haqi to‘lanishi va mukofotlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘z vaqtida oshkor etilishini ta’minlash. • **Hisobot** — yillik hisobotga kiritish uchun Qo‘mita faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlash. • **Mandatni bajarish** — qonunchilik, Ustav va Kuzatuv kengashi qarorlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish.
Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi	• **Hujjatlarni ishlab chiqish** — O‘zbekiston qonunchiligiga va davlat dasturlariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini, choratadbirlar dasturini va ichki hujjatlarni ishlab chiqish va davriy ravishda yangilash. • **Etik standartlarga rioya qilish** — korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari va Odob-axloq kodeksi ijrosini nazorat qilish, o‘qitish va kommunikatsiyalar orqali korrupsiyaga nisbatan korporativ murosasizlikni rivojlantirish. • **Korrupsiyaviy risklarni boshqarish** — barcha biznes-jarayonlarda korrupsiyaviy risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish. • **Mansabdor shaxslar harakatlarini nazorat qilish** — rahbar xodimlar harakatlarining qonunchilik va ichki reglamentlar talablariga muvofiqligini tekshirish, axborotni oshkor qilish to‘liqligi va aniqligini nazorat qilish. • **Etik normalar va shaffoflik** — xodimlarning Odob-axloq kodeksi, shuningdek, rahbariyat faoliyati shaffofligiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish. • **Kuzatuv kengashiga tavsiyalar** — Komplayens xizmati rahbarini tayinlash yoki ozod etish, yirik va bog‘liq bitimlarni ma’qullash, shuningdek, salmoqli moliyalashtirishni jalb qilish to‘g‘risidagi qarorlar bo‘yicha takliflar. • **Hisobot** — Jamiyatning yillik hisobotiga kiritish uchun Qo‘mita faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlash. • **Mandatni bajarish** — qonunchilik, Ustav va Kuzatuv kengashi qarorlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.1.3. Boshqaruv

GRI 2-17, 2-19, 2-20

Boshqaruv “NKMK” AJning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi, Kompaniyaning strategik maqsadlar va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini ta’minlaydi. 2025-yil davomida

2024-yil 28-iyundagi yillik Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining № 3-son qarori bilan tasdiqlangan “Boshqaruv to‘g‘risidagi nizom” amal qildi. Boshqaruv to‘g‘risidagi nizom ijro organining ishi va vakolatlarini, uning a’zolarini saylashni, ularning huquq va majburiyatlarini, Boshqaruv majlislarini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq "NKMK" AJning Kuzatuv kengashi Raisi "NKMK" AJning ijroiya organi - Boshqaruv tarkibiga kirmaydi.

“NKMK” AJ Ustaviga muvofiq (15.3-band), Boshqaruv raisi – Bosh direktor Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tayinlanadi, Boshqaruvning qolgan a’zolari esa Kuzatuv kengashi tomonidan ovoz berish yo‘li bilan 3 (uch) yil muddatga tayinlanadi.

Boshqaruv raisi joriy faoliyatga rahbarlik qiladi va har chorakda Kuzatuv kengashiga ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati natijalari hamda Kompaniyaning tasdiqlangan rivojlanish dasturlari amalga oshirilishi borasida hisobot beradi. Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy masalalar uchun ijro darajasidagi mas’uliyat Boshqaruvning barcha a’zolariga yuklatilgan – Boshqaruv Kuzatuv kengashining yillik ish rejasiga muvofiq muntazam ravishda Kuzatuv kengashiga yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat natijalari haqida ma’lumot kiritadi.

Boshqaruv a’zolari va/yoki Boshqaruv raisi – Bosh direktorning ish haqi miqdori Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi va aksiyador tomonidan tasdiqlanadi. Boshqaruv a’zolarining ish haqi belgilangan miqdorda bo‘lib, mehnat shartnomasi asosida belgilanadi. To‘lovlar “NKMK” AJ Boshqaruviga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur Nizom “NKMK” AJ yagona aksiyadorining 2025-yil 30-iyundagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

2025-yil hisobot davri davomida “NKMK” AJ Boshqaruvi tarkibida quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirildi:

- Yagona Aksiyadorning 2025-yil 30-iyundagi 3-son qaror bayonnomasi bilan “NKMK” AJ bosh direktori 3 yil muddatga Boshqaruv raisi etib qayta tayinlandi;
  O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun Xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi PF-70-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga raqamlashtirishni keng joriy etish hisobiga boshqaruv shtat birliklari sonini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PF-178-son Farmoni ijrosi doirasida, shuningdek, “NKMK” AJ Yagona aksiyadorining 2025-yil 5-dekabrdagi 6-son qarori asosida 2026-yil 1-yanvardan Kompaniya Boshqaruvi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritilmoqda, xususan, Boshqaruvning ayrim a’zolari vakolatlari tugatilmoqda, bosh direktorning iqtisodiyot va moliya bo‘yicha o‘rinbosari hamda bosh direktorning xodimlar va ma’muriy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlari qisqartirilmoqda. Shuningdek, bosh direktorning transformatsiya bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimi bosh direktorning moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimiga o‘zgartirildi va u Kompaniya Boshqaruvi tarkibiga kiritildi.

4-Rasm. “NKMK” AJ Boshqaruvining 2025-yil 31-dekabr holatidagi tarkibi



Sanaqulov Quvondiq Sanaqulovich

Boshqaruv raisi – Bosh direktor

“NKMK” AJ Boshqaruvi tarkibi:



Sxemada uzluksiz chiziq ma’muriy bo‘ysunishni bildiradi.

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

GRI 2-17, 2-18, 2-19, 2-20

Korporativ maslahatchi korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirishga yordam berish uchun Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi. Kompaniya Ustavi va korporativ kotibiyat to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, Korporativ kotibiyat Kuzatuv kengashi va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarini korporativ boshqaruv sohasidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar haqida xabardor qiladi, korporativ boshqaruv bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning maslahatchisi vazifasini bajaradi, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini tayyorlash va o‘tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi, yig‘ilishlarda kotib vazifalarini amalga oshiradi.

“NKMK” AJ Ustaviga muvofiq (14.16.38-band), Kuzatuv kengashi mustaqil baholovchini tanlov asosida tanlagan holda korporativ boshqaruvning yillik baholashini o‘tkazadi. Korporativ kotibiyat (20.8.10-band) korporativ boshqaruv holati to‘g‘risida hisobot tayyorlaydi va baholashni tashkil etadi. Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimini 2025-yilda mustaqil baholash amalga oshirildi va tavsiyalarni o‘z ichiga olgan hisobot o‘z vaqtida Kuzatuv kengashiga taqdim etildi..

3.2. Boshqaruv tamoyillari va ishbilarmonlik etikasi

3.2.1. Boshqaruvga yondashuv

GRI 3-3, 2-15, 2-23, 2-24, EM-MM-510a.1

"Xodimlarning odob-axloq qoidalari" barcha xodimlar uchun, ularning lavozimlaridan qat’i nazar, majburiy bo‘lgan qadriyatlar, tamoyillar, standartlar va xulq-atvor normalarini belgilaydi. Ushbu qoidalar huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylik, adolat va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish tamoyillariga rioya qilishga qaratilgan.

Qoidalarda belgilangan talablar ijrosini nazorat qilish Axloq komissiyaga yuklatilgan bo‘lib, u quyidagilar uchun javobgardir:

- Kompaniya xodimlarining axloqiy masalalar bo‘yicha shikoyatlari va takliflarini ko‘rib chiqish;
- Xodimlar tomonidan xizmat majburiyatlari bajarilmagan hollarni ko‘rib chiqish;
- Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish;
- Korporativ nizolarni tartibga solish.

Axloq, ekologiya, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi barcha korporativ siyosatlar "NKMK" AJning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalariga taalluqlidir. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash uchun javobgarlik barcha darajadagi rahbarlar o‘rtasida taqsimlanadi: bosh direktor siyosatni tasdiqlaydi; boshqaruv a’zolari, yo‘nalishlar bo‘yicha direktorlar va ishlab chiqarish bo‘limlari rahbarlari ularning bajarilishini nazorat qiladila.

Kontragentlar uchun axloq kodeksi qabul qilingan bo‘lib, unda ta’minot zanjiriga taalluqli bo’lgan muhim mavzular aks etgan. Mazkur kodeks Kompaniyaning korporativ veb-saytida joylashtirilgan bo‘lib, xaridlar vaqtida xarid hujjatlarining bir qismini tashkil etadi.

3.2.2. Risklarni boshqarish

2025-yilda "NKMK" AJ risklarni boshqarish tizimi uchun asos yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-163-son va 2025-yil 21-apreldagi "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to'g'risida"gi PQ-145-son qarorlariga muvofiq, aksiyadorning 2025-yil 26-iyundagi 2-son qarori bilan "NKMK" AJ tashkiliy tuzilmasida "NKMK" AJ Risklarni boshqarish bo'limi tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda qo'yilgan vazifalar ijrosi doirasida Risklarni boshqarish bo'limi tomonidan "NKMK" AJda risklarni boshqarish tizimini joriy etish bo'yicha faol ish olib borilmoqda (keyingi o'rinlarda – Loyiha).

Loyiha bo'yicha vazifalarni sifatli bajarish maqsadida xalqaro konsalting tashkiloti jalb etildi. Ushbu tashkilot tomonidan "NKMK" AJda COSO Enterprise Risk Management Framework xalqaro standartlariga muvofiq risklarni boshqarish tizimini joriy etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmoqda. Ishning birinchi bosqichida "NKMK" AJ tarkibiy bo'linmalari vakillari bilan intervyular, anketa so'rovi va kirish o'quvlari o'tkazildi.

Shu bilan birga, Risklarni boshqarish bo'limining ichki me'yoriy hujjatlari, risklar reyestri va xaritasi, risklarni qabul qilish darajasi to'g'risidagi bayonot, risklarga bardoshlilik darajasi, risklar va nazoratlar matritsasi ishlab chiqildi va kelishildi. Mazkur hujjatlarni kelishish va tasdiqlash jarayoni 2026-yilga rejalashtirilgan.

3.2.3. Ichki audit

Kompaniyada Kuzatuv kengashi huzurida Ichki audit xizmati faoliyat yuritadi. Kompaniya ichki audit xizmatining asosiy maqsadi boshqaruvning barcha darajalarida barcha faoliyat turlari samarali ishlashini ta'minlashga ko'maklashish, shuningdek, Kompaniya va uning aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ichki audit xizmatining missiyasi Kuzatuv kengashi va Rahbariyatga Kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish bo'yicha majburiyatlarini bajarishda zarur ko'maklashuvni ko'rsatishdan iborat. Xizmat moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni, ichki nazorat, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv sohasidagi hujjatlar ijrosi bo'yicha baholashni hamda Kompaniya faoliyatini takomillashtirish maqsadida maslahat berishni amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

2026-yil rejalarida xizmat faoliyatini Ichki audit instituti (The Insitute of Internal Auditors) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki auditning xalqaro standartlariga (2024 Global Internal Audit Standards) qat'iy muvofiq tamoyillarga o'tkazish nazarda tutilgan.

3.2.4. Komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish

GRI 2-15, 205-1, 205-2, 205-3

Kompaniyada Kuzatuv kengashi huzurida Komplayens xizmati faoliyat yuritadi. Komplayens xizmatining asosiy vazifalari korrupsiyaga qarshi tizimning samarali ishlashini ta'minlash, jarayonlardagi korrupsiyaviy risklarning profilaktikasi va oldini olish, ularni bartaraf etish choralarini tashkil etishdan iborat.

Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar korporativ saytda keltirilgan. Ular orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

- "NKMK" AJning korrupsiyaga qarshi siyosati;
- "NKMK" AJ xodimlarining Odob-axloq kodeksi;
- "NKMK" AJ Komplayens xizmati to'g'risidagi nizom;
- "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida tanlov asosida ishga qabul qilish yoki xodimlarni o'tkazish to'g'risidagi nizom;
- "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaviy harakatlar to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;
- "NKMK" AJ va uning bo'linmalarida korrupsiyaviy risklarni baholash to'g'risidagi nizom;
- "NKMK" AJ va uning bo'linmalarida kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;
- "NKMK" AJ va uning bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;
- "NKMK" AJ va uning bo'linmalarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risidagi nizom.

2025-yilda "NKMK" AJ komplayens xizmati halol korporativ boshqaruv, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining tizimli rivojlanishini ta'minladi. Hisobot davrining asosiy natijalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- **Korrupsiyaviy xavflarni baholash —** Kompaniyaning barcha asosiy biznes-jarayonlarida risklarni kompleks aniqlash va baholash o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, Jamiyatdagi mavjud 1,400 ta funksiyadan 2 tasi "yuqori", 34 tasi "o'rta" va 1,364 tasi "past" risk darajasi sifatida baholandi va ularning oldini olish hamda bartaraf etish uchun 2026-yil 4-martda 28 banddan iborat Korrupsiyaviy risklarni bartaraf etish, ularning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, korrupsiyaviy risklarning umumlashtirilgan xaritasi va yuqori korrupsiyaviy riskka ega lavozimlar ro'yxati, shuningdek, korrupsiyaga moyil munosabatlarning elektron reyestri shakllantirildi va tasdiqlandi. -
- **Huquqiy korrupsiyaga qarshi ekspertiza** — 8,074 ta ichki hujjat (7,084 ta buyruq va 990 ta farmoyish) tekshirildi, natijada korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni istisno qilish uchun zarur tuzatishlar kiritildi.
- **Axborot ochiqligi va OAV bilan hamkorlik** — hisobot davri davomida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan, OAV vakillari va korxona xodimlari ishtirokidagi ochiq brifinglar tashkil etildi.
- **O'qitish va kompetensiyalarni oshirish** — Kompaniya xodimlari uchun monopoliyaga qarshi komplayens, Korrupsiyaga qarshi siyosat va Etika kodeksi bo'yicha bir qator o'quv seminarlari o'tkazildi. 2025-yilda jami 14,400 xodim Etika kodeksi qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha umumiy hamda maxsus o'qitishdan o'tdi.
- **Raqamli shaffoflikni rivojlantirish** — korporativ va ichki portallardagi "Korrupsiyaga qarshi kurash" hamda "Ochiq ma'lumotlar" bo'limlari kengaytirildi, majburiy hujjatlar, qayta aloqa kanallari va videomateriallar joylashtirildi.

- **Sanksiya komplayensi** — xorijiy kontragentlar bilan hamkorlikda sanksiya risklari nazorati o‘tkazildi; banklarni ham o‘z ichiga olgan 16 ta xorijiy jismoniy va yuridik shaxsning hujjatlari profil komissiyasi tomonidan tekshirildi.
- **Kadrlar va ijtimoiy komissiyalarda ishtirok etish** — komplayens vakillari Kompaniyaning ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘rtasida xodimlarni qabul qilish va o‘tkazish bo‘yicha komissiyalarning 763 ta majlisida hamda homiylik va xayriya yordami bo‘yicha komissiyalarning 81 ta majlisida ishtirok etdi.

“NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan korrupsiya faktlari, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa salbiy harakatlar haqida xabar berish uchun Kompaniyada Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risidagi nizom amal qiladi, shuningdek, barcha xodimlar va tashqi manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo‘lgan aloqa kanallari, yagona murojaatlar mexanizmi va maxsus ishonch telefoni ishga tushurilgan.[1]

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, yillik deklaratsiyalar Jamiyatning boshqaruv xodimlari bo‘lgan 5,499 xodim tomonidan to‘ldirildi. Ushbu deklaratsiyalar ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida 95 ta manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlandi, jumladan, 22 tasi mavjud va 73 tasi ehtimoliy. Barcha haqiqiy holatlar bo‘yicha Komissiya qarorlari qabul qilindi va manfaatdor tomonlar ko‘rilgan choralar haqida xabardor qilindi.

2026-yilda Kompaniya ish ko‘lamini sezilarli kengaytirishni, sa’y-harakatlarni ISO 37301:2021 xalqaro standartiga muvofiqlik bo‘yicha ikki bosqichli auditga tayyorgarlik ko‘rish va undan o‘tishga hamda keyinchalik sertifikat olishga qaratishni ko‘zlamoqda.

[1] (https://actual.ngmk.uz/ru/home/blog/otkritie-dannie/rannee-viyavlenie-korruptsionnix-sluchaev-i-ix-predotvrashenie/kanali-svyazi-dlya-soobsheniya-o-deystviyax-svyazannix-s-korruptsiey-otkritostyu-monopoliey-i-konfliktom-interesov).

3.3. Javobgar ta’minot zanjiri

GRI 3-3, 2-23, 414-1, 414-2

“NKMK” AJ xaridlar tizimini rivojlantirish bo‘yicha doimiy ish olib boradi, bir tomondan xaridlarning iqtisodiy va operatsion samaradorligini ta’minlashga, ikkinchi tomondan esa biznes-jarayonlar shaffofligini oshiradi va yetkazib beruvchilar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

“NKMK” AJ xarid faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi asosiy qonunchilik hujjatlari va ichki me’yoriy hujjatlarga amal qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonuni;
- Xarid faoliyati jarayonida etik xulq-atvor qoidalari;
- Xaridlar to‘g‘risidagi nizom;
- MTTB to‘g‘risidagi nizom;
- Xaridlar departamenti bo‘limlari to‘g‘risidagi nizomlar: ish va xizmatlar xaridi, transport xaridi, uskunalar xaridi, materiallar xaridi;
- Zaxiralarni boshqarish, ehtiyojni rejalashtirish, yetkazib beruvchilar faoliyati samaradorligini boshqarish to‘g‘risidagi nizomlar;
- “NKMK” AJning potensial yetkazib beruvchilarini dastlabki malakalash to‘g‘risidagi nizom.

Kompaniyaning barcha bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarni Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun talablariga muvofiq, shaffoflik va shartnomalar tuzish tamoyili asosida “NKMK” AJ xarid tartib-taomillarini cooperation.uz, xt-xarid.uz, xarid.uzex.uz, ebirja.uz, new.cooperation.uz davlat xaridlari resurs va platformalarida, shuningdek, O‘zRTXB (O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi) orqali amalga oshiradi.

Xaridlar rejasi “NKMK” AJning rasmiy korporativ saytida va davlat portalida e’lon qilinadi. Kompaniyaning korporativ saytida “Tenderlar va tanlovlar” bo‘limi mavjud bo‘lib, unda joriy tenderlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ishtirok etish uchun zarur axborot joylashtirilgan.

Xaridlar tizimi auditi

2025-yilda “NKMK” AJning 2024-yil uchun xarid faoliyati natijalari bo‘yicha xaridlar tizimining yillik auditi o‘tkazildi. Ushbu ish natijalari asosida auditorning xulosa va tavsiyalari olindi, ular yaxshilanishlarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

Xaridlar tizimi auditi natijalari bo‘yicha Kompaniya nazorat muhitini takomillashtirish, jarayonlarni raqamlashtirish va xaridlarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirdi:

- Nazorat tartib-taomillari — xaridlar va shartnomalar ijrosi bo‘yicha sayyor tekshiruvlar o‘tkazildi; xarid jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi monitoring moduli joriy etildi, “To‘lov uchun ariza” moduli esa tajriba-sinov tariqasida ishlatilmoqda;
- Xarid tartib-taomillari AT-tizimi auditi - AT tizimlarini auditdan o‘tkazish uchun materiallar va xaridlar monitoringini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi hujjat loyihasi tayyorlandi;
- Partiyaviy hisob — joriy etish ishlari to‘liq yakunlandi (texnik topshiriq, hisob tizimini sozlash, xodimlarni o‘qitish);
- Kompetensiyalarni rivojlantirish — xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash jadvali tasdiqlandi, o‘qitishga tayyorgarlik olib borilmoqda;
- Yetkazib beruvchilarni boshqarish — yetkazib beruvchilar samaradorligini baholash bo‘yicha normativ hujjatlarga o‘zgartirishlar tayyorlandi; KYC tartib-taomillarini rasmiylashtirish davom etmoqda;
- Normativ va ma’lumotnoma axborotini (NMA) unifikatsiya qilish — markazlashtirilgan reyestr yaratildi, ma’lumotlar sifatiga yagona talablar va kiritish to‘g‘riligining avtomatik nazorati joriy etildi.

5-rasm. Xaridlarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi



“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

3.3.1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish: mahalliylashtirish va sanoat kooperatsiyasi

GRI 204-1

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-maydagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJni 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-185-son qarori asosida “NGMK” AJning ishlab chiqarish ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida mahalliylashtirilgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur doirasida Kompaniyaning ishlab chiqarish bo‘linmalari tomonidan o‘z ishlab chiqarish quvvatlarida mahsulotlarning keng nomenklaturasini o‘zlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

2025-yil uchun mahalliylashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish rejasiga muvofiq, yil yakunlari bo‘yicha 38 ta birlashtirilgan loyiha doirasida 108.2 mln AQSh dollari (1,406.7 mlrd so‘m) miqdorida mahsulot ishlab chiqarildi, bu hisobot davri uchun prognoz ko‘rsatkichning 103.1% ini tashkil etdi. 2024-yilga nisbatan o‘sish 153.6% ni tashkil qildi.

Mahalliylashtirish dasturining asosiy loyihalari rudani qayta ishlash uchun maydalash tegirmonlarini ishlab chiqarish hisoblanadi. Bu har bir uskuna birligi bo‘yicha valyuta xarajatlarini o‘rtacha 2 mln dollarga kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yangi kon-shaxta texnikasi uchun tez yeyiluvchi ehtiyot qismlar, masofadan boshqarish pultlari, avtomatlashtirish va nazorat shkaflari, gidrosiklon qurilmalari, yangi avlod nasoslari, shuningdek, shaxta uskunalari va karyer avtosamosvallari uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish muvaffaqiyatli o‘zlashtirildi.

Asosiy loyihalardan biri “NKMK” AJning kapital qurilish obyektlarini butlash uchun ruda maydalovchi tegirmonlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bo‘ldi. 2025-yilda Navoiy mashinasozlik zavodida ilk bor hajmi 182 kubometr va og‘irligi 790 tonnadan ortiq bo‘lgan importni o‘rnini bosuvchi MShTs 5.5×8.5 sharli tegirmon ishlab chiqarildi. Bu har bir uskuna birligi bo‘yicha valyuta xarajatlarini o‘rtacha 2 mln dollarga kamaytirish imkonini beradi.

6-rasm. MShTs 55*75 tegirmoni



7-rasm. Avtomatlashtirish shkafi



“NKMK” AJ respublikaning eng yirik korxonalaridan biri bo‘lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan barqaror kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shadi. “NKMK” AJ mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlarining eng yirik iste’molchilaridan biri hisoblanadi, buni tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi dasturlarining natijalari tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati

sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mamlakatda talab yuqori bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga katta ahamiyat beradi. Ushbu davlat siyosati yo‘nalishini tasdiqlagan holda “NKMK” AJ mahalliy yetkazib beruvchilar ulushini izchil oshirmoqda va mahalliylashtirish hamda kooperatsiya dasturlari doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar doirasini kengaytirmoqda.

2025-yilda sanoat kooperatsiyasi doirasida Kombinatning ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun Respublikaning mahalliy korxonalaridan 562 mln AQSh dollari (7.3 trln so‘m) miqdorida sanoat mahsuloti xarid qilindi, bu 2024-yilga nisbatan 117% ga ko‘p.

Bunda Navoiy mintaqasining barqaror rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha Navoiy viloyati korxonalaridan xaridlar hajmi 218.8 mln AQSh dollarini (2.8 trln so‘m) tashkil etdi. Bu nafaqat mintaqaviy korxonalarning ishlab chiqarish bazasi kengayganidan dalolat beradi, balki ichki bozorni mustahkamlash, texnologik daraja va raqobatbardoshlikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, kimyoviy mahsulot, kon-shaxta va texnologik uskunalar hamda ehtiyot qismlar, texnologik uskunalar va filtrlovchi elementlar, kompozitsion materiallar, quyma, sharoshkali parma va boshqa mahsulot turlari xarid qilindi.

16-jadval. “NKMK” AJ yetkazib beruvchilarining umumiy soni, dona

Yil	**Mahalliy yetkazib beruvchilar soni**	**Xorijiy yetkazib beruvchilar soni**	**Jami**
2022	997	43	1,040
2023	1,034	23	1,057
2024	963	36	999
2025	1,024	30	1,054

17-jadval. Mahalliy va xorijiy yetkazib beruvchilar ulushi, miqdoriy nisbat bo‘yicha, %

Yil	Mahalliy yetkazib beruvchilar	Xorijiy yetkazib beruvchilar
2022	91	9
2023	95	5
2024	96	4
2025	97	3

18-jadval. “NKMK” AJning ichki va tashqi bozorda xomashyo hamda materiallar xaridi xarajatlari, ming AQSh dollari

Yil	Ichki bozorda xaridlar xarajatlari summasi (mahalliy yetkazib beruvchilar)	Xorijiy bozorda xaridlar xarajatlari summasi (xorijiy yetkazib beruvchilar)	Xarajatlarning umumiy summasi
2022	1,544,325	156,471	1,700,796
2023	2,558,723	121,890	2,680,613
2024	2,270,733	87,743	2,358,476
2025	2,971,237	38,939	3,010,176

3.3.2. Yetkazib beruvchilarni nazorat qilish va tekshirish

Kompaniyada yetkazib beruvchilarni tanlashning shaffof tizimi amal qiladi, unda jarayonlarning aksariyati elektron platformalar orqali amalga oshiriladi, bu yetkazib beruvchilarni tanlash va va dastlabki saralash jarayonlarini tezlashtiradi. Yetkazib beruvchi standart anketalar asosida amalga oshiriladi, bu barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Yetkazib beruvchilarni tekshirishning asosiy bosqichi Potensial yetkazib beruvchilarni dastlabki saralash bo‘yicha Xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan, ochiq axborot manbalaridan foydalangan holda ularning faoliyatini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Mazkur tekshiruv bosqichida quyidagi jihatlar aniqlanadi: avvalgi kontragentlar oldidagi majburiyatlarning buzilganligi holatlari, faoliyat yuritayotgan mamlakatlarda qonunchilik buzilishlari, inson huquqlari buzilgan yoki buzilmaganligi, yetkazib beruvchining xodimlarga va atrof-muhitga nisbatan siyosati.

2025-yilda dastlabki saralash tartib-taomillari 33 ta yetkazib beruvchi ishtirok etgan 11 ta tender bo‘yicha qo‘llanildi. Kompleks baholash natijalari bo‘yicha 20 ta yetkazib beruvchi xarid tartib-taomillarining keyingi bosqichlariga ishtirok etish uchun qo‘yildi. Qurilish ishlari xaridlarida 14 ta yetkazib beruvchi dastlabki saralashdan o‘tdi, ulardan 6 tasi tanlovning keyingi bosqichlarida ishtirok etishga qo‘yildi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-iyundagi “ ”Yashil” davlat xaridlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 371-son qaroriga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderlarda xarid hujjatlariga ekologik mezonlarni majburiy tartibda kiritish belgilangan. Bunda ishtirokchi taklifining belgilangan ekologik mezonlarga mos kelmasligi uni xarid qilish tartib-taomilidan chetlashtirish uchun asos bo‘lmaydi, balki tovarlar, ishlar va xizmatlarni kompleks baholashning bir qismi hisoblanadi.

4. XODIMLARNI BOSHQARISH

Muhim mavzular
• Mehnat munosabatlari, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish; • Adolatli mehnat sharoitlari, xilma-xillik va inklyuzivlik; • Mehnat muhofazasi va xodimlar sog‘lig‘ini saqlash; • Majburiy va bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Xodimlarning ro‘yxatdagi soni **50,491 nafar** tashkil etdi; • Xodimlarning **27 % dan ortig‘i 30 yoshgacha**, xodimlarning o‘rtacha yoshi — **37 yosh**; • **Xodimlar qo‘nimsizligi 2.5% ni tashkil etadi;** • Ayollar xodimlarning umumiy sonining 12 % ini tashkil etadi; • 2025 – 2027-yillar uchun Jamoa shartnomasi yangilandi. • Inson huquqlari hamda xilma-xillik va inklyuzivlik bo‘yicha siyosatlar qabul qilindi.
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-7, 202-1, 401-1, 401-2, 401-3, 402-1, 404-1, 404-2, 405-1, 405-2, 403-1, 403-2, 403-3, 403-4, 403-5, 403-6, 403-7, 403-9, 203-1, 203-2, 413-1, 413-2 SASB EM-MM-320a.1, EM-MM-310a.2

4.1. Kadrlar boshqaruvi yondashuvi

GRI 3–3, 406-1, EM-MM-310a.2

Kompaniyaning natijadorligi ko‘p jihatdan jamoalarning samarali hamkorligi va xodimlarning yuqori kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Inson resurslarini boshqarish departamenti va Kasaba uyushmasi kengashi qulay mehnat muhitini shakllantirish va xodimlarning kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish bo‘yicha strategik vazifalarni amalga oshirgan holda mehnat munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.[1]

Kompaniya inson huquqlariga rioya qilish va teng imkoniyatlarni ta’minlash masalalariga ustuvor e’tibor qaratgan holda, Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM)

[1] Работники Компании – сотрудники, трудоустроенные на основе заключенных трудовых договоров в соответствии с Трудовым Кодексом Республики Узбекистан.

erishishga salmoqli hissa qo‘shishga intiladi. “NKMK” AJ kamsitishga nisbatan nol tolerantlik tamoyiliga amal qiladi hamda faoliyatining barcha yo‘nalishlarida kamsitishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiradi.

Kompaniyada jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar har bir xodimga teng munosabat va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi inklyuziv korporativ madaniyat izchil shakllantirilmoqda. 2025-yilda xodimlarni yosh, madaniy, diniy, irqiy va boshqa belgilar bo‘yicha kamsitish holatlari qayd etilmagan. Shuningdek, ish tashlashlar yoki ish beruvchi tashabbusi bilan xodimlarni ishdan vaqtincha chetlashtirish holatlari ham qayd etilmagan.

“NKMK” AJ bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi hamda bunday amaliyotlarni ham o‘z faoliyatida, ham ishbilarmonlik operatsiyalari doirasida qat’iy taqiqlaydi. Kompaniya o‘z faoliyatining barcha jihatlarida majburiy mehnatning har qanday shakllarini to‘liq istisno qilish tamoyiliga amal qiladi.

2024-yildagi jalb etilganlik tadqiqoti natijalariga ko‘ra, “NKMK” AJ xodimlarining umumiy jalb etilganlik indeksi 78% ni tashkil etdi. Ayni paytda tadqiqot umumiy qoniqishning yuqori darajasini ko‘rsatdi: xodimlarning 93% i Kombinatdan ish beruvchi sifatida mamnunligini va “NKMK” AJ ularning huquqlari haqida g‘amxo‘rlik qilishini qayd etdi.

Boshqaruv tuzilmasi va vositalari

Xodimlarni boshqarish, kadrlar va ijtimoiy siyosat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish Inson resurslari departamenti (Kadrlar boshqarmasi, Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo‘limi, Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limini o‘z ichiga oladi), Korporativ ijtimoiy mas’uliyat bo‘limi va “NKMK” AJ xodimlari kasaba uyushmasiKengashi zimmasiga yuklatilgan. Kadrlar va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yo‘nalishidagi asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- Kadrlar va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
- Kompaniya ish haqi fondi byudjetini tashkil etish va bajarish;
- Mehnat huquqlarini himoya qilish va xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- Kadrlar salohiyatini rivojlantirish va xodimlarning kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
- Xodimlar sadoqatini mustahkamlash va ijobiy korporativ madaniyatni yanada rivojlantirish.

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan mehnat qonunchiligi talablari, xalqaro konvensiyalar va shartnomalar, shuningdek, xodimlarni boshqarish sohasidagi ichki hujjatlarga tayanadi:

- Jamoa shartnomasi;
- “NKMK” AJ xodimlarining Odob-axloq kodeksi.
- Ichki mehnat tartibi qoidalari;
- Kadrlar siyosati;
- Kadrlarni boshqarish to‘g‘risidagi nizom;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan, ishning safar va harakatchan xususiyati bilan bog‘liq ustamalarni to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom;

- Kadrlar bo‘limi to‘g‘risidagi nizom;
- Qo‘nimsizlikni hisoblash to‘g‘risidagi nizom;
- Mukofotlash to‘g‘risidagi nizom;
- Xodimlarni tanlash to‘g‘risidagi nizom;
- Kompaniya kadrlarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish to‘g‘risidagi nizom;
- O‘qitishni tashkil etish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risidagi nizom;
- Kadrlar zaxirasi to‘g‘risidagi nizom;
- Kompaniyada jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- Kompaniya Yoshlar yetakchilari kengashi to‘g‘risidagi nizom.

8-rasm. Xodimlarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi



Sxemada uzluksiz chiziq ma’muriy bo‘ysunishni bildiradi.

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

4.2. Xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda “NKMK” AJ Kasaba uyushmasi kengashi bilan hamkorlik

GRI 2-30

Kompaniya birlashish erkinligini xodimlarning huquqlari va farovonligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri deb hisoblaydi. «NKMK» AJ xodimlarining manfaatlarini NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kasaba uyushmasi) hamda Jamoa shartnomasining 3-moddasiga muvofiq Kompaniyaning barcha tashkiliy bo‘linmalarida faoliyat yurituvchi Kasaba uyushmasining tarkibiy bo‘linmalari ifodalaydi. Kasaba uyushmasi vakillari Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasining barcha darajalarida xodimlar manfaatlarining ifodalanishini ta’minlaydi.

Kengash ishining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Mehnatga haq to‘lash va mukofotlash;
- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi;
- Ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar;
- Ishchilar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish;
- Xodimlarning uy-joy masalalari va maishiy sharoitlari;
- Mehnat bahslari va nizolari.

Kasaba uyushmasi xodimlar bilan qayta aloqani ta’minlaydi va murojaatlarni faol ko‘rib chiqadi, jumladan:

- Arizalar (moddiy yordam, tushuntirish, qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida);
- Shikoyatlar (huquqlar va mehnat sharoitlarining buzilishi bo‘yicha);
- Takliflar (mehnat sharoitlari va ishni tashkil etishni yaxshilash bo‘yicha);
- Jamoa murojaatlari.

Murojaatlar yozma, og‘zaki va elektron shaklda, shuningdek, xodimlar vakillari orqali qabul qilinadi. Murojaatlarni ko‘rib chiqishning belgilangan muddati15 kungacha, zarur hollarda — 30 kungacha. Murojaatlar tahlili natijalari har chorakda Kasaba uyushmasi kengashi Rayosati majlislarida muhokama qilinadi.

Ijtimoiy siyosatning asosiy vositasi Kasaba uyushmasi kengashi va Kompaniya rahbariyati o‘rtasida tuziladigan Jamoa shartnomasidir. Shartnoma mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi, uch yil muddatga amal qiladi va har yili mehnat jamoasi konferensiyalarida muhokama qilinadi. Bandlik turi va mehnat munosabatlari amal qilish muddatidan qat’i nazar, xodimlar bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat shartnomasi tuziladi, “NKMK” AJ Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan shart va imtiyozlar taqdim etiladi. 2025-yilda Kompaniya xodimlarining 100% i jamoa shartnomasi qoidalari bilan himoyalangan edi.

Jamoa shartnomasi qoidalariga rioya etilishi har yili “NKMK” AJ mehnat jamoasi konferensiyasida tekshiriladi. Konferensiyada yakunlar sarhisob qilinadi, Jamoa shartnomasini keyingi davr uchun yangilash bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Tekshiruv guruhi ishida “NKMK” AJ Xotin-qizlar kengashi vakillari, shuningdek, markaziy

apparat va ishlab chiqarish bo‘linmalarida faoliyat yurituvchi gender tengligi xizmati vakillari ishtirok etadi.

2025-yilda uch yil muddatga (2025–2027-yillar) mo‘ljallangan yangilangan Jamoa shartnomasi tasdiqlandi. Mazkur shartnoma 2025-yil 29-apreldagi 1-sonli bayonnomaga muvofiq mehnat jamoasi konferensiyasida qabul qilingan. Jamoa shartnomasiga kiritilgan asosiy o‘zgartirishlar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

- xodimlarning transport vositalari amortizatsiyasi uchun ajratiladigan mablag‘lar va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni qayta ko‘rib chiqish;
- I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun asosiy mehnat ta’tili muddatini uzaytirish (ishchilar va xizmatchilar uchun — 33 kalendar kun, rahbarlar va mutaxassislar uchun — 35 kalendar kun);
- bo‘linmalar o‘rtasida ish joyini o‘zgartirishda xodimlarga navbatsiz uy-joy berish huquqiga ega xodimlar ro‘yxatini kengaytirish.

4.3. Xodimlar tuzilmasi

GRI 2-7, 2-8, EM-MM-310a.1, EM-MM-000.B

Kompaniyaning faoliyat hududlari O‘zbekiston Respublikasining to‘rtta mintaqasini qamrab oladi, u yerda “NKMK” AJ iqtisodiy o‘sish va jamoalarning barqaror rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Xodimlar tarkibi va soni to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni shakllantirishda hisobot davrida xodimlar soni ishlab chiqarish bo‘linmalarining joylashuviga qarab Navoiy, Zarafshon, Uchquduq va Zarmitan shaharlari, shuningdek, boshqa shaharlarda (Toshkent, Moskva) hisobga olinadi.

19-jadval. Hududlar kesimida xodimlarning ro‘yxatdagi soni, kishi

Hudud	2022	2023	2024	2025
Navoiy	8,398	9,891	9,788	10,488
Zarafshon	24,070	23,840	23,650	20,414
Uchquduq	8,159	7,917	7,929	13,768
Zarmitan	5,951	5,885	6,235	5,741
Boshqa shaharlar	65	63	64	80
Jami	**46,643**	**47,596**	**47,666**	**50,491**

2025-yil 31-dekabr holatiga “NKMK” AJdagi xodimlarning ro‘yxatdagi soni 50,491 kishini tashkil etdi. Hisobot davrida xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni 48,771 nafarni tashkil etdi.

Xodimlar tarkibi va sonidagi o‘zgarishlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, buning natijasida Kompaniyada yangi ish o‘rinlari yaratildi..

20-jadval. Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, kishi

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Hisobot davrida o‘rtacha ro‘yxatdagi son	45,696	46,220	46,866	48,771

21-jadval. Xodimlarning bo‘linmalar va gender guruhlari bo‘yicha ro‘yxatdagi soni, nafar

GRI 2-7

Bo‘linma	2022		2023		2024		2025	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
MKB	18,508	2,624	18,606	2,612	18,653	2,586	15,561	2,091
ShKB	6,982	1,177	6,764	1,153	6,807	1,122	12,194	1,574
JKB	5,490	461	5,433	452	5,400	433	5,329	412
QKB	2,223	265	3,287	316	3,476	350	3,679	357
“NMZ” IChB	2,737	696	2,647	679	2,691	667	2,895	688
ZQB	2,631	307	2 332	290	2,152	259	2,405	245
Boshqarma	308	167	770	304	531	192	551	190
GQE	537	70	529	69	519	72	516	75
3-avtobaza	338	29	369	29	348	28	345	30
AKTB	65	41	0	0	296	110	304	89
TvPS	129	25	150	25	150	24	150	22
IChAB	109	69	107	69	106	66	106	65
MMTB	171	57	167	51	163	50	105	42
IYoDTS	-	-	-	-	49	1	90	4

Bo‘linma	2022		2023		2024		2025	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
MLB	44	30	48	27	48	27	52	30
TMTB	34	19	31	21	36	17	36	15
MITL	55	147	51	145	43	125	37	84
Geomexanika xizmati	0	0	0	0	0	0	32	0
KK bo‘linmasi	15	0	11	0	19	0	18	0
O‘quv markazi	10	9	10	11	10	11	15	11
Markaziy konstruktorlik byurosi	13	4	16	4	14	4	14	4
Toshkent shahridagi vakolatxona	5	3	4	3	4	3	10	16
Moskva shahridagi vakolatxona	3	1	3	1	3	1	2	1
Jami	**40,428**	**6,215**	**41,335**	**6,261**	**41,518**	**6,148**	**44,446**	**6,045**
Kompaniya bo‘yicha jami	**46,643**		**47,596**		**47,666**		**50,491**	

EM-MM-310a.1

2025-yilda Kompaniya xodimlarining 99 foizdan ortig‘i to‘liq bandlik shartlari asosida mehnat faoliyatini olib bordi. To‘liq bo‘lmagan bandlik xodimning to‘liq ish vaqtiga nisbatan qisqaroq vaqt ishlashini, to‘liq bandlik esa xodimning to‘liq stavkada (to‘liq ish kunida) ishlashini anglatadi.

22-jadval. Xodimlarning bandlik turi bo‘yicha hududlar va jins kesimidagi soni, nafar

Hudud	**2025**	
	Erkaklar	**Ayollar**
Navoiy	**8,802**	**1,686**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	8,783	1,666
Muayyan muddatga tuzilgan	18	21
Zarafshon	**18,073**	**2,341**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	18,073	2,336
Muayyan muddatga tuzilgan	0	5
Uchquduq	**12,194**	**1,574**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	12,164	1,543
Muayyan muddatga tuzilgan	30	31
Zarmitan	**5,329**	**412**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	5,294	406
Muayyan muddatga tuzilgan	35	6
Boshqalar	**48**	**32**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	47	32
Muayyan muddatga tuzilgan	1	0
Jami, to‘liq bandlik	**44,361**	**5,983**
Jami, qisman bandlik	**84**	**63**

“NKMK” AJning barcha xodimlari nomuayyan muddatga yoki muddatli asosda mehnat shartnomalari tuzish orqali ishga qabul qilinadi. Hisobot yilida xodimlarning 97% i, jumladan,

stajyorlar, mavsumiy xodimlar va ayrim loyihalarni bajarish uchun taklif etilgan ekspertlar nomuayyan muddatga mehnat shartnomalarini imzoladi.

23-jadval. Xodimlarning mehnat shartnomasi turi bo‘yicha hududlar va jins kesimida soni, nafar

Hudud	2025	
	Erkaklar	Ayollar
Navoiy	**8,801**	**1,687**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	8,750	1,592
Muayyan muddatga tuzilgan	51	95
Zarafshon	**18,074**	**2,340**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	17,548	2,286
Muayyan muddatga tuzilgan	526	54
Uchquduq	**12,194**	**1,574**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	11,623	1,348
Muayyan muddatga tuzilgan	571	226
Zarmitan	**5,329**	**412**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	5,318	407
Muayyan muddatga tuzilgan	11	5
Boshqalar	**48**	**32**
Nomuayyan muddatga tuzilgan	47	31
Muayyan muddatga tuzilgan	1	1
Jami, nomuayyan muddatga shartnoma	**43,286**	**5,664**
Jami, muddatli shartnoma	**1,160**	**381**

GRI 2-8

2025-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomalar (FHSh) bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar soni (mehnat shartnomalari asosidagi Kompaniya xodimlari hisoblanmaydi) 158 kishini tashkil etdi. Ushbu shaxslarning aksariyati ishlab chiqarish obyektlarida qurilish-ta’mirlash ishlarini bajaradi, shuningdek, ma’muriy xususiyatdagi xizmatlar ko‘rsatadi. Sondagi o‘zgarishlar

Kompaniyaning joriy ehtiyojlariga qarab loyiha va ishlarga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish bilan izohlanadi.[1]

24-jadval. FHSh bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar soni

Yil	2022	2023	2024	2025
FHSh bo‘yicha shaxslar soni	107	160	266	158

FHSh shartnomalari asosida ish va xizmatlarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan Jamoa shartnomasi qoidalari amal qilmaydi, chunki ular “NKMK” AJ xodimlari hisoblanmaydi. Kompaniya tuzilgan shartnomalarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalariga muvofiq barcha majburiyatlarni bajaradi.

4.4. Xodimlarni tanlash va qo‘nimsizlik

GRI 401-1

“NKMK” AJda xodimlarni tanlash jarayonini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat “Xodimlarni tanlash to‘g‘risidagi nizom”dir. mazkur hujjat Kompaniyaning barcha tarkibiy bo‘linmalariga tatbiq etilib, yagona, shaffof va kamsitishdan holi shartlarni ta’minlaydi. Hujjatning asosiy maqsadi nomzodlarning kasbiy kompetensiyalari va shaxsiy fazilatlarini xolis baholashni ta’minlashdan iborat bo‘lib, bu Kompaniyaning strategik ehtiyojlariga mos mutaxassislarni jalb etishga xizmat qiladi. Kompaniyada xodimlarni tanlash samaradorligini oshirish va ishga qabul qilishning shaffof shartlarini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy raqamli vositalardan foydalaniladi:

- **mehnat.ngmk.uz vakansiyalar portali** — tashqi mehnat bozoriga yo‘naltirilgan bo‘lib, dolzarb vakansiyalar bilan tanishish, onlayn ariza topshirish va tanlovning barcha bosqichlaridan raqamli formatda o‘tish imkonini beradi. Bu mutaxassislarni jalb qilish geografiyasini kengaytiradi va raqobatbardosh kadrlar tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi.
- **testonline.ngmk.uz onlayn-testlash tizimi** — nomzodlarning kasbiy va kognitiv qobiliyatlarini baholashni ta’minlaydi, tanlovni yanada aniq va shaffof o‘tkazish imkonini beradi.
- Kadrlar siyosatiga muvofiq ichki nomzodlar uchun kadrlar zaxirasi tuzilmasiga muvofiq kompetensiyalarni birinchi navbatda baholash va bo‘sh vakansiyalarga o‘tish imkoniyati joriy etilgan.

2025-yil hisobot davrida 4,632 nafar yangi xodim qabul qilindi, ulardan 217 nafari aholining ijtimoiy zaif guruhlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari bo‘yicha maqsadli qabul asosida ishga olindi, qolgan yollangan xodimlar soni ochiq tanlov orqali ishga qabul qilindi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar (FHSh) asosida xizmatlar ko‘rsatuvchi shaxslar[1]. Mehnat shartnomalari asosida Kompaniya xodimlari hisoblanmaydi.

2025-yilda qabul qilingan xodimlarning aksariyatini MKB bo‘linmalariga qabul qilingan 30 yoshgacha bo‘lgan erkaklar tashkil etdi.

25-jadval. Yollangan xodimlarning hududlar bo‘yicha soni, nafar

Hudud	2022	2023		2024	2025
			shu jumladan, bo‘linmalar o‘rtasida o‘tkazish bo‘yicha		
Navoiy	861	2,230	1,154	390	377
Zarafshon	2,354	1,233	100	723	2,882
Uchquduq	389	343	17	268	1,249
Zarmitan	149	160	67	71	103
Boshqa shaharlar	17	15	5	4	21
Jami	**3,770**	**3,981**	**1,343**	**1,456**	**4,632**

26-jadval. Yollangan xodimlarning gender va yosh guruhlari bo‘yicha soni, nafar

Ko‘rsatkich	2022		2023				2024		2025	
	kishi	%	kishi	%	shu jumladan, bo‘linmalar o‘rtasida o‘tkazish bo‘yicha		kishi	%	kishi	%
					kishi	umumiy qabuldan %				
Gender guruhlari bo‘yicha:										
Ayollar	321	9	425	11	178	13.2	110	8	128	3%
Erkaklar	3,449	91	3,556	89	1,165	86.7	1,346	92	4,504	97%
Yosh guruhlari bo‘yicha:										
30 yoshdan kam	1,766	51	1,846	46.3	395	29.4	1,058	72	3,127	68%
30–50 yosh	1,830	45	1,908	47.9	803	59.7	373	26	1,450	31%
50 yoshdan	174	4	227	5.7	145	10.7	25	2	55	1%

ortiq										
Kompaniya bo‘yicha jami	**3,770**	**100**	**3,981**	**100**	**1,343**	**33.7**	**1,456**	**100**	**4,632**	**100**

27-jadval. Mehnat munosabatlari tugatilgan xodimlarning mintaqalar kesimida soni, nafar

Mintaqa	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Navoiy	605	725	308	302
Zarafshon	1,275	1,476	753	842
Uchquduq	305	584	187	278
Zarmitan	159	229	127	120
Boshqa shaharlar	0	16	5	3
Jami	**2,344**	**3,030**	**1,380**	**1,545**

28-jadval. Mehnat munosabatlari tugatilgan xodimlarning gender va yosh guruhlari bo‘yicha soni, nafar

Ko‘rsatkich	**2022**		**2023**				**2024**		**2025**	
	kishi	**%**	**kishi**	**%**	**shu jumladan, bo‘linmalar o‘rtasida o‘tkazish bo‘yicha**		**kishi**	**%**	**kishi**	**%**
					kishi	**umumiy tugatishdan %**				
Gender guruhlari bo‘yicha:										
Ayollar	291	12	392	13	190	6	228	17	188	12
Erkaklar	2,053	88	2,638	87	1,082	36	1,152	83	1,357	88
Yosh guruhlari bo‘yicha:										
30 yoshdan kam	510	22	846	28	403	13	330	24	437	28
30–50 yosh	877	37	1,429	47	732	24	573	42	623	40

50 yoshdan ortiq	957	41	755	25	137	5	477	35	485	31
Kompaniya bo‘yicha jami	**2,344**	**100**	**3,030**	**100**	**1,272**	**42**	**1,380**	**100**	**1,545**	**100**

2025-yilda mehnat munosabatlari tugatilgan xodimlarning umumiy soni 1,545 kishini tashkil etdi. Ular orasida “30-50 yosh” va “50 yoshdan katta” yosh toifalari ajralib turadi. Gender guruhlari bo‘yicha ishdan bo‘shatishlarning eng ko‘p qismi Zarafshon hududida ishga joylashtirilgan erkaklarga to‘g‘ri keladi.

Kompaniya bo‘yicha kadrlar umumiy qo‘nimsizligi ko‘rsatkichini aniqlash uchun hisobot davri davomida kadrlar qo‘nimsizligini hisoblash bo‘yicha nizom joriy etildi. Ushbu ko‘rsatkichni hisoblashda xodimlar tashabbusi va ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo‘shatish statistikasidan foydalaniladi. Hisoblashda “NKMK” AJ bo‘linmalari o‘rtasida xodimlarni o‘tkazish va tomonlar irodasiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shatishlar hisobga olinmaydi. 2025-yil uchun Kompaniya bo‘yicha kadrlar umumiy qo‘nimsizligi ko‘rsatkichi 2.5% ni tashkil etdi.

GRI 402-1

Xodimlarni mehnat sharoitlarining noqulay tomonga o‘zgarishi, shuningdek, xodimlar soni yoki shtatining qisqarishi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinishi haqida xabardor qilishning eng kam muddati O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137 va 161-moddalari hamda “NKMK” AJning 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan Jamoa shartnomasi qoidalariga muvofiq 2 oyni tashkil etadi.

29-jadval. Xodimlar qo‘nimsizligi, %

GRI 401-1

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Gender guruhlari bo‘yicha				
Ayollar	0.64	0.3	0.4	0.3
Erkaklar	4.49	2.6	2	2.2
Yosh guruhlari bo‘yicha				
30 yoshdan kichik	1.12	0.9	0.6	0.7
30–50 yosh	1.92	1.3	1	1.0
50 yoshdan katta	2.09	0.7	0.8	0.8
Kompaniya bo‘yicha jami	5.13	2.9	2.5	2.5

4.5. Mukofotlash va rag‘batlantirish

GRI 202-1, 405-2, 401-2

Mukofotlash va rag‘batlantirish tizimi yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish va ularni Kompaniyada saqlab qolish, shuningdek, korporativ madaniyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mehnatga haq to‘lash tizimi standartlashtirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq keladi hamda “NKMK” AJning barcha bo‘linmalarini qamrab oladi. Ish haqi tarif setkasi asosida belgilanadigan bazaviy lavozim maoshidan shakllanadi. Tarif setkasida mehnat sharoitlari, kasbiy ko‘nikmalar, shuningdek, bajariladigan ishning o‘ziga xos xususiyatlari va xarakteri hisobga olinadi. Jinsdagi farqlar

lavozim maoshini hisoblashga ta’sir qilmaydi, bu esa teng imkoniyatlar, meritokratiya va kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillarini ta’minlaydi.

Hisobot yilida 2025-yil 1-oktabrdan boshlab ish haqi 10 foizga oshirildi. Natijada, ustamalar va hududiy koeffitsiyentlarni hisobga olmaganda, eng quyi razryaddagi xodimning eng kam tarif stavkasi bo‘yicha ish haqi 169 AQSh dollarini, o‘rtacha ish haqi darajasi esa 1 052,98 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 14,7 foizga yuqori.

Kadrlar siyosati va “NKMK” AJ Jamoa shartnomasi qoidalariga muvofiq, ustama va mukofotlar ko‘rinishidagi to‘lovlar nazarda tutilgan bo‘lib, bu xodimlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish va mukofotlashga xizmat qiladi. Ustamalar ish staji uchun, shuningdek, vaxta usulida ishlaydigan xodimlarga vaxta usulida ishlaganlik uchun, ishning ko‘chma xususiyati uchun, haydovchilar va lokomotiv mashinistlariga klassliligi uchun beriladi.

Ustama va mukofotlarga qo‘shimcha ravishda, ish haqi miqdorini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 743-son qarori bilan belgilangan tuman (hududiy) koeffitsiyenti hisobga olinadi. Ushbu koeffitsiyent bo‘linmaning joylashuviga qarab 1.15 dan 1.6 gacha o‘zgaradi. “NKMK” AJ xodimlarining ish haqiga tuman (hududiy) koeffitsiyentlari hisoblanishi mumkin bo‘lgan maksimal summa O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 2.11 baravarini tashkil etadi. Hisobot davrida tuman (hududiy) koeffitsiyentlari miqdori o‘zgarishsiz qoldi.

Boshqaruv xodimlari uchun mukofot va rag‘batlantirish to‘lovlarini o‘z ichiga olgan ish haqi natijadorlik ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish maqsadlariga erishish hamda mehnat muhofazasi bo‘yicha tekshiruvlar natijalariga asoslanadi. Mazkur yondashuv xodimlarning rag‘batlantirilishi va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan (KPI).

30-jadval. Tuman koeffitsiyentlari to‘g‘risidagi Qarorning tarqalish geografiyasi va lavozim maoshiga tuman koeffitsiyentlari bo‘yicha ustamalar miqdori, %

Og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim mehnat sharoitlariga ega hududlar	**Ustamalar miqdori, 2023-yil**	**Ustamalar miqdori, 2024-yil**	**Ustamalar miqdori, 2025-yil**
Zarafshon	1.6	1.6	1.6
Uchquduq	1.6	1.6	1.6
Tomdi	1.6	1.6	1.6
Konimex	1.6	1.6	1.6
Nurota	1.6	1.6	1.6
G‘ijduvon	1.6	1.6	1.6
Peshku	1.6	1.6	1.6

Og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim mehnat sharoitlariga ega hududlar	Ustamalar miqdori, 2023-yil	Ustamalar miqdori, 2024-yil	Ustamalar miqdori, 2025-yil
Shofirkon	1.6	1.6	1.6
Tuproqqal’a	1.6	1.6	1.6
Xazorasp	1.6	1.6	1.6
Nurobod	1.3	1.3	1.3
Qo‘shrabot	1.3	1.3	1.3
Paxtachi	1.3	1.3	1.3
Urgut	1.3	1.3	1.3
G‘allaorol	1.3	1.3	1.3
Zomin	1.3	1.3	1.3
Forish	1.3	1.3	1.3
Navbahor	1.3	1.3	1.3
Qiziltepa	1.3	1.3	1.3
Xatirchi	1.3	1.3	1.3
Karmana	1.2	1.2	1.2
Shahrisabz	1.2	1.2	1.2
Kitob	1.2	1.2	1.2
Angren	1.2	1.2	1.2
Olmaliq	1.2	1.2	1.2
Piskent	1.2	1.2	1.2
Ohangaron	1.2	1.2	1.2
Taxiatosh	1.15	1.15	1.15

31-jadval. Xodimlar ish haqi koʻrsatkichlari, AQSh dollari

Koʻrsatkich	2022	2023	2024	2025
Faoliyat yuritilayotgan hududlardagi eng kam ish haqi, AQSh dollari	79.6	82.3	85	95.7
Kompaniyada boshlangʻich darajadagi xodimning ish haqi, AQSh dollari	126.5	136.9	144.3	169.0
Kompaniyadagi eng kam ish haqining faoliyat yuritilayotgan hududlardagi ish haqiga nisbati, baravar	1.6	1.7	1.7	1.77

2025-yilda Kompaniyada faoliyat yuritilayotgan hududlardagi (Navoiy sh., Zarafshon sh., Uchquduq sh.) eng kam ish haqi Oʻzbekiston Respublikasidagi eng kam ish haqi miqdoridan 77% yuqori boʻldi – 101 AQSh dollari (01.08.2025 holatiga 1,271,000 soʻmni tashkil qilgan).

Respublika mehnat qonunchiligida kasblar razryadlariga muvofiq belgilangan tarif stavkalari asosida ish haqi darajasini hisoblash nazarda tutilgan boʻlib, bu bir xil lavozimlarda ishlaydigan erkaklar va ayollarga teng haq toʻlashni ta’minlaydi. 2025-yilda erkaklar va ayollarning oʻrtacha ish haqi oʻrtasidagi farq 352 AQSh dollarini (32,26%) tashkil etdi. Oʻtgan yilga nisbatan ish haqi darajasidagi farqning oshishi hisobot davrida mehnatga haq toʻlashning umumiy 14 foizga oshirilishiga mutanosib ravishda yuz berdi.

Kompaniyada gender guruhlari boʻyicha oʻrtacha ish haqi darajasidagi farq kon-metallurgiya sektori bandlik tuzilmasining oʻziga xosligi (ayollar mehnatidan foydalanish imkoniyatlari toʻgʻrisidagi qonunchilik talablari), shuningdek, lavozim toifalari boʻyicha bandlik tuzilmasi (ishchi kasblarining razryadlari) bilan bogʻliq.

32-jadval. Xodimlarning faoliyat yuritilayotgan hududlar bo‘yicha o‘rtacha ish haqi, AQSh dollari

Mintaqa	2022		2023		2024		2025	
	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak
Navoiy	562	743	602	835	646	916	729	1,042
Zarafshon	518	786	561	851	594	916	697	1,069
Uchquduq	683	886	734	927	794	1,032	854	1,098
Zarmitan	467	828	538	966	714	1,055	699	1,229
Boshqa shaharlar	489	594	433	765	619	716	517	880
Kompaniya bo‘yicha o‘rtacha	**548**	**792**	**592**	**870**	**647**	**952**	**739**	**1,091**

33-jadval. Toifalar va gender guruhlari bo‘yicha xodimlarning bazaviy ish haqi nisbati, AQSh dollari

GRI 405-2

Toifa	2022		Koeffitsiyent	2023		Koeffitsiyent	2024		Koeffitsiyent	2025		Koeffitsiyent
	ayol	erkak		ayol	erkak		ayol	erkak		ayol	erkak	
Rahbarlar (MBX)	1,327	1,362	0.97	1,459	1,617	0.90	1,480	1,726	0.86	1,632.9	1,963.3	0.83
Mutaxassislar (MT)	819	953	0.86	949	1 054	0.90	1 005	1,211	0.83	1,158.1	1,367.6	0.85
Ishchi xodimlar (ishlab chiqarish xodimlari (IChX))	447	655	0.68	563	797	0.71	600	879	0.68	694.7	1,008.2	0.69
Ishchi xodimlar (texnik xodimlar (TX))	486	535	0.91	603	622	0.97	646	738	0.87	733.5	794.5	0.92
Xizmatchilar (OX)	346	420	0.82	420	507	0.83	444	540	0.82	497.9	619.8	0.80

4.6. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish

GRI 404-1, 404-2

“NKMK” AJ inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kadrlar siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishi deb biladi. Shahar tashkil etuvchi korxona sifatidagi o‘z rolini anglagan holda, Kompaniya xodimlarni o‘qitish va ularning kasbiy rivojlanishini nafaqat ishlab chiqarish maqsadlariga erishish, balki hududning malakali mehnat resurslarini va O‘zbekiston metallurgiya tarmog‘ini rivojlantirishga qo‘shiladigan hissa sifatida ham ko‘radi. O‘qitish jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi: :

- Ko‘p darajalilik (xodimlarning barcha toifalarini qamrab olish);
- Tabaqalashtirilganlik (maqsadli guruhlarni shakllantirish);
- Uzluksizlik (bilim va ko‘nikmalarni doimiy takomillashtirib borish).

Kompaniyaning kasbiy rivojlanish tizimi o‘zining xodimlarni o‘qitish va rivojlantirishga kompleks yondashuvni ta’minlaydigan infratuzilmasiga ega bo‘lib, uning tarkibiga uchta o‘quv markazi va ikkita o‘quv-kurs kombinati kiradi. O‘quv markazlari Kompaniyaning Navoiy, Zarafshon, Uchquduq va Zarmitan shaharlaridagi bo‘linmalari huzurida faoliyat yuritadi .

9-rasm. Kombinat o‘quv muassasalarining tuzilmasi



Xodimlar kompetensiyalarini dolzarb sohaviy tendensiyalar va ilg‘or amaliyotlarga muvofiq uzluksiz takomillashtirishni ta’minlash uchun keng doiradagi dasturlarni qamrab oluvchi Kasbiy o‘qitish rejasi amalga oshirilmoqda:

- Malaka oshirish kurslari;
- Ichki rotatsiya tizimini o‘z ichiga olgan qayta tayyorlash dasturlari;

- Ikkinchi va turdosh kasblarga o‘qitish;
- Ishlab chiqarish treninglari va seminarlari.

O‘quv markazlarida konchilik va qayta ishlash yo‘nalishlaridagi kasblar bo‘yicha ta’lim beriladi. Kompaniya o‘quv markazlarida 300 dan ortiq mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish amalga oshiriladi. Ayollarni kasbiy tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq ularning mehnatidan foydalanishga ruxsat etilgan, talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Jami 2025-yilda Kompaniyaning 17,686 xodimi o‘qitishdan o‘tdi.

34-jadval. Kompaniya xodimlarini o‘qitish

O‘qitish dasturlari	2023	2024	2025
Ishchilar malakasini oshirish	6,902	7,918	9,804
Ikkinchi va turdosh kasblar bo‘yicha o‘qitilgan va qayta tayyorlangan	5,305	4,922	5,111
MTX va mutaxassislar malakasini oshirish	2,841	2,421	2,771
Jami	**15,048**	**15,261**	**17,686**

35-jadval. Jami xodimlar orasida ta’limdan o‘tgan xodimlar soni, nafar

Xodimlar	2022	2023	2024	2025
Ro‘yxatdagi son	46,643	47,596	47,666	50,491
O‘qitishdan o‘tgan xodimlar soni, nafar	15,051	15,048	15,261	17,686
O‘qitishdan o‘tgan xodimlar ulushi, %	32%	32%	32%	35%

36-jadval. O‘qitishdan o‘tgan xodimlar soni, nafar

Xodimlar	2022	2023	2024	2025
Jami	15,051[1]	15,048	15,261	17,686
Toifalar bo‘yicha:				
Ishlab chiqarish xodimlari va xizmatchilar	12,764	12,207	12,840	15,553
Mutaxassislar	1,385	1,872	1,453	1,270
Rahbarlar	902	969	968	863
Gender guruhlari bo‘yicha:				
Erkaklar	14,055	13,623	13,964	16,421
Ayollar	996	1,425	1,297	1,265

37-jadval. Xodimlar toifalari va gender guruhlari bo‘yicha bitta xodimni o‘qitish soatlarining o‘rtacha yillik soni, soatlar

Xodimlar	2022	2023	2024	2025
Toifalar bo‘yicha:				
Ishlab chiqarish xodimlari va xizmatchilar	27	25	26	30
Mutaxassislar	15	19	15	12
Rahbarlar	8	8	8	7
Gender guruhlari bo‘yicha:				
Erkaklar	28	26	27	30
Ayollar	13	18	17	17

[1] Ushbu ko‘rsatkich doirasiga MKB, ShKB, JRB, ZQB va NKMK boshqarmasi (NKMK o‘quv markazi) kiradi

"NKMK" AJ mutaxassislari davlat xizmatlari va hamkorlar tomonidan tashkil etilgan o‘quv kurslarida qatnashadilar, O‘zbekiston Respublikasidagi shu sohadagi boshqa korxonalar va analoglar bilan tajriba almashish dasturlarida ishtirok etadilar va sohadagi ilg‘or amaliyot bilan tanishish uchun xorijiy korxonalarga tashrif buyuradilar.

Kompaniya xodimlari talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha ilg‘or amaliyotlarni o‘rganishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi va xorijdagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari ta’lim olish imkoniyatlarini yaratmoqda.

38-jadval. 2025-yilda "NKMK" AJning xorijda o‘qitilgan mutaxassislari soni, nafar

Mamlakat	Shahar	Dastur	Kishilar soni
Rossiya	Norilsk	Metallurgiya va sanoat korxonalarining korporativ universitetlari bilan tajriba almashish.	8
Malayziya	Kuala-Lumpur	Barcha uchun "Fintech": asoslardan amaliyotgacha.	5
Buyuk Britaniya	London	Konchilik kompaniyalarida korporativ huquq. IPO amaliyoti	2
Buyuk Britaniya	Bornmut	“Korrupsiyaga qarshi kurash, sanksiyalarni boshqarish va komplayens: g‘arb tajribasi”	3
Buyuk Britaniya	Bornmut	“Strategik HR, korporativ mijozlar bilan munosabatlar va ma’lumotlar himoyasi”	4
Turkiya	Istanbul	“Qurilish sohasida loyihaviy moliyalashtirish”	5
Avstriya	Vena	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha Germaniya jamiyati (GIZ) — “O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida (TexVET)”	1
Turkiya	Istanbul	“Konchilik sanoati korxonalarida tannarx, investitsiyalar va soliqqa tortish bo‘yicha shaffof hisob va hisobot tizimi to‘g‘risida”	10
Turkiya	Anqara	“Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimi va ijro intizomini ta’minlash”	2
Germaniya	Gannover	“KPI tizimini joriy etish va rivojlantirish, zamonaviy yondashuvlar va ilg‘or tajribani o‘rganish, HR-jarayonlarni boshqarish”	3
Xitoy	Xanchjou	“MHXS talablariga muvofiq kompleks byudjet rejalashtirish va	9

Mamlakat	Shahar	Dastur	Kishilar soni
		samaradorlikni boshqarish bo‘yicha o‘quv kursi	
Germaniya	Gannover	“Ishlab chiqarish korxonasining ombor xo‘jaligi: tashkil etish, avtomatlashtirish va hisob — BOSCH kompaniyasi bilan tajriba almashish” joriy yil o‘quv kursi mavzusida	5
Chexiya	Praga	“Xaridlar tizimi va tashkilotning manfaatlar to‘qnashuvi qismidagi korrupsiyaga qarshi siyosati” o‘quv kursi	5
Jami			**62**

Xodimlarning uzluksiz ta’lim olishi va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “NKMK” AJ ta’lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etishni davom ettirmoqda. Jumladan, hisobot davrida masofaviy ta’lim tizimi uchun quyidagi mavzular bo‘yicha 9 ta kurs ishlab chiqildi:

- “Foydali qazilmalarni maydalash, saralash, boyitish hamda ruda va konsentratlarni bo‘laklash jarayonlarida ishlarni xavfsiz bajarish qoidalari”;
- “Loyihalarni boshqarish”;
- “ Tizimli fikrlash va kommunikatsiya”;
- “Excelda ishlash asoslari”;
- “Taqdimotlar tayyorlash va Power Pointda ishlash”;
- “ Faktor tahlil va dashbordlashtirish”;
- “Uzluksiz takomillashtirish tizimi”;
- “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish”;
- “MHXS asoslari”.

Korporativ platforma doirasida barcha xodimlarga rus va o‘zbek tillaridagi ta’lim kurslariga kirish ochiq. Jami hisobot davrida 7,907 nafardan ortiq xodim masofaviy o‘qitish platformasida kurslarni o‘tadi.

39-jadval. Masofaviy o‘qitishdan o‘tgan xodimlar soni

Ko‘rsatkich	2024	2025
Xodimlar soni	**5,809**	**7,907**

O‘qitishga investitsiyalar va raqamli vositalarni joriy etish

Hisobot davrida o‘quv markazlarida, xorijda va Respublika o‘quv muassasalarida o‘qitishga 2,327.75 ming AQSh dollari (29,276,137 ming so‘m), raqamli vositalarni ishlab chiqish va joriy etishga 100 ming AQSh dollaridan ortiq (1,300,501 ming so‘m) ajratildi.

2025-yilda Kompaniyada xodimlarni o‘qitishga yillik investitsiyalarning o‘sishi 22% ni tashkil etdi.

40-jadval. Xodimlarni o‘qitishga investitsiyalar, mln AQSh dollari

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Xodimlarni o‘qitishga investitsiyalar hajmi	1.08	1.50	1.91	2.33
Raqamli vositalarni joriy etish	-	-	0.08	0.10

41-jadval. 2025-yilda "NKMK" AJ mablag'lari hisobidan respublika OTMlarida o'qitilgan xodimlar soni, nafar

Bo'linmalar	O'zbekiston Respublikasi OTMlari*										Jami
	NDKTU	TDTU	TATU	M va IM akademiyasi	TDTU (transport)	Sam DAQU	TDIU	BuhDTU	Sam.I va SI	J va OKU	
Kombinat boshqarmasi	1	-	4			-	1	1	-	1	**7**
MKB	30	1	1	8	10	-	1	1	-	-	**51**
ShKB	29	-	-	10	11	-	-	-	1	-	**51**
JKB	30	-	-	10	1	1	-	-	-	-	**42**
QKB	32	-	-	1	3	-	-	-	-	-	**37**
"NMZ" IChB	15	-	-	5	1	-	-	-	-	-	**21**
ZQB	2	-	-	2	2	-	2	2	-	-	**8**
MITL	5	-	-	2		-	-	-	-	-	**7**
IChAB	3	-	-	1		-	-	-	-	-	**4**
TvPS	2	-	-	2		-	-	-	-	-	**4**
GQE	6	-	-	1	2	-	-	-	-	-	**9**
3-avtobaza	1	-	-	1	2	-	-	-	-	-	**4**
MMTB		-	-	2		-	-	-	-	-	**3**
Jami	**156**	**1**	**5**	**45**	**32**	**1**	**4**	**4**	**1**	**1**	**248**

*** NDKTU - Navoiy davlat kon-texnologiya universiteti**
TDTU - Toshkent davlat texnika universiteti
TATU - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
MvaIM akademiyasi - Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi
TDTU (transport) - Toshkent davlat transport universiteti
Sam DAQI - Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
TDIU - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxoro DTU - Buxoro davlat texnika universiteti
Sam.IvaXI - Samarqand iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish instituti
JvOKU - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

4.7. Kadrlar zaxirasi va intellektual kapital

"NKMK" AJ ichki kadrlarni rivojlantirishni kadrlar siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishi deb bilgan holda, boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarida vorisiylikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. Shu munosabat bilan Kompaniyada "Kadrlar zaxirasi to‘g‘risidagi nizom"ga muvofiq shakllantiriladigan Kadrlar zaxirasi yaratilgan bo‘lib, u har yili yangilanib boradi. Uning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida zaxirani shakllantirish, o‘qitishni tashkil etish va rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni ko‘rsatish uchun mas’ul doimiy faoliyat yurituvchi komissiya faoliyat yuritadi.

Kadrlar zaxirasini tanlash va rivojlantirish aniq belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- **Boshqaruv sifatini oshirish** — boshqaruv amaliyotini takomillashtirish maqsadida zaxiradagi mutaxassislar rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladi.
- **Yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash** — zarur bilim, ko‘nikma va tajribaga ega istiqbolli xodimlarni jalb etish hisobiga boshqaruv kadrlari yangilanib boradi
- **Ko‘p bosqichli baholash** — dastlabki saralash bo‘linma rahbarlari tomonidan nomzodlarning mehnat natijalari, kasbiy faoliyati va obro‘-e’tiborini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.
- **Kompleks talablar** — nomzodlarning kasbiy tayyorgarligi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoada ishlash ko‘nikmasi, yoshi va sog‘lig‘i holati hisobga olinadi.
- **Lavozim yo‘riqnomalariga muvofiqlik** — zaxiraga zarur ma’lumot va malakaga ega xodimlar kiritiladi.
- **Raqobat tamoyili** — har bir lavozim uchun kamida uch nafar nomzod saralab olinadi.
- **Rahbarlarning mas’uliyati** — kadrlarni tanlash va lavozim bo‘yicha ilgari surish uchun shaxsiy mas’uliyat tegishli boshqaruv darajalaridagi rahbarlar zimmasiga yuklatilgan.

Kadrlar zaxirasi tarkibi bir necha darajani o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasi;
- Kompaniya Bosh direktori nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasi;
- Bosh direktor o‘rinbosarlari lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasi;
- Tarkibiy bo‘linmalar direktorlari lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasi;
- Tarkibiy bo‘linmalar direktorlari o‘rinbosarlari lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasi.

42-jadval. “NKMK” AJ kadrlar zaxirasi

Ko‘rsatkich	2024	2025
Kadrlar zaxirasidagi xodimlarning umumiy soni, nafar	18,127	20,313
Kadrlar zaxirasiga kiritilgan ayollar soni, nafar	449	858
Kadrlar zaxirasiga kiritilgan xodimlar sonining umumiy ro‘yxatdagi songa nisbati. % i	38 %	40.2%
Kadrlar zaxirasiga kiritilgan ayollar sonining jami ayollar soniga nisbati, %	7.3%	14.2%

Intellektual kapital

“NKMK” AJ xodimlar salohiyatini oshirishga izchil investitsiya kiritadi: xodimlarning o‘qishi uchun haq to‘laydi, ularning konferensiyalarda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaydi hamda ilmiy darajaga ega xodimlarga ustama to‘laydi. Ustamalarni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-son qarori hamda “NKMK” AJning 2024-yil 31-yanvardagi 54-son buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilgan “Ilmiy darajaga ega “NKMK” AJ xodimlariga qo‘shimcha mukofot to‘lash to‘g‘risida”gi nizom bilan belgilanadi.

2025-yil davomida Kompaniyada turli darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassislar faoliyat yuritdi .

43-jadval. Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va ma’lumoti

Ta’lim	Erkaklar	Ayollar
O‘rta maxsus ma’lumot	21,174	3,047
Oliy ma’lumot (mutaxassislik/bakalavriat)	12,144	1,252
Fan magistri	406	88
Fanlar nomzodi	7	0
Fanlar doktori	25	0

“NKMK” AJ mutaxassislari ilmiy va ta’lim faoliyatiga salmoqli hissa qo‘shadi: Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ma’ruzalar o‘qiydi, amaliyot va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib boradi.

1997-yildan buyon VAK ro‘yxatiga kiritilgan va Ulrich’s ma’lumotlar bazasiga kiruvchi “O‘zbekiston konchilik xabarnomasi” jurnali nashr etib kelinmoqda. Jurnal tahrir hay’ati tarkibidan “NKMK” AJ olimlari, shuningdek, Qozog‘iston, Tojikiston, Ukraina, Germaniya va Kanada olimlari o‘rin olgan. Jurnalning mavzulari geotexnologiya, konchilik, metallurgiya, ESG jihatlari, iqtisodiyot va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi. “NKMK” AJ mutaxassislari har yili xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy hamda sohaviy konferensiyalarda ishtirok etadilar. Shuningdek, ular ilmiy-texnik jurnallarda, jumladan, Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalarida indekslanuvchi nashrlarda maqolalar chop etadilar.

4.8. Ijtimoiy-madaniy xilma-xillik va teng imkoniyatlar

"NKMK" AJ ijtimoiy-madaniy xilma-xillikni ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori natijalarga erishish va samaradorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etadi. Shu munosabat bilan Kompaniya barcha xodimlari uchun inklyuziv muhit yaratishga intiladi hamda ularni jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi mavqei, shuningdek, sog'lig'i bilan bog'liq cheklovlarning mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, qo'llab-quvvatlaydi.

"NKMK" AJda 39 xil millat vakillari faoliyat yuritadi. Bu Kompaniyadagi madaniy xilma-xillikni namoyon etib, inklyuziv ish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

44-jadval. Xodimlarning etnik mansubligi bo'yicha statistikasi, nafar

GRI 405-1

Millat	**2025**	
	Xodimlar soni	**Xodimlarning umumiy sonidagi ulushi**
O'zbeklar	45,146	89.41%
Qozoqlar	2,726	5.40%
Tojiklar	181	0.36%
Qoraqalpoqlar	571	1.13%
Ruslar	870	1.72%
Tatarlar	418	0.83%
Ukrainlar	80	0.16%
Boshqa millatlar	499	0.99%

2025-yilda xodimlarning 60 foizi 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan yosh toifasiga, ya'ni "ishlab chiqarish xodimlari" toifasiga mansub bo'lib, bu faol mehnat faoliyatida yuqori kasbiy ko'nikmalarga ega tajribali mutaxassislarning ustunligini ko'rsatadi. Rahbar xodimlarning asosiy qismi ham 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan toifaga to'g'ri keladi. Ular konchilik sanoatini rivojlantirishga hissa qo'shayotgan tajribali va faol xodimlardir.

Pensiya yoshiga yaqin xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish, shuningdek, ularning bandligini ta'minlash hamda Kompaniyada malakali va tajribali mutaxassislarni saqlab qolish maqsadida xodimning tashabbusiga ko'ra boshqa lavozimga o'tkazish imkoniyati nazarda tutilgan.

Kompaniya yosh mutaxassislar sonini faol ravishda oshirib bormoqda — xodimlarning 27 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. 50 yoshdan katta xodimlar Kompaniya xodimlarining 13 foizini tashkil etadi. "NKMK" AJ xodimlarining o'rtacha yoshi 37 yoshni tashkil etadi.

45-jadval. Xodimlarning toifalar va yosh guruhlari bo‘yicha soni, nafar

GRI 405-1

Toifa	**Jami, nafar**	**30 yoshgacha**		**30–50 yosh**		**50 yoshdan katta**	
		Erkaklar	**Ayollar**	**Erkaklar**	**Ayollar**	**Erkaklar**	**Ayollar**
Xodimlar soni, nafar	**50,491**	**12,424**	**1,145**	**26,246**	**3,917**	**5,776**	**983**
Boshqaruv	**4**	0	0	2	1	1	0
Rahbarlar	**5,075**	477	12	3,623	194	705	64
Mutaxassislar	**4,175**	755	120	1,998	815	343	144
Xizmatchilar	**290**	50	42	63	104	12	19
Ishchilar	**40,947**	11,142	971	20,560	2,803	4,715	756
Yosh guruhi bo‘yicha jami		**13,569**		**30,163**		**6,759**	
Yosh guruhining xodimlarning umumiy soniga nisbatan ulushi		**27%**		**60%**		**13%**	
Yosh guruhidagi erkaklar va ayollar ulushi		**92%**	**8%**	**87%**	**13%**	**85%**	**15%**

46-jadval. Xodimlarning toifalar va gender guruhlari bo‘yicha soni, nafar

Toifa	Jami, kishi	Erkaklar, kishi		Ayollar, kishi	
		Jami	Umumiy sondagi ulushi	Jami	Umumiy sondagi ulushi
Boshqaruv	4	3	75%	1	25%
Rahbarlar	5,075	4,805	95%	270	5%
Mutaxassislar	4,175	3,096	74%	1,079	26%
Xizmatchilar	290	125	43%	165	57%
Ishchilar	40,947	36,417	89%	4,530	11%
Kompaniya bo‘yicha jami	**50,491**	**44,446**	**88%**	**6,045**	**12%**

4.8.1. Gender tengligi

2025-yilda "NKMK" AJ ushbu yo'nalishni korporativ barqarorlik va xalqaro standartlarga muvofiqlikning asosiy elementi sifatida ko'rib, gender tengligi hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish tamoyillarini tizimli ravishda ilgari surishda davom etdi. Siyosatni muvofiqlashtirish, mehnat sharoitlarini monitoring qilish va inklyuziv korporativ madaniyatni rivojlantirishni ta'minlovchi ixtisoslashgan Gender tengligi va inklyuzivlik xizmati tashkil etildi.

2025-yil 5-sentabrdan boshlab Gender tengligi va inklyuzivlik xizmati Bosh mutaxassisi shtat lavozimi joriy etildi, bu mazkur yo'nalishni boshqarishning institutsional asoslarini mustahkamladi. Xotin-qizlar kengashlari qayta tuzildi, barcha ishlab chiqarish bo'linmalarida korporativ standartlarning joylarda amalga oshirilishini ta'minlovchi gender masalalari bo'yicha mas'ullar tayinlandi. Mazkur qayta tuzish ayol xodimlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yangilash, ijtimoiy tashabbuslar doirasini kengaytirish va qayta aloqa samaradorligini oshirish imkonini berdi.

"NKMK" AJ tog'-kon sanoatida ayollar yetakchiligini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etishda davom etdi. Kompaniya International Women in Mining (IWiM) global tarmog'iga O'zbekistondan qo'shilgan birinchi tashkilot bo'lib, bu "NKMK" AJning gender tengligi sohasidagi sa'y-harakatlarining xalqaro e'tirofini mustahkamladi. 2025-yilda IWiM bilan erishilgan yutuqlar va 2026-yilga mo'ljallangan hamkorlik rejalarini, jumladan, yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish, bilim almashish va ayollarning global professional hamjamiyatdagi ishtirokini kengaytirishni muhokama qilishga bag'ishlangan bir qator onlayn uchrashuvlar o'tkazildi.

Kompaniya, shuningdek, Toshkent xalqaro kon forumi doirasida har yili o'tkaziladigan, sohada tajriba almashish va ayollarning mavqeini ilgari surishning barqaror amaliyotiga aylangan "Metallurgiyada ayollar ovozi" tashabbusini amalga oshirishda davom etdi.

"NKMK" AJda gender tengligi va barcha ayol xodimlar uchun teng huquqlilik tamoyillariga rioya etilishi Kasaba uyushmalari kengashi ishtirokidagi muntazam ichki tekshiruvlar hamda tegishli davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan davriy tekshiruvlar jarayonida nazorat qilinadi. Hisobot davrida Kompaniyaning barcha ishlab chiqarish bo'linmalarini qamrab olgan birinchi ichki gender auditi o'tkazildi. Auditning maqsadi erkaklar va ayollarning mehnat va ijtimoiy huquqlariga rioya etilishini, shuningdek, ish joylarida teng sharoitlar va imkoniyatlar ta'minlanganligini baholashdan iborat bo'ldi.

Gender auditi bir qator tizimli masalalarni aniqladi: bir qator bo'linmalarda sanitariya-maishiy sharoitlarning yetarli emasligi, SHHVning ayollarning jismoniy xususiyatlariga mos kelmasligi, ayollarning ishlab chiqarish kasblari va rahbariyatdagi vakilligi. Audit yakunlari bo'yicha mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun infratuzilmaviy yechimlar, ayollar uchun o'quv dasturlari ro'yxatini kengaytirish va gender tengligi tamoyillarini korporativ hujjatlarda mustahkamlashni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar dasturi shakllantirildi. Aniqlangan masala va muammolar Gender masalalari bo'yicha qo'mita bilan birgalikda muhokama qilindi, yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqildi va kelishildi. 2026-yilda navbatdagi auditni o'tkazish rejalashtirilgan.

"NKMK" AJ xodimlarining gender tarkibi — **88% erkaklar va 12% ayollar** — texnologik, me'yoriy-huquqiy va madaniy omillar uyg'unligi tufayli ayollar ulushi an'anaviy

ravishda past bo‘lib qolayotgan tog‘-kon sanoatining global tendensiyalariga mos keladi. Tog‘-kon sanoatidagi aksariyat kompaniyalarda ayollar mehnat salohiyatining taxminan **15%** ini tashkil etadi[1], Osiyo qit’asidagi kompaniyalarda esa ushbu ko‘rsatkich **13%** ni tashkil etadi. Bu holat og‘ir ishlarni bajarishga doir qonunchilikdagi cheklovlar, jismoniy yuklama talab qiladigan kasblar ulushining yuqoriligi, shuningdek, ishlab chiqarish mutaxassisliklarida tarixan shakllangan erkaklar vakilligining yuqoriligi bilan izohlanad. [1]

Shunga qaramay, ayollar “NKMK” AJ faoliyatida salmoqli o‘rin tutadi. Kompaniya kadrlar zaxirasi tarkibida vakilligini oshirishga intilmoqda. 2025-yilda Boshqaruv tarkibidagi ayollar ulushi 25% ni tashkil etdi.

47-jadval. “NKMK” AJ xodimlari o‘rtasidagi ayollar ulushi

Toifa	2023	Toifadagi ayollar ulushi	2024	Toifadagi ayollar ulushi	2025	Toifadagi ayollar ulushi
Boshqaruv	1	17%	1	17%	1	25%
Rahbarlar [2]	265	6%	269	6%	270	5%
Mutaxassislar [3]	1,071	28%	1,069	27%	1,079	26%
Xizmatchilar [4]	210	66%	174	59%	165	57%
Ishchi xodimlar [5]	4,714	12%	4,635	12%	4,530	11%
Jami	**6,261**	**13%**	**6,148**	**13%**	**6,045**	**12%**

Kompaniya har qanday xodimning mehnatini teng baholaydi va mehnat yutuqlarini rag‘batlantiradi. 2025-yilda 1 448 nafar xodim Kompaniyaning ichki mukofotlari va davlat faxriy nishonlari bilan taqdirlandi hamda mehnatdagi xizmatlari uchun rag‘batlantirildi.

48-jadval. 2025-yilda taqdirlangan “NKMK” AJ xodimlari, nafar

Mukofot	Ayollar	Erkaklar
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” unvoni	-	1
“Shuhrat” medali	-	2

[1] IWIM - Uncovering the Gender Data Gap in Mining Worldwide

[2] Rahbarlar — yo‘nalishlar bo‘yicha direktorlar, ishlab chiqarish bo‘linmalari rahbarlari, bo‘lim boshliqlari va bo‘lim boshliqlarining o‘rinbosarlari, xizmat boshliqlari, guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish ustalarini o‘z ichiga olgan boshqaruv xodimlari

[3] Mutaxassislar — muhandislik-texnik va ixtisoslashgan xodimlar bo‘lib, muhandislar hamda yo‘nalishlar (toifalar) bo‘yicha mutaxassislar kabi kasbiy malakaga ega xodimlarni o‘z ichiga oladi.

[4] Xizmatchilar — Kompaniyaning kundalik faoliyatini ta’minlovchi texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar.

[5] Ishchilar — Kompaniyaning ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita amalga oshirish bilan band bo‘lgan xodimlar.

“Do‘stlik” ordeni	-	1
“Mehnat shuhrati” ordeni	-	1
O‘zbekiston Respublikasi Faxriy yorlig‘i	-	6
“Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni	1	
“NKMK faxriysi” unvoni	22	65
“Konchilar shuhrati” nishoni (I, II, III daraja)	12	135
“NKMK” AJning tashakkurnomasi	19	127
“NKMK” AJ Faxriy yorlig‘i	245	811
Jami	**299**	**1,149**

4.8.2. Yoshlar siyosati

“NKMK” AJ yosh xodimlarning har tomonlama rivojlanishi va ularning kasbiy hamda shaxsiy yuksalishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks yoshlar siyosatini amalga oshirmoqda. 2025-yilda yoshlar xodimlar umumiy sonining 27 foizini tashkil etdi (13 569 nafar xodim, shu jumladan 1 145 nafar ayol). Ulardan 4 149 nafari oliy ma’lumotga ega, 489 nafari rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritadi, 875 nafari esa turli toifadagi mutaxassislar sifatida faoliyat yuritadi.

Yoshlar bilan samarali ishlash uchun Kompaniyada 2017-yildan boshlab Yoshlar yetakchilari kengashi muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy bo‘linmalarda Yoshlar kengashi raislari va yetakchilari lavozimlari joriy etildi.

Davlat yoshlar siyosatini amalga oshirish doirasida “NKMK” AJ yosh xodimlarning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlaydi, loyihalarni moliyalashtiradi va sport, ta’lim hamda madaniy rivojlanish sohasida tadbirlar tashkil etadi:

- **“Zakovat” intellektual ligasi** — har yili o‘tkaziladigan “NKMK kubogi” turniri bo‘lib, yoshlarda milliy qadriyatlarga, tarixiy va ma’naviy merosga hurmatni shakllantirish, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- **Sport dasturlari** — 2025-yilda 232 dan ortiq sport tadbiri o‘tkazilib, ularda 4 300 nafardan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Sport tadbirlari “Sportni sev, sport bilan yasha” shiori ostida futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat, velosport, yengil atletika marafonlari va kibersportni qamrab oldi.
- **Oilaviy tashabbuslar** — oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan “Dadam, onam va men – sport oilasi” tanlovi.
- **Madaniy-ma’rifiy loyihalar** — “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 3 000 nafardan ortiq yosh xodim O‘zbekistonning madaniy-tarixiy maskanlari va tabiiy qo‘riqxonalariga tashrif buyurdi.
- **Rasionalizatorlik faoliyati** — har yili o‘tkaziladigan “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi. 2025-yilda 271 nafar mutaxassis tomonidan 276 ta taklif taqdim etilib, ulardan 52 tasi g‘olib deb topildi va mualliflari mukofotlandi.

4.8.3. Ijtimoiy siyosat va xodimlar oldidagi mas’uliyat

GRI 2-30, 401-2, 401-3, EM-MM-310a.1

“NKMK” AJ xodimlar oldidagi ijtimoiy mas’uliyatni barqaror rivojlanishning asosiy elementlaridan biri deb biladi. Kompaniya munosib mehnat sharoitlari, ijtimoiy

himoyalanganlik va xodimlar huquqlariga rioya qilinishini ta’minlaydi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy vositalari ijtimoiy korporativ mas’uliyat siyosati va Jamoa shartnomasi hisoblanadi. Jamoa shartnomasining ijrosi muntazam qo‘shma yig‘ilishlar doirasida har ikki tomon — ish beruvchi va xodimlar — tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi. Hisobot davrida Jamoa shartnomasining amal qilishi Kompaniya xodimlarining 100 foizini qamrab oldi.

“NKMK” AJ Jamoa shartnomasi qoidalariga muvofiq xodimlar va pensionerlarga quyidagilarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ijtimoiy imtiyozlarni taqdim etadi:

- **Tibbiy xizmat ko‘rsatish** — xodimlarni bepul davolash va ularning salomatligini qo‘llab-quvvatlash.
- **Sanatoriy-kurortda davolanish** — sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish.
- **Oilalarni qo‘llab-quvvatlash** — farzandli oilalarga yordam ko‘rsatish, madaniy hordiq va dam olishni tashkil etish.
- **Moddiy yordam** — alohida hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan qimmat dori-darmonlar xarajatlarining bir qismini to‘lashda yordam ko‘rsatish.
- **Mehnat imtiyozlariga rioya qilish** — O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilgan kafolatlarni ta’minlash.

49-jadval. Hisobot davridagi ijtimoiy to‘lovlar, ming AQSh dollari

To‘lov turlari	To‘lovlar
Sanatoriy-kurortda davolanish uchun yo‘llanmalar va yo‘l xarajatlarini to‘lash	9,146.14
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun pul mablag‘lari	7,413.30
Kechki va sirtqi ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan xodimlarga beriladigan o‘quv ta’tillarini (imtiyozlarini) to‘lash	3,998.77
Davolash va tish protezlash	767.12
Talabalar va amaliyotchilarga yordam	428.39
Korxona xodimlariga bola parvarishi bo‘yicha nafaqa	409.54
Yosh mutaxassislarga beriladigan to‘lov	266.97
Dafn marosimi uchun moddiy yordam	189.87
Kam ta’minlanganlarga xayriya yordami	166.92
Mehnat shartnomasi tugatilganda ishdan bo‘shash nafaqasi	29.19
Amaldagi qonunchilikka muvofiq 12 yoshgacha bo‘lgan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolasi bor ayollarga qo‘shimcha ta’tilni to‘lash	1.87
Jami	22,818.09

“NKMK” AJ O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligi talablariga, shuningdek, Jamoa shartnomasi qoidalariga rioya qiladi. Jamoa shartnomasi qoidalariga muvofiq, “NKMK” AJ xodimlarga kasbiy vazifalarini bajarish vaqtida jarohat olgan taqdirda, tegishli to‘lovlar va kompensatsiyalarni taqdim etish orqali ijtimoiy himoyani kafolatlaydi.

“NKMK” AJ barcha xodimlarga, ularning genderi, bandlik turi yoki mehnat shartnomasining boshqa shartlaridan qat’i nazar, bola parvarishlash ta’tilini taqdim etadi. 2025-yilda 573 nafar ayol bola parvarishlash ta’tilidan foydalanish huquqidan foydalandi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 404-moddasiga muvofiq, Kompaniya ayollarga homiladorlik va tug‘ish ta’tilini taqdim etadi:

- Tug‘ruqqacha— 70 kalendar kun;
- Tug‘ruqqacha keyin — 56 kalendar kun, asoratli tug‘ish yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan taqdirda esa — 70 kalendar kun.

To‘lovlar qonunchilikda belgilangan miqdorda, biroq o‘rtacha oylik ish haqining kamida 75 foizi miqdorida amalga oshiriladi, shuningdek, bola parvarishi bo‘yicha nafaqalar ham nazarda tutilgan. Xodimlar homiladorlik va tug‘ish ta’tilidan qaytgach, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ularning lavozimi va ish haqi saqlab qolinadi.

Shuni ta’kidlash joizki, hisobot davrida Kompaniyaning ishonch telefoniga kompensatsiyalarni ushlab qolish yoki to‘lamaslik bilan bog‘liq shikoyatlar kelib tushmagan. Bu ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligi hamda xodimlarning o‘z huquqlarini himoya qilishning amaldagi mexanizmlariga yuqori darajadagi ishonchini tasdiqlaydi.

50-jadval. Bola parvarishi ta’tilida bo‘lgan xodimlar, nafar

GRI 401-3

Yil	Jami	Ayollar	Erkaklar
2022	691	689	2
2023	680	680	0
2024	661	661	0
2025	573	573	0

5. MEHNAT MUHOFAZASI VA SANOAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

Muhim mavzular
• Mehnat muhofazasi va xodimlar salomatligini saqlash; • Avariya va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Mehnat layoqatini yo‘qotish bilan bog‘liq shikastlanish ko‘rsatkichi (LTIFR) — **0.32**; • O‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar chastotasi ko‘rsatkichi (FAR) — **0.08**; • MM, SX va FV bo‘yicha dasturlardan o‘qitilgan va imtihondan o‘tkazilgan xodimlar — **14,859 nafar**; • Avariya holatlarini bartaraf etish rejasi bo‘yicha **105** ta o‘quv mashg‘uloti va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha **9** ta mashq o‘tkazildi; • Xavfsizlik talablariga rioya qilganlik uchun rag‘batlantirish dasturi bo‘yicha **247 nafar xodim** taqdirlandi.
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-7, 202-1, 401-1, 401-2, 401-3, 402-1, 404-1, 404-2, 405-1, 405-2, 403-1, 403-2, 403-3, 403-4, 403-5, 403-6, 403-7, 403-9, 203-1, 203-2, 413-1, 413-2 SASB EM-MM-320a.1, EM-MM-310a.2

5.1. Mehnat muhofazasi masalalarini boshqarishga yondashuv

GRI 3-3, 403-1, 403-8

“NKMK” AJning barcha bo‘linmalarida xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash Kompaniyaning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. “NKMK” AJda barcha ishlab chiqarish bo‘linmalari va xodimlarini qamrab oluvchi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi amal qiladi. Talablarga rioya etilishini ta’minlash, xatarlarni nazorat qilish va tahlil qilish, shuningdek, standartlarni yangilab borish uchun javobgarlik Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va ekologiya (ESG) bo‘yicha direktor hamda ishlab chiqarish bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga yuklatilgan. Yuqori rahbariyatning jarayonga jalb etilgani boshqaruv qarorlarining o‘z vaqtida qabul qilinishini va takomillashtirish ishlarining tizimli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

2025-yilda risklarni boshqarishning strategik ustuvor yo‘nalishlari Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi yangi Korporativ siyosatning qabul qilinishi bilan

mustahkamlandi (2025-yil 29-noyabrdagi 886-son buyruq bilan tasdiqlangan). Kompaniya mehnatni muhofaza qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ISO 45001:2018 “Sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligi menejment tizimi” standartiga, “NKMK” AJning Jamoa shartnomasiga hamda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi ichki nizomlarga amal qiladi.

10-rasm. “NKMK” AJda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi masalalarini boshqarish doirasidagi tuzilma va vakolatlar



Sxemada uzluksiz chiziq ma’muriy bo‘ysunuvni, punktir chiziq esa funksional bo‘ysunuvni ifodalaydi.

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

Ishlab chiqarish uchastkalaridagi xavfli omillar

GRI 3-3 (14.16)

Tog‘-kon va metallurgiya ishlab chiqarishining xususiyati Kompaniya MMBT doirasida boshqaradigan kasbiy risk omillari ro‘yxatini belgilaydi. 2024–2025-yillardagi hisobot davrlarida Kompaniya akkreditatsiyadan o‘tgan ixtisoslashtirilgan tashkilot ishtirokida ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazdi. Ushbu ishlar natijalari bo‘yicha Kompaniyaning ishlab chiqarish uchastkalaridagi asosiy xavf omillari ro‘yxati yangilandi:

MKB	ming GJ	700.6	261.0	11.2	1.0	33.5	1,007.4
ShKB	ming GJ	223.9	144.1	0.9	0.0	20.4	389.3
JKB	ming GJ	61.8	21.2	1.7	0.0	4.2	88.9
QKB	ming GJ	77.8	0.0	0.0	0.0	4.0	81.7
"NMZ" IChB	ming GJ	26.9	19.9	0.0	0.0	0.0	46.8
ZQB	ming GJ	1.6	0.0	0.0	0.0	0.0	1.6
Navoiy sh. boshqa bo'linmalari	ming GJ	0.7	0.0	0.1	0.0	0.0	0.8
Jami	ming GJ	**1,093.18**	**446.15**	**13.89**	**1.04**	**62.06**	**1,616.35**

6.1.5. Avtotransport sohasida energiya resurslarini boshqarish

Kompaniya rivojlanishining hozirgi bosqichida Avtotransport departamenti ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirishda muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Avtotransport vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan konchilik va yordamchi ishlar hajmining sezilarli ekanini hisobga olgan holda, aynan ushbu departament energiya resurslarini boshqarish tizimining strategik bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Hisobot yilida departamentning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ldi :

- Texnikalarning yoqilg‘i-moylash materiallari sarfini me’yorlashtirish;
- Logistika yo‘nalishlarini optimallashtirish;
- Avtotransport parkini modernizatsiya qilish.

GPS-navigatsiya, telemetrik tizimlar va raqamli platformalardan foydalanish real vaqt rejimida texnikaning harakatlanishini kuzatib borish, yoqilg‘i sarfini nazorat qilish va marshrutlarning samarasiz uchastkalarini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, departament innovatsion yechimlarni faol joriy etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, elektromobillar, gaz dvigatelli yoqilg‘ida yoki gibrid tizimlarda ishlaydigan texnikalarni o‘z ichiga olgan yanada tejamkor va ekologik toza transport turlariga o‘tish alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalgi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJni jalb etgan holda “NKMK” AJning barcha bo‘linmalarida transport sohasida energiya tashuvchilari sarfi me’yorlarini ishlab chiqish uchun avtomobil transporti vositalari, qurilish-yo‘l mashinalari, texnika va mexanizmlar uchun yoqilg‘i-moylash materiallari sarfi me’yorlari hamda avtomobil va yirik gabaritli shinalarning ekspluatatsion yurish me’yorlarini aniqlash bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Mazkur ishlar natijalari asosida “NKMK” AJning barcha bo‘linmalari uchun transport sohasida energiya tashuvchilari sarfi me’yorlari ishlab chiqildi.

Avtoparkni o‘zgartirish

Hisobot davrida Kompaniya avtotransport parkini “yashil” texnologiyalarga o‘tkazishni davom ettirdi. Almashtirishning ikkinchi bosqichida yengil avtomobillar uchun qo‘shimcha 18 ta elektromobil va gibrid avtomobil joriy etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, natijada ularning umumiy soni 63 taga yetkaziladi.

Shuningdek, Kompaniya karyer texnikalari parkini bosqichma-bosqich elektr va gibrid yuritmali texnikalarga o‘tkazish variantlarini tahlil qilish bo‘yicha ish olib bormoqda. Texnologiyadan foydalanish va tashish yo‘nalishlarining maqbul variantlari ishlab chiqilmoqda. Mazkur loyiha nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy energiya samaradorligini oshirish, balki Kompaniyaning uglerod izini kamaytirish imkonini ham beradi. Karyer texnikalarini gibrid formatga o‘tkazish modelini ishlab chiqish va yo‘nalishini aniq belgilash 2026-yil oxiriga rejalashtirilgan.

6.2. Iqlim o‘zgarishlariga moslashish

6.2.1. Issiqxona gazlari chiqindilari masalalarini boshqarishga yondashuv

GRI 3-3, 302-1, 302-2, 305-1, 305-5, EM-MM-110a.1, EM-MM-110a.2

Iqlim o‘zgarishi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi zamonaviy davrning asosiy global muammolaridan biridir. Iqlim bilan bog‘liq muammolar kuchayib borayotgan sharoitda Kompaniya o‘z faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha o‘z mas’uliyatini anglaydi. “NKMK” AJ iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni boshqarishga tashkiliy tuzilma, nazorat mexanizmlari, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish chora-tadbirlari, shuningdek, barqaror rivojlanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi tashabbuslarni amalga oshirishni o‘z ichiga olgan tizimli yondashuvni joriy etmoqda. Kompaniya Parij kelishuvi maqsadlariga hamda O‘zbekistonning 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha majburiyatlariga erishishga o‘z hissasini qo‘shishga intilmoqda.

2024-yil oxiri — 2025-yil boshida Issiqxona gazlari protokoli (GHG Protocol) tavsiyalari va Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IO‘HEG)ning issiqxona gazlari milliy inventarizatsiyalari bo‘yicha Yo‘riqnoma tamoyillari asosida issiqxona gazlari chiqindilari inventarizatsiyasi o‘tkazildi. 2025-yil uchun 1- va 2-qamrovlar bo‘yicha chiqindilarni miqdoriy baholash Issiqxona gazlari chiqindilari bo‘yicha protokol (GHG Protocol), “Issiqxona gazlari milliy inventarizatsiyalari bo‘yicha yo‘riqnoma tamoyillari, IO‘HEG, 2006” qoidalari hamda ISO 14064–1 xalqaro standartiga muvofiq amalga oshirildi. Ayni paytda Kompaniya 3-qamrovni baholashni amalga oshirmaydi. Kompaniya 2026-yil oxirida 3-qamrovni baholash bo‘yicha yondashuvlarni ishlab chiqishni rejalashtirmoqda.

Inventarizatsiyaga IG — uglerod dioksidi (CO_2), metan (CH_4), azot(I)-oksidi (N_2O), gidroftoruglerodlar (GFU) va oltingugurt geksafloridi (SF_6) bo‘yicha ma’lumotlar kiritilgan. Metan, azot(I)-oksidi, gidroftoruglerodlar va oltingugurt geksafloridi chiqindilari global isish potensiallaridan foydalangan holda CO_2-ekvivalent birliklariga aylantirilgan. Mazkur global isish potensiallarining qiymatlari IO‘HEGning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Beshinchi va Oltinchi baholash hisobotlarida keltirilgan..

Chiqindilarni hisoblash to‘rtta kon boshqarmasi (Markaziy, Shimoliy, Janubiy va “Qizilqum” kon boshqarmalari), Navoiy mashinasozlik zavodi hamda yordamchi bo‘linmalar kesimida asosiy chiqindi manbalari bo‘yicha amalga oshirildi.

64-jadval. Issiqxona gazlari chiqindilarini hisoblash 1 va 2-qamrov doirasidagi quyidagi chiqindi toifalarini o‘z ichiga oladi:

1-qamrov chiqindilari toifalari	2-qamrov chiqindilari toifalari
• Yoqilg‘ini statsionar qurilmalarda yoqish; • Yoqilg‘ini mobil yoqish; • Burg‘ilash-portlatish ishlari; • Ohak ishlab chiqarish; • Po‘lat eritish; • Moylash materiallaridan foydalanish; • Elektr uskunalariga xizmat ko‘rsatish, havoni konditsiyalash va sovutish tizimlarida sovutuvchi moddalarni qo‘llash, chiqindilarni joylashtirish obyektlaridan foydalanishdan chiqindilar.	Kompaniyaning tashkiliy chegaralari doirasida xarid qilingan quyidagilarni iste’mol qilish: • Elektr energiyasi; • Issiqlik energiyasi.

“NKMK” AJning asosiy issiqxona gazlari chiqindilari xarid qilinadigan elektr energiyasi, shuningdek, qazilma yoqilg‘ilarini yoqish bilan bog‘liq.

65-jadval. 1 va 2-qamrov sohasi IG chiqindilarining tarkibi, ming tonna CO2-ekv

Qamrov sohasi	2023	2024	2025
IG chiqindilari, 1-qamrov	1,485.3	1,670.7	1,881.7
IG chiqindilari, 2-qamrov	2,749.3	2,864.6	3,126.2

2024–2025-yillar davrida IG chiqindilari jami miqdorining mutlaq ifodadagi o‘sishi 471 ming tonna CO_2-ekv.ni tashkil etdi (10,4 % ga o‘sish), jumladan, 1-qamrov doirasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri IG chiqindilarining o‘sishi 209 ming tonna CO_2-ekv.ni (12,6 % ga o‘sish), 2-qamrov doirasidagi bilvosita energetik IG chiqindilarining o‘sishi esa 262 ming tonna CO_2-ekv.ni (9,1 % ga o‘sish) tashkil etdi.

2025-yil tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1-qamrov doirasidagi chiqindilarning o‘sishi, avvalo, mobil transport tomonidan yoqilg‘ining amalda yoqilishi hajmining oshishi, portlatish ishlarining amalga oshirilishi va boshqa yordamchi operatsiyalar bilan bog‘liq.

2-qamrov doirasidagi bilvosita chiqindilarning ko‘payishi ishlab chiqarish hajmlarining oshishi va buning natijasida xarid qilingan elektr energiyasi, issiqlik energiyasi hamda bug‘ hajmlarining ko‘payishi bilan bog‘liq.

14-rasm. "NKMK" AJning 2023-2025-yillar uchun 1 va 2-qamrov sohasi issiqxona gazlari chiqindilari, ming tonna CO2-ekv



15-rasm. 1 va 2-qamrov sohasi IG chiqindilarining tarkibi, 2025-yil



66-jadval. "NKMK" AJning 1 va 2-qamrov sohalari issiqxona gazlari chiqindilari, ming tonna CO2-ekv

Qamrov sohasi	Faoliyat turi	Toifa	2023	2024	2025
1-qamrov sohasi	**Yoqilg'ini yoqish bilan bog'liq faoliyat**	Yoqilg'ini statsionar yoqish	222.9	245.9	238.2
		Transport. Yoqilg'ini mobil yoqish	900.4	994.9	1,163.6
		Portlatish ishlari	86.2	117.7	162.0
	Sanoat jarayonlari	Ohak ishlab chiqarish	263.8	301.5	305.0
		Po'lat ishlab chiqarish	0.2	0.3	0.5
		Boshqalar	1	1.1	0.3
		Moylash materiallaridan foydalanish	4.3	4.2	5.7
		Boshqa mahsulotlardan foydalanishdan SF6 va PFU	0.2	0.2	0.2
		Havoni konditsiyalash va sovutish	5.7	4.4	4.1
	Chiqindilarni joylashtirish, oqava suvlarni tozalash va oqizish	Chiqindilarni joylashtirish/Maishiy oqava suvlarni tozalash va oqizish/Sanoat oqava suvlarini tozalash va oqizish	0.6	0.5	0.2
1-qamrov sohasi bo'yicha jami			**1,485.3**	**1,670.7**	**1,879.9**
2-qamrov sohasi	**Bilvosita chiqindilar**	Elektr energiyasi importi	2,690.1	2,801.5	3,067.1
		Energiya, issiqlik va bug' importi	59.2	63	59.1
2-qamrov sohasi bo'yicha jami			**2,749.3**	**2,864.6**	**3,126.2**
Kompaniya bo'yicha jami (1-qamrov sohasi + 2-qamrov sohasi)			**4,234.6**	**4,535.2**	**5,006.0**

Kon boshqarmalari va yordamchi obyektlar kesimida 2025-yilda chiqindilar dinamikasi ishlab chiqarish jarayonlarining o‘ziga xosligi va ularning ko‘lamidan kelib chiqqan holda notekis bo‘lgan. Jumladan, IG chiqindilarining mutlaq ifodadagi eng yuqori o‘sishi Shimoliy kon boshqarmasida kuzatilgan bo‘lib, 490.1 ming tonna CO_2-ekv.ni tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgan o‘zgarishlar ruda qazib olish va qayta ishlash hajmlarining tegishli ravishda o‘sishi bilan bog‘liq.

67-jadval. “NKMK” AJning 2023–2025-yillardagi issiqxona gazlari chiqindilari (“NKMK” AJ bo‘linmalari kesimida), ming tonna CO_2-ekv.

Bo‘linma	2023	2024	2025
MKB	3,045.9	3,239.3	3,196
ShKB	725.4	753.9	1,245
JKB	194.3	193.5	202
QKB	162.8	245.1	258
“NMZ” IChB	71.7	71.8	70
Boshqa bo‘linmalar	34.4	31.6	34

68-jadval. Issiqxona gazlari chiqindilarining intensivligi, qayta ishlangan rudaning t.ga va oltin unsiyasiga kg CO2-ekv

Issiqxona gazlari chiqindilarining intensivligi (1-qamrov + 2-qamrov)	2023	2024	2025
qayta ishlangan rudaning t.ga kg CO2-ekv	42.64	43.19	42.87
oltin unsiyasiga kg CO2-ekv	1,442.07	1,467.19	1,586.19

Ishlab chiqarish rejalarining amalga oshirilishi va operatsion faoliyatning rivojlanishi munosabati bilan “NKMK” AJ kelgusida issiqxona gazlari chiqindilarining mutlaq hajmi oshishi mumkinligini istisno etmaydi. Chiqindilar hajmining oshishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar ruda qazib olish hajmlarining ko‘payishi, shuningdek, qayta ishlanayotgan rudadagi oltin miqdorining kamayishidir.

Shu bilan birga, Kompaniya energiya samaradorligini oshirish, past uglerodli texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari solishtirma chiqindilarining o‘sishini jilovlash va ularni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan.

2025-yilda kompaniya ishlab chiqarish va ma’muriy maydonchalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘rnatish ishlarini davom ettirdi, bu 7,074 tonna CO2-ekv miqdorida issiqxona gazlari chiqindilarining oldini olishga olib keldi.

2025-yilda "NKMK" AJ issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish sohasidagi strategik faoliyat yo'nalishlarini belgiladi:

- muqobil energiya manbalarini joriy etish;
- issiqlik energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish va uni qayta o'zgartirish;
- energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- texnologik jarayonlarni takomillashtirish;
- elektr uskunalari ish rejimini optimallashtirish;
- elektr uskunalarini energiya tejovchi kam quvvatlilariga almashtirish;
- ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan yo'qotishlarni qisqartirish;
- podstansiyalarda kompensatsiyalovchi qurilmalarni o'rnatish;

6.2.2. Iqlim tahdidlari va imkoniyatlari

GRI 201-2

Iqlim o'zgarishining ishlab chiqarish faoliyatiga potensial ta'sirini baholash maqsadida "NKMK" AJ zamonaviy CMIP6 (Coupled Model Intercomparison Project Phase 6) loyihasi iqlim modellaridan foydalangan holda iqlim o'zgarishlarini modellashtirdi. Bunda Markaziy Osiyo uchun CORDEX (Coordinated Regional Climate Downscaling Experiment) dasturining mintaqaviy iqlim modellari, shuningdek, ayrim iqlim parametrlari bo'yicha mahalliy ma'lumotlar qo'shimcha ravishda hisobga olindi.

Baholash umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uchta iqlim ssenariysi (Shared Socioeconomic Pathways, SSP[1]) bo'yicha o'tkazildi, bu global rivojlanishning turli traektoriyalari va issiqxona gazlari chiqindilari darajalarida iqlim sharoitlarining yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot doirasida harorat rejimi, yog'ingarchilik rejimi, ekstremal ob-havo hodisalari va boshqa omillarni tavsiflovchi 35 ta iqlim parametri tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida iqlimiy xavf omillarining to'rtta guruhi ajratib ko'rsatildi va ular bo'yicha Kompaniya obyektlariga ta'siri baholandi.[1]

Kompaniya jismoniy risklarga moslashish bo'yicha quyidagi choralarni ko'rib chiqmoqda:

- **Ishlab chiqarish aktivlarining barqarorligi va ishonchliligini qo'llab-quvvatlash, xodimlarning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash.**
- **Ishlab chiqarishda aylanma suv ulushini oshirish,** tashqi manbalardan olinadigan suv iste'molini qisqartirish hamda ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida, shu jumladan, chiqindi saqlash inshootlarida suv yo'qotishlarini

[1] Iqlim ssenariylari (SSP):

- Sustainability (SSP1 -2.6°C) – Parij kelishuvi doirasidagi ssenariy (2100-yilga kelib Yerning o'rtacha harorati +1,8 °C ga oshishi)
- Middle of the Road (SSP2-4.5°C) – Oraliq ssenariy (2100-yilga kelib Yerning o'rtacha harorati +2,8 °C ga oshishi)
- Taking the Highway (SSP5 – 8.5°C) – Jismoniy xatarlarning eng yuqori ta'sir ssenariysi (2100-yilga kelib Yerning o'rtacha harorati +4,4 °C ga oshishi)

kamaytirish hisobiga suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Mazkur chora-tadbirlar qurg‘oqchilik va suv tanqisligi davrlarida ishlab chiqarishning suv resurslari mavjudligiga bog‘liqligini kamaytirish imkonini beradi.

- **Yangi tashqi suv manbalarini izlash va ulardan foydalanish (yer osti, sho‘r va boshqa manbalar)**
- **Iqlim o‘zgarishi sharoitida foydalanishga moslashtirilgan uskunalar** mavjudligini baholashga qaratilgan kon va ochiq konveyer texnikasi sohasidagi bozor monitoringi hamda texnologik yechimlar tahlili.
- **Nazorat-kuzatuv chora-tadbirlarini amalga oshirish.** Uskunalar, binolar va inshootlarning texnik holatini nazorat qilish. Sanoat va yong‘in xavfsizligi, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida nazorat-kuzatuv chora-tadbirlarini amalga oshirish.
- **Inshootlarni himoya qilish va mustahkamlash.** Chiziqli inshootlar tayanchlari poydevorlarini himoya qilish va mustahkamlash.

Ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarish aktivlarining jismoniy iqlim risklariga chidamliligini oshirishga, potensial operatsion yo‘qotishlarni kamaytirishga va iqlim o‘zgarishi sharoitida kompaniya faoliyatining uzoq muddatli ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan.

69-jadval. Turli iqlim ssenariylarida jismoniy risklarning ehtimolligi

Risk turi[1]	**Risk-fakt**	**Turli iqlim ssenariylarida risk ehtimolligi**			**Yuzaga kelishining mumkin bo‘lgan oqibatlari (2050-yildan keyin risk ahamiyatining oshishi)**
		SSP1-2.6	**SSP2-4.5**	**SSP5-8.5**	
O‘tkir (2050-yildan boshlab surunkali xususiyat)	Ekstremal haroratlarning amplitudasi va davomiyligining oshishi	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori	• Sovutish va konditsiyalashga xarajatlarning oshishi
O‘tkir	Jala yog‘inlar (qish davrida qor)	Past	O‘rtacha	Yuqori	• Sharoitlarning yomonlashuvi rudani tashish uchun, elektr uzatish liniyalariga yuklama
O‘tkir	Shamol kuchining ortishi, changlanish (chang bo‘ronlari)	Past	O‘rtacha	Yuqori	• Elektr uzatish liniyalariga yuklama • Yomon ko‘rinuvchanlik sharoitida karyerlar ishining to‘xtatilishi;
O‘tkir (2055-yildan boshlab surunkali xususiyat)	Suv resurslari taqchilligi (faqat iqlim omillari)	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori	• Texnik va/yoki aylanma suv yetkazib berish cheklovlarining ishlab chiqarish hajmlariga potensial ta’siri.

[1] Quyidagi risk turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- O‘tkir risklar, ya’ni alohida hodisalar (odatda xavfli gidrometeorologik hodisalar) bilan bog‘liq risklar
- Surunkali risklar, ya’ni iqlim o‘zgarishlarining global dinamikasi, shu jumladan, haroratning oshishi va suv resurslari tanqisligi bilan bog‘liq risklar.

O‘tish davri iqlim risklari past uglerodli iqtisodiyotga global o‘tish jarayonlari, jumladan, tartibga solish, texnologiyalar, bozor talabi va reputatsion omillardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

70-jadval. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘tish davri risklari

O‘tish davri riski toifasi	O‘tish davri riskining tavsifi	Ehtimollik	Oqibatlar
Global tartibga solish	Uglerod soliqlari va yig‘imlarini joriy etish	Yuqori	O‘rtacha
	Chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha talablar	Yuqori	O‘rtacha
Xalqaro investorlar va ESG-standartlar tomonidan bosim	Xalqaro tuzilmalarning “barqaror bo‘lmagan” loyihalarni moliyalashtirishdan bosh tortishi	Past	O‘rtacha
	Global yetkazib berish zanjirlaridan chiqarib tashlanish riski	O‘rtacha	Past
	Nodavlat tashkilotlar va guruhlar tomonidan bosim	Past	Past
Suv qonunchiligidagi o‘zgarishlar	Suvdan foydalanishga kvotalar joriy etish	O‘rtacha	O‘rtacha
	Yer osti suvlaridan foydalanishga cheklovlar	O‘rtacha	O‘rtacha
	Transchegaraviy suv nizolari	Yuqori	Yuqori

O‘tish davri iqlim risklarini minimallashtirish uchun “NKMK” AJ issiqxona gazlari chiqindilarini tartibga soluvchi qonunchilikdagi o‘zgarishlarni tizimli kuzatib boradi.

Quyida iqlim omillarining kompaniya faoliyatiga ta’sirini baholash jarayonida aniqlangan asosiy iqlim imkoniyatlari va ular bilan bog‘liq qo‘shimcha qiymat yaratish yo‘nalishlari keltirilgan.

71-jadval. “NKMK” AJ uchun xos iqlim imkoniyatlari

Imkoniyat	Izohlar	Ehtimollik	Oqibatlar
Kompaniyaning investitsiyaviy qiymatini oshirish	Issiqxona gazlari chiqindilari darajasi va iqlim risklari to‘g‘risidagi axborotni shaffof oshkor qilish tufayli kompaniyaning investitsiyaviy qiymatini oshirish,	Yuqori	O‘rtacha
“Yashil” moliyalashtirishga kirish	“Yashil” moliyalashtirish vositalarini qo‘llash orqali moliyalashtirishni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish.	O‘rtacha	O‘rtacha

Imkoniyat	Izohlar	Ehtimollik	Oqibatlar
Oltin ishlab chiqarishning suv tejovchi texnologiyalarida yetakchilik	Suv resurslari taqchilligining ortishi fonida ilg‘or suv tejash va suvni maksimal retsirkulyatsiya qilish texnologiyalarini joriy etish.	Past	O‘rtacha

7. EKOLOGIYA JIHATLARNI BOSHQARISH

Muhim mavzular
• Suv resurslaridan oqilona foydalanish; • Chiqindilar va xavfli moddalar bilan muomala qilish; • Havoning ifloslanishi; • Suvning ifloslanishi; • Tuproqning ifloslanishi; • Bioxilma-xillik va yerdan foydalanish; • Chiqindi saqlagichlar va uyumli ishqorlash maydonchalarini boshqarish; • Ishlab chiqarish obyektlarini yopish.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Chang-gaz tozalash uskunalarini modernizatsiya qilish hisobiga **ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarining kamayishi 7 % ni tashkil etdi**; • “Yashil makon” dasturi doirasida **456 ming donadan ortiq daraxt** ekildi; • Tozalash samaradorligi **99.5 %** gacha bo‘lgan **6 ta yangi chang-gaz tozalash qurilmasi** o‘rnatildi; • “Qizilqum” KB hududida bioxilma-xillik bo‘yicha pilot tadqiqot o‘tkazildi; • **Kompaniya bo‘yicha umumiy suv iste’moliga nisbatan qayta foydalaniladigan suv resurslari ulushi 26% ni tashkil etadi.**
BMTning BRMga erishishga qo‘shilgan hissasi

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 2-24, 2-27, 3-3, 303-1, 303-2, 303-3, 303-4, 303-5, 304-1, 304-2, 304-3, 304-4, 305-1, 305-7, 306-1, 306-2, 306-3, 306-4, 306-5. SASB EM-MM-140a.1, EM-MM-140a.2, EM-MM-150a.5, EM-MM-150a.7, EM-MM-150a.9, EM-MM-150a.10, EM-MM-160a.1, EM-MM-160a.3, EM-MM-130a.1.

7.1. Ekologik menejment tizimi

GRI 2-24, 3-3, EM-MM-160a.1

“NKMK” AJ atrof-muhitni muhofaza qilishni korporativ barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikning asosiy elementi sifatida ko‘radi. Kompaniya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, emissiyalar va oqova suvlar hajmini kamaytirish, chiqindilar hosil bo‘lishini minimallashtirish, shuningdek, energiya tejovchi va past uglerodli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishning o‘sishi va tabiiy ekotizimlarni saqlash o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga intiladi.

Kompaniya mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash bilan bog‘liq atrof-muhitga sezilarli ta’sir mavjudligini tan oladi hamda amalda faoliyat yuritayotgan ekologik menejment tizimi va boshqaruv, texnik hamda tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi orqali ushbu ta’sirni izchil kamaytirib bormoqda.

Ekologik menejment tizimini (EMT)ni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish vazifalarini Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi bajaradi. Ishlab chiqarish bo‘linmalari darajasida ekologik masalalar uchun mas’uliyat muhandis-ekologlar zimmasiga yuklatilgan. “NKMK” AJning EMT doirasidagi asosiy faoliyati qonunchilik va ichki ekologik nizomlarga rioya qilish, kundalik operatsion nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitga ta’sirni baholashni o‘tkazish, bunda atrof-muhitga potensial ta’sirlarni aniqlash va baholash hamda salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, havo va oqava suvlar sifati, emissiyalar, tuproq sifati va boshqa asosiy ekologik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

“NKMK” AJning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari, jumladan, Muruntov karyeri joylashgan Markaziy kon boshqarmasida ISO 14001:2015 xalqaro standarti talablariga muvofiq sertifikatlangan ekologik menejment tizimi joriy etilgan.

Ekologik boshqaruv rejalarini ishlab chiqishda Kompaniya milliy qonunchilikning me’yoriy talablariga amal qiladi. Kompaniya atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta’minlash va ekologik jihatlarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil ishlab chiqadi va joriy etadi. Quyida Kompaniya tomonidan 2025-yilda qo‘llanilgan O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik va me’yoriy hujjatlarining yangilangan ro‘yxati keltirilgan:

- 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni — O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning umumiy tamoyillarini belgilovchi asosiy tarmoq qonuni.
- 2013-yil 27-dekabrdagi O‘RQ-363-son “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni — davlat va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirish tartibini tartibga soladi.
- 2025-yil 24-fevraldagi O‘RQ-1036-son “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni — Kompaniya loyihalarining atrof-muhitga ta’sirini baholash va strategik ekologik baholashni o‘tkazishga qo‘yiladigan yangi talablarni belgilaydi..
- 2019-yil 5-sentabrdagi 737-son “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori — davlat ekologik monitoringini tashkil etish tartibini belgilaydi.
- 2002-yil 5-apreldagi 362-II-son “Chiqindilar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni — ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarini boshqarishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.
- 2004-yil 3-dekabrdagi 710-II-son “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni — muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy rejimini belgilaydi hamda Kompaniya faoliyat yuritadigan hududlarga tutash muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga taalluqli masalalarni tartibga soladi.

- O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni — atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini normalash va nazorat qilishni tartibga soladi.
- O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (amaldagi tahrirda) — suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalarini tartibga soladi.
- 2019-yil 11-iyundagi 484-son “O‘zbekiston Respublikasida 2019–2028-yillar davrida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori — biologik xilma-xillikni saqlash sohasidagi milliy ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi, ular Kompaniya tomonidan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirishda hisobga olinadi.
- 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha «yashil» iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori — Kompaniyaning barqaror rivojlanish va uglerod izini kamaytirish sohasidagi faoliyati uchun strategik yo‘nalishlarni belgilaydi. PQ-436-son hujjatning rasmiy nomi LexUZ materiallarida ham shu mazmunda keltirilgan.

2025-yilda ekologik boshqaruvga yondashuvlarni tartibga soluvchi Kompaniyaning ichki hujjatlari:

- “NKMK” AJning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan atrof-muhit monitoringi dasturi — ekologik nazoratning parametrlari va davriyligini belgilaydi.
- “NKMK” AJning atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish to‘g‘risidagi buyrug‘i — tabiatdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish choralari.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish departamenti to‘g‘risidagi nizom — vakolat va mas’uliyatlarning taqsimlanishi.
- 2025-yilga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi — tabiatni muhofaza qilish majburiyatlarini bajarishga qaratilgan yillik operatsion hujjat.

Ekologik boshqaruvning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Uskunalarni modernizatsiya qilish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va tozalash tizimlarini joriy etish hisobiga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini qisqartirish.
- Ekologik hodisalarni boshqarish va ularning oqibatlarini baholash.
- Energiya samarador yechimlar va “yashil” iqtisodiyot elementlarini o‘z ichiga olgan ekologik toza va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish.
- Ekologik qulay muhit yaratish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish.
- Muntazam treninglar va malaka oshirish dasturlari orqali xodimlarning kompetentligini oshirish.

Raqamli vositalarni joriy etish

2024-yilda ekologik nazoratni kuchaytirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” kompleks

axborot tizimi ishlab chiqildi hamda sinov rejimida joriy etildi. Loyiha ekologik monitoringning asosiy yo‘nalishlarini, jumladan, emissiyalar va rekultivatsiya bo‘yicha statistik ma’lumotlarni, atmosfera havosini nazorat qilishni, suv resurslarini, chiqindilarni boshqarishni, shuningdek, yashil hududlarni hisobga olish va pasportlashtirishni qamrab oladi.

2025-yilda axborot tizimiga ekologik normativlar loyihalari va davlat ekologik ekspertizasi xulosalarining amal qilish muddatlarini kuzatib borish uchun mo‘ljallangan “Normativ hujjatlar” moduli joriy etildi. Modul ekologik hujjatlarning amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin mas’ul shaxslarni avtomatik xabardor qilishni ta’minlaydi, bu ruxsat etilgan eng ko‘p chiqindilar (REMCh), ruxsat etilgan eng ko‘p oqizishlar (REMO), ruxsat etilgan eng ko‘p chiqindi miqdori (REMChM) loyihalarini, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot (AMTB) va ekologik oqibatlar to‘g‘risidagi bayonotni (EOB) o‘z ichiga olgan yangi ekologik normativlar loyihalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish, kelishish va rasmiylashtirishni tashkil etish imkonini beradi.

Atmosfera monitoringi sohasida ifloslantiruvchi moddalarning statsionar manbalaridan ma’lumotlarni, emissiyalarning tarkibi va hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, shuningdek, chang-gazni tozalash qurilmalarining samaradorligi hamda yoqilg‘i va tabiiy gazdan foydalanishni nazorat qilish mexanizmlari joriy etildi.

Shuningdek, ekologik monitoring ma’lumotlari modulini ishlab chiqish boshlandi. Mazkur modul obyektlarni tekshirish uchun chek-listlar, tekshiruvlar bo‘yicha dalolatnomalar va ko‘rsatmalarni, shuningdek, har bir ko‘rsatma bo‘yicha tuzatuvchi chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Modulni to‘liq ishga tushirish 2026-yilga rejalashtirilgan.

16-rasm. "NKMK" AJ ekologik jihatlarini boshqarish doirasidagi tuzilma va rollar



Sxemada uzluksiz chiziq ma'muriy bo'ysunishni bildiradi.
Sxemada punktir chiziq funksional bo'ysunishni bildiradi.

"NKMK" AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

7.2. Ekologiya talablariga muvofiqlik va atrof-muhit monitoringi

GRI 2-27, EM-MM-160a.1

"NKMK" AJ O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchiligiga muvofiq faoliyat yuritadi va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga intiladi. 2025-yilda Kompaniyaga nisbatan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq ishlar qo'zg'atilmagan. Sanksiyalar yoki sezilarli jarimalar qo'llanilmagan.

Hisobot yilida "NKMK" AJning atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga xarajatlari 7,061.8 ming AQSh dollarini (88,817.395 mln so'm) tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 122% ga yuqori (2024-yil - 3,185.10 ming AQSh dollari (40,306.1 mln so'm)). Xarajatlarning ushbu oshishi atmosfera havosini muhofaza qilish loyihalarini, jumladan, texnologik yo'llar va karyerlarda changni bostirish, zaboylarni sug'orish, changni bostiruvchi reagentlar (spirt bardasi sulfati) xarid qilish hamda atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

Atrof-muhitning ifloslanishi va chiqindilarni joylashtirish uchun kompensatsiya to'lovlari 208.8 ming AQSh dollarini (2,627.157 mln so'm) tashkil etdi, o'sish 1% dan kam bo'ldi (2024-yilda 207.55 ming AQSh dollarini tashkil etgan).

""NKMK" AJ ekologik monitoring olib boradi hamda Kompaniyaning sanoat maydonchalari va sanitariya-muhofaza zonalarida havo, suv va tuproq namunalarini yig'ish va tahlil qilish ishlarini amalga oshiradi. Atmosfera havosining monitoringi manba quvvatiga, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishini hisoblash natijalariga va hudud relyefining xususiyatlariga qarab, sanitariya-muhofaza zonalari doirasida hamda asosiy chiqindi manbalaridan 5 km gacha radiusdagi kuzatuv zonalarida amalga oshiriladi.

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari belgilangan normativlar va litsenziya ruxsatnomalari shartlariga muvofiqligi bo'yicha tahlil qilinadi. Baholash ruxsat etilgan eng ko'p konsentratsiyalardan oshib ketishlarni aniqlashga qaratilgan. Chetlanishlar aniqlangan hollarda laboratoriya mutaxassislari va Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi ko'rsatmalar rasmiylashtiradi va kamchiliklarni bartaraf etish uchun tuzatuvchi chora-tadbirlarni belgilaydi. Ko'rsatmalar bajarilishi nazorati normativ parametrlar to'liq tiklanguncha o'tkaziladi. Qabul qilingan yondashuv ishlab chiqarish hududlari ichida ham, ulardan tashqarida ham ekologik vaziyatni kompleks tushunishni ta'minlaydi.

Atrof-muhit monitoringi dasturi ekologik parametrlarning tizimli nazoratini ta'minlaydi va operatsion faoliyat bilan bog'liq chetlanishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Qonunchilik talablariga muvofiq Kompaniya quyidagilarda monitoring o'tkazadi:

- sanoat maydonchalarida — qazib olish, qayta ishlash va yordamchi ishlab chiqarish joylarida;
- sanitariya-muhofaza zonalarida (SMZ) — belgilangan SMZ doirasidagi va chegaralaridagi turli nuqtalarda;-
- ishlab chiqarish obyektlarining potensial ta'sir zonasidagi aholi punktlarida belgilangan kuzatuv nuqtalarida.

72-jadval. Atrof-muhitni muhofaza qilish monitoringi dasturi uchun byudjet, ming AQSh dollari.

Chora-tadbir	Moliyalashtirish hajmi			
	2022	**2023**	**2024**	**2025**
Oqova suvlar sifati monitoringi hamda tozalash inshootlari va kanalizatsiya tizimining samaradorligini baholash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi	16.4	18.9	50.9	49.3
Atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kompleksning asosiy statsionar ifloslanish manbalarida atmosfera chiqarilmalari monitoringini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi	17.9	18.2	67.7	40.6
Chiqindilarni saqlash omborlari joylashgan hududlarda tuproqni ifloslanish manbalarini monitoring qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi	21.3	21.4	14.6	24.2
Chiqindilarni saqlash omborlarining kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarining ifloslanishini monitoring qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi	9.1	9.2	75.3	94.4
Jami	**64.7**	**67.7**	**208.5**	**208.5**

7.3. Chiqindilarni boshqarish va monitoring qilish

GRI 305-7, EM-MM-120a.1.

Atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini qisqartirish "NKMK" AJning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. "NKMK" AJ muntazam ravishda ishlab chiqarish ekologik monitoringini yuritadi va ishlab chiqarish jarayonlari natijasida hosil bo'ladigan ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga chiqindilarini kamaytirish choralarini ko'radi.

Kompaniya ish zonalaridagi chiqindi manbalarida, SMZ doirasida va chegarasida, shuningdek, sanoat obyektlariga bevosita yaqin joylashgan aholi punktlaridagi kuzatuv zonalari doirasida havo sifati monitoringini o'tkazadi.

Hisobot davri davomida monitoring O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy organlari bilan kelishilgan, "NKMK" AJ bo'linmalarining emissiya manbalarida tashlamalarning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori (TChM) me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish reja-jadvaliga muvofiq amalga oshirildi. Monitoring quyidagi parametrlarni nazorat qilishni o'z ichiga oldi: CO, NO, NO_2 , SO_2 , SO_3 , PM10, Pb, UOB.

2025-yilda "NKMK" AJda MKB, ShKB, JKB, "NMZ" IChB, QKB, ZQB bo'linmalari obyektlari uchun tegishli parametrlar bo'yicha ruxsat etilgan eng ko'p ko'rsatkichlarni nazarda tutuvchi ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan chiqindilari normativlari loyihalari amal qildi.

73-jadval. Chiqindi manbalarining turlari va tavsifi.

Turlari	Tavsif
Chang-gaz tozalash uskunalari bilan jihozlangan uyushtirilgan chiqindi manbalari	Zavod va qozonxonalarning tutun mo'rilari hamda texnologik qurilmalarning qurilgan gaz chiqargichlar va mo'rilar orqali amalga oshiriladigan chiqindilari
Tozalashsiz uyushtirilgan chiqindi manbalari	CHTQsiz zavod va qozonxonalar hamda texnologik qurilmalarning tutun mo'rilari
Uyushtirilmagan chiqindi manbalari	Metallga ishlov beruvchi dastgohlar, payvandlash va bo'yoq-lak ishlaridagi chiqindilar
Zalpli chiqindilar	Avariya chiqindilari va portlatish ishlaridagi chiqindilar
Ko'chma manbalar	Yengil va yuk mashinalari, avtobuslar

So‘nggi 3 yildagi atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari dinamikasi hajmlarning umumiy o‘sishini qayd etadi. Chiqindilarning ortishi 6-GMZ,5-GMZ-5 va 7-GMZ ishlab chiqarishlarining kengayishi va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishning o‘sishi bilan bog‘liq. 2025-yil davomida Kompaniya ishlab chiqarish obyektlarida yuqori samarali CHTQ o‘rnatishni davom ettirdi, shu munosabat bilan hisobot davrida ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarining 7 % ga kamayishiga erishildi.

74-jadval. Ifloslantiruvchi moddalar hajmi, tonna.

Ifloslantiruvchi modda	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
CO	694	907	1,469	1,014
NOx (NOx hajmi NO va NO2 ni o‘z ichiga oladi, lekin N2O ni o‘z ichiga olmaydi)	458	650	815	641.17
SOx (SOx hajmi SO2 va SO3ni o‘z ichiga oladi)	206	204	271	287.66
PM10 qattiq moddalari (diametri 10 mikrometr yoki undan kam bo‘lgan qattiq moddalar)	4,779	4,963	5,103	5,228
Qo‘rg‘oshin (Pb)	0.06	0.05	0.05	0.013
Uchuvchan organik birikmalar (UOB)	33	23	28	44.14
Jami	**6,170**	**6,747**	**7,793**	**7,214**

75-jadval. Azot va oltingugurt oksidlarining solishtirma chiqindilari, qayta ishlangan rudaning tonnasiga chiqindi tonnasi

Ifloslantiruvchi modda	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Azot oksidlari (NOX)	0.000005	0.000006	0.0000067	0.0000062
Oltingugurt oksidlari (SOX)	0.00002	0.00003	0.00003	0.00003

17-rasm. Atmosferaga "NKMK" AJ chiqindilarining umumiy miqdori, tonna



18-rasm. "NKMK" AJ ifloslantiruvchi moddalarining asosiy chiqindilari, tonna



19-rasm. 2025-yilda "NKMK" AJning asosiy bo‘linmalari bo‘yicha atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarining ulushi, %



Hisobot davri davomida atmosfera havosiga salbiy ta’sirni kamaytirish bo‘yicha tuzatuvchi va yumshatuvchi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- yuqori tozalash samaradorligiga ega (99.5% gacha) 6 dona chang-gaz tozalash uskunasi o‘rnatildi:
  - MKB 7-GMZning 12-, 13- va 14-ifloslanish manbalarida SBQ rusumidagi 3 ta chang-gaz tozalash qurilmasi o‘rnatildi;
  - JKB “Marjonbuloq” oltin ajratib olish fabrikasi sanoat-tajriba uchastkasi kuydirish pechining 108 va 109-manbalarida 2 ta chang-gaz tozalash qurilmasi o‘rnatildi;
  - “NMZ” IChBning quyish sexida 285-manbada (metall eritish pechi) 1 ta chang-gaz tozalash qurilmasi o‘rnatildi.
- chang-gaz tozalash qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish va kapital modernizatsiya qilish ishlari o‘tkazildi (QKB 1-GMZning magnit fraksiyasini qayta ishlash uchastkasida va ikkita qurilma — ShKB “Qo‘qpatas” konining ohaktoshni qayta ishlash uchastkasida).

Doimiy asosda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- sug‘orish mashinalari yordamida zaboylarni texnik suv bilan sug‘orish;
- kon lahmi uchastkalarida konlarning texnologik avtomobil yo‘llarida changni bostirishda spirt bardasi sulfatidan foydalanish;
- zaboy sifatini yaxshilash va mahkamlash devorini mustahkamlash hisobiga burg‘ilangan quduqni zaryadlashda chang chiqindilarini kamaytirish. Qazib olish joylarini texnik suv bilan purkash orqali chang chiqindilarini kamaytirish;
- trotilsiz emulsion portlovchi moddalardan (EPM) foydalanish orqali atmosfera ifloslanishini qisqartirish;
- avtotransport vositalarining yoqilg‘i tizimlarini ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish;
- sanoat obyektlari atrofida yashil kamarlar yaratish.

2024-yilda ishlab chiqarish obyektlari va SMZ hududlarida atmosfera havosining doimiy ifloslanish manbalarini uzluksiz instrumental nazorat qilishni (chiqindilardan namuna olish va tahlil qilish uchun) joriy etish loyihasi boshlandi. Loyiha atmosfera havosining

ifloslanish manbalaridan chiqindilardan namuna olish va tahlil qilishning avtomatik stansiyalarini, shuningdek, tutash hududlarda statsionar kuzatuv punktlarini o‘rnatishni nazarda tutadi. Loyiha jadvaliga muvofiq stansiyalarni o‘rnatish atrof-muhitga ta’sir darajasi yuqori bo‘lgan korxonalar uchun bosqichma-bosqich (2024–2026-yillar) amalga oshiriladi.

2024-2025-yillar hisobot davri davomida kombinatning tarkibiy bo‘linmalarida chiqindi manbalarida namuna olish va tahlil qilishning 3 ta avtomatik stansiyasi o‘rnatildi (3-,5-GMZ, NMZ). Chiqindilarni avtomatik monitoring qilish tizimlari real vaqt rejimida chiqindilarning 13 ta parametrini uzluksiz nazorat qilishni ta’minlaydi.

Uzoq muddatli ekologik monitoring dasturiga muvofiq Kompaniya, shuningdek, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi I va II toifadagi obyektlarning sanitariya-muhofaza zonalari doirasida statsionar kuzatuv punktlarini (fon stansiyalarini) joriy etishni boshladi. Avtomatik stansiyalarni o‘rnatishning asosiy maqsadi atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari normativlariga rioya qilinishini uzluksiz nazorat qilishni, shuningdek, belgilangan normativlardan oshib ketishlar aniqlangan taqdirda operativ javob berishni ta’minlashdir. Jumladan, hisobot davri davomida kompaniyaning barcha gidrometallurgiya majmualarida (1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-GMZ) 7 ta statsionar kuzatuv punkti (fon stansiyasi) o‘rnatildi.

Hisobot yili davomida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ajratilgan umumiy xarajatlar 0.76 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

7.4. Yerdan oqilona foydalanish va bioxilma-xillikni himoya qilish

EM-MM-160a.1

“NKMK” AJ ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida tuproq, yer qa’ri va ekotizimlarga ta’sirni kamaytirishga e’tibor qaratadi. “NKMK” AJning barcha obyektlari uchun TIA loyihalari yetkazilgan ekologik zararni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni, shuningdek, obyektning foydalanish muddati tugagach, yerlarni rekultivatsiya qilishni nazarda tutadi. Kompaniyaning yer qa’ri va yer resurslaridan oqilona foydalanishga nisbatan mas’uliyati obyektlarni to‘g‘ri ravishda ekspluatatsiyadan chiqarishdan iborat bo‘lib, shaxtalar, yer osti lahmlari, burg‘ilash maydonchalari va binolar yopilgandan keyin odamlar va atrof-muhit uchun xavf tug‘dirmasligi lozim.

“NKMK” AJ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish, yer qa’ri hamda tuproq resurslarini muhofaza qilish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga qat’iy amal qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktabrdagi O‘RQ-987-son “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonuni — yer qa’ridan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asoslarini, jumladan, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, “NKMK” AJ, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi

huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining vakolatlarini belgilaydi;

- O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 598-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi 120-II-son “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi 710-II-son “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevraldagi O‘RQ-1036-son “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi Qonuni — jamiyatning ishlab chiqarish obyektlari bo‘yicha ekologik ekspertiza va atrof-muhitga ta’sirni baholashni o‘tkazish tartibini belgilaydi;
- O‘zbekiston Respublikasining 2005-yil 10-yanvardagi № 0183-05-son “O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarida aholi punktlari tuprog‘i sifatiga gigiyenik talablar” SanQvaM;
- O‘zbekiston Respublikasining 2005-yil 5-noyabrdagi № 0191-05-son “Tuproqdagi ekzogen zararli moddalarning yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori konsentratsiyalari (PDK) va taxminiy yo‘l qo‘yiladigan konsentratsiyalari (ODK)” SanQvaM.

7.4.1. Tuproq ifloslanishi manbalarini monitoring qilish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 343-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida muntazam asosda, olti oyda bir marta, yer resurslari holati monitoringi amalga oshiriladi. Ushbu qaror bilan 2021–2025-yillar davriga Ekologik monitoring dasturi tasdiqlangan bo‘lib, uning doirasida tuproq-gruntlar, atmosfera havosi va suv obyektlarining ifloslanish manbalari baholanadi. [1]

Ekologik monitoring dasturining yo‘nalishlaridan biri chiqindilar poligonlari, chiqindi omborlari va ishlab chiqarish obyektlarining sanitariya-muhofaza zonalari joylashgan hududlardagi tuproqni ifloslantiruvchi manbalar holatini baholashdan iborat. Hisobot davrida tuproqni ifloslantirishi mumkin bo‘lgan manbalar joylashgan hududlardan 46 ta tuproq namunasi olinib, ulardagi kimyoviy moddalar miqdori bo‘yicha 110 ta laboratoriya tahlili o‘tkazildi. Mazkur monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish atrof-muhitga ehtimoliy salbiy ta’sirlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularning oldini olish va minimallashtirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish imkonini beradi..

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi mutaxassislari tomonidan Kompaniyaning chiqindi omborlari va maishiy chiqindilar poligonida tuproq-grunt namunalari olish bilan bir qator inspeksion tekshiruvlar o‘tkazildi. Sanoat obyektlarining sanitariya-muhofaza zonalari hududidagi monitoring natijalari SMZ chegarasidagi chiqindi omborlar tuprog‘ining holati tadqiq etilayotgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha

[1] Mazkur hisobot e’lon qilingan paytda (2026-yil iyul) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 25-maydagi 275-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan yangi Davlat ekologik monitoring dasturi tasdiqlangan bo‘lib, u 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan dasturning o‘rnini egalladi. Hisobot yili — 2025-yilda esa 343-son qaror bilan tasdiqlangan dastur amal qilgan.

belgilangan normativlarga muvofiqligini tasdiqladi. Hisobot yilida chiqindi omborlar ta’sir zonasida tuproq ifloslanishining tarqalish holatlari qayd etilmagan, salbiy dinamika aniqlanmagan.

Hisobot davrida Kompaniya tuproq qoplamini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirdi, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sanoat chiqindilariga ishlov berish va ularni utilizatsiya qilishda sanitariya-gigiyena normativlariga rioya qilinishini ta’minlash;
- sanitariya-muhofaza zonalari chegaralarida tuproq ifloslanish darajasi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;
- ishlab chiqarish obyektlari atrofida yashil kamarlar yaratish (QKB 1-GMZ chiqindi omborining sanitariya-muhofaza zonasi doirasida 14 gektar).

Hisobot davrida tuproq qoplamini muhofaza qilish chora-tadbirlariga jami xarajatlar 1,31 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

7.4.2. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish

GRI 304-1, 304-2, 304-3, 304-4, EM-MM-160a.1, EM-MM-160a.3

“NKMK” AJ konchilik faoliyati mahalliy ekotizimlarga uzoq muddatli zarar yetkazmasligini ta’minlashga intilgan holda, yerdan foydalanishning ilg‘or usullarini joriy etishga, yerlarni rekultivatsiya qilishga, turlarning yashash muhitini tiklashga va hududlarni ko‘kalamzorlashtirishga ustuvor e’tibor qaratadi. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish va tiklash chora-tadbirlari Kompaniyaning tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari yillik rejasiga kiritiladi. Kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlari Jahon tabiiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarda, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yoki bioxilma-xillik qiymati yuqori bo‘lgan hududlarda joylashmagan. “NKMK” AJ biologik xilma-xillikka ta’sir ko‘rsatish xavflarini baholaydi. Obyektlarni foydalanishga topshirishdan oldin hududning dastlabki holati hamda loyihaning bioxilma-xillikka ehtimoliy ta’siri baholanadi. Loyihalarda ishlab chiqarish obyektlari hayotiy siklining barcha bosqichlarida salbiy ta’sirni minimallashtirish choralari nazarda tutiladi.

2025-yilda Kompaniya bioxilma-xillik va tabiatdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha siyosatni tasdiqladi. “NKMK” AJning barqaror rivojlanish kun tartibini amalga oshirish doirasida 2025-yilning bahor-yoz davrida “Qizilqum” KB obyektlariga tutash va obyektlarga yaqin joylashgan hudud bioxilma-xilligi bo‘yicha kompleks pilot tadqiqot o‘tkazildi.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- “NKMK” AJ konlari joylashgan hududlarda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (TMXI) Qizil ro‘yxatiga va O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan turlar milliy ro‘yxatiga kiritilgan turlar qayd etilmagan. Mintaqa hayvonot dunyosining tur tarkibi barqarorlik bilan tavsiflanadi, geologiya-qidiruv ishlari davomida o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish bilan bog‘liq ayrim turlarning joylashuv tuzilmasidagi mahalliy o‘zgarishlar cheklangan xususiyatga ega va mintaqadagi turlarning umumiy soniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.
- Flora: naysimon o‘simliklarning 63 turi qayd etildi. Tabiiy jamoalar (dasht va petrofit biotoplar) hududning 15% dan kamini egallaydi va tabiatni muhofaza qilish jihatidan

eng qimmatli hisoblanadi; maydonning taxminan 85% i antropogen o‘zgartirilgan va ruderal jamoalar bilan ifodalangan. Noyob va muhofaza etiladigan o‘simlik turlari aniqlanmadi.

- Umurtqalilar faunasi: faoliyat olib borilayotgan mintaqa faunasi sudralib yuruvchilar, kemiruvchilar va qushlarni o‘z ichiga olgan dasht va cho‘l zonasi uchun tipik turlar bilan ifodalangan. Qushlarning 18 turi (jumladan, O‘zbekiston Qizil kitobidan 4 tur — boyo‘g‘li, oq ko‘zli cho‘mich, lochin va boshqalar), yirik sutemizuvchilarning 6 turi va sudralib yuruvchilarning 4 turi qayd etildi. Hududda suvda hamda quruqlikda yashovchilar mavjud emas. Boyo‘g‘li (Bubo bubo) uya quradigan joy aniqlandi va kuzatuvga olindi.
- Umurtqasizlar: hasharotlarning taxminan 25 turi aniqlandi; guruh umuman yetarli o‘rganilmagan va keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Ishlab chiqarish obyektlarining obyektlardan 200–400 m dan tashqarida tuproq faunasiga sezilarli salbiy ta’siri aniqlanmadi.

Olingan ma’lumotlar uzoq muddatli ekologik monitoring tizimi uchun dastlabki (“nol”) nuqtani shakllantiradi va “NKMK” AJning bioxilma-xillikni saqlash sohasidagi xalqaro standartlarga sodiqligini tasdiqlaydi. Tekshiruv yakunlari bo‘yicha quyidagi sohalarda amaliy chora-tadbirlar ro‘yxati shakllantirildi: buzilgan yerlarni biologik rekultivatsiya qilish, texnogen buzilishlar maydonini minimallashtirish, chiqindilar va YoMM bilan muomala qilishni nazorat qilish, dasht zonasida yong‘inga qarshi chora-tadbirlar, xodimlarni ekologik ma’rifatlash, shuningdek, aniqlangan turlarning muntazam monitoringini tashkil etish.

7.4.3. “Yashil makon” umummilliy loyihasi

O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq “NKMK” AJ daraxt va buta ko‘chatlarini ekish bo‘yicha “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda davom etmoqda. 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan dasturda Kompaniyaning ishlab chiqarish bo‘linmalarida ko‘chat ekish bo‘yicha yillik maqsadli ko‘rsatkichlar, shuningdek, dasturning mintaqaviy amalga oshirilishini munitsipal xizmatlar bilan muvofiqlashtirgan holda qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan. Jumladan, hisobot davri davomida ishlab chiqarish bo‘linmalari doirasida yashil kamarlar yaratishdan tashqari, ijtimoiy ahamiyatga ega ko‘kalamzorlashtirish loyihalari amalga oshirildi:

- Navoiy viloyati Karmana tumani hududida M-37 xalqaro avtomobil yo‘li bo‘ylab 39 gektar;
- Markaziy kon boshqarmasi bilan Tomdi tumanidagi “Sharq” mahallasi hududida 5 gektar.
- 2025-yil yakunlariga ko‘ra, amalda ekilgan ko‘chatlar soni 456,435 ko‘chatni tashkil etdi. Hisobot davri uchun daraxt ko‘chatlarini xarid qilish va ekishga jami xarajatlar 178 ming AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi.

76-jadval. “Yashil makon” dasturi bo‘yicha maqsad va natijalar

Bo‘linmalar	2022	2023	2024	2025
MKB	11,330	124,470	103,831	78,360
ShKB	28,818	75,253	92,135	78,000

Bo‘linmalar	2022	2023	2024	2025
JKB	8,000	17,660	18,586	11,900
QKB	1,610	102,272	119,572	123,100
“NKMK” AJning boshqa bo‘linmalari	47,183	123,336	158,203	165,075
Jami	**96,941**	**442,991**	**492,327**	**456,435**

Ekilgan yashil o‘simliklarga samarali parvarish ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida “yashil belbog‘” uchastkalarida tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etildi. Mazkur tizim suv resurslaridan oqilona foydalanish va o‘simliklarning barqaror o‘sishini ta’minlash imkonini beradi.

Navbahor o‘rmon xo‘jaligi bilan birgalikda Navoiy viloyati Karmana tumani hududida M-37 xalqaro avtomobil yo‘li bo‘ylab joylashgan umumiy maydoni 72 gektar bo‘lgan yer maydonlarida “yashil kamarlar” yaratildi. Kompaniyaning 100 dan ortiq yosh ko‘ngillilar ishtirokida 115 mingdan ortiq manzarali daraxt va buta ko‘chatlari ekildi, jumladan:

- 19.7 ming dona shumtol ko‘chati;
- 4.5 ming dona chinor ko‘chati;
- 17.4 ming dona qarag‘och (oddiy qayrag‘och) ko‘chati;
- 73.3 ming dona namatak ko‘chati.

Ularning to‘laqonli o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash uchun sug‘orish tizimi o‘rnatildi va organik o‘g‘itlar yordamida gruntni tayyorlash tashkil etildi. Sug‘orishni tashkil etish uchun ikkita suv havzasi tayyorlandi, umumiy uzunligi 2 km bo‘lgan sug‘orish ariqlari va kollektor-drenaj tarmog‘i tozalandi. Suv ta’minoti taqchilligini boshdan kechirayotgan yer uchastkalarini sug‘orish uchun ko‘chma sug‘orish agregati tayyorlandi. Barcha chora-tadbirlar kalendar rejaga muvofiq amalga oshiriladi, bajarilgan ishlarni qabul qilish ishchi guruh tomonidan mahalliy organlar bilan birgalikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

7.5. Chiqindilarni boshqarish

GRI 3-3, 306-1, 306-2, 306-3, EM-MM-150a.10, EM-MM-150a.7, EM-MM-150a.4, EM-MM-150a.6

Konchilik sohasi ishlab chiqarish faoliyati jarayonida salmoqli hajmdagi chiqindilar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu chiqindilarni oqilona boshqarishni Kompaniya ishining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi — u atrof-muhitga yuklamani kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta’minlash imkonini beradi.

Kompaniyaning chiqindilar bilan muomala qilish faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan kelishilgan, chiqindilarning hosil bo‘lishi va joylashtirilishi normativlarining (REMChM) tasdiqlangan loyihalari asosida amalga oshiriladi. “NKMK” AJning har bir tarkibiy bo‘linmasi ijobiy xulosa bilan Davlat ekspertizasidan o‘tgan chiqindilarning hosil bo‘lishi va joylashtirilishi limitlarining o‘z loyihasiga ega.

Kompaniyada ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar hosil bo‘ladigan hamda saqlanadigan obyektlarda har oylik nazorat o‘tkaziladi. Barcha bo‘linmalar bo‘yicha chiqindilarning hosil bo‘lishi va joylashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, shuningdek, ushbu jarayonlarni nazorat qilishni markazlashgan holda Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (AMMQ bo‘limi) amalga oshiradi.

Kompaniya chiqindilarni joylashtirish va atrof-muhitga salbiy ta’sir uchun tegishli kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshiradi. 2025-yilda xavfli materiallar bilan bog‘liq insidentlar va chiqindilar bilan muomala qilishda buzilishlar yuz bermadi.

Kompaniya chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga oid faoliyatini yuritishda quyidagi asosiy normativ hujjatlarga amal qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-oktabridagi “Simob saqlovchi lampa va asboblardan foydalanish hamda ularni utilizatsiya qilish bo‘yicha korxonalar faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi 405-sonli qarori.
- O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-apreldagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-son Qonuni.
- O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi sharoitida zaharli sanoat chiqindilarining gigiyenik tasniflagichi” 0128-02-son SanQvaNi.
- O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 12iyuldagi “O‘zbekiston sharoitida qattiq maishiy chiqindilarni maxsus poligonlarda saqlash va zararsizlantirishga sanitariya talablari” 0157-04-son SanQvaNi.
- O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 16-noyabrdagi “O‘zbekiston sharoitida sanoat chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash va utilizatsiya qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va normalari” 0300-11-son SanQvaNi.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Maishiy chiqindilar bilan muomala qilish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 787-son qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan muomala qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son qarori.

Kompaniya ishlab chiqarish chiqindilarining asosiy hajmini ishlatilgan tog‘ massasi va oltin saqlovchi rudani qayta ishlash chiqindilari tashkil etadi. Ular maxsus jihozlangan chiqindi xo‘jaliklari va tog‘ jinsi uyumlarida joylashtiriladi.

Hisobot yilida hosil bo‘lgan chiqindilarning umumiy hajmi 120.8 mln tonnani, jumladan, 16.86 mln tonna xavfsiz va 103.96 mln tonna xavfli chiqindilarni tashkil etdi. Xavfli chiqindilar hajmining 2024-yilga nisbatan 9% ga o‘sishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi (5-GMZ, 6-GMZ, 7-GMZ) va qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan bog‘liq. Xavfsiz chiqindilar tuzilmasida qoplama jinslar ustunlik qiladi — 16.76 mln tonna, xavfli chiqindilarning (103.96 mln tonna) asosini esa gidrometallurgiya zavodlarini qayta ishlashdan hosil bo‘lgan pulpa tashkil etadi.

20-rasm. Hosil bo‘ladigan chiqindilar hajmi, mln tonna.

GRI 306-3



21-rasm. 2025-yilda “NKMK” AJning asosiy bo‘linmalari bo‘yicha xavfli chiqindilar hosil bo‘lishi ulushi, %.



GRI 306-4, 306-5, EM-MM-150a.9, EM-MM-150a.8

“NKMK” AJ bo‘linmalarida chiqindilar turlari bo‘yicha alohida yig‘ish yo‘lga qo‘yilgan (metallolom, plastmassa, ishlatilgan moylar, avtomobil shinalari, makulatura, ishlatilgan akkumulyatorlar). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5-son Farmoni asosida 2024-yildan

boshlab chiqindilarning ayrim turlari utilizatsiya qilish, zararsizlantirish yoki ko‘mib tashlash uchun shartnomalar asosida tashqi tashkilotlarga topshiriladi.

“NKMK” AJ ishlab chiqarish maydonlarida muntazam ekologik nazoratni amalga oshiradi. Bunda, jumladan, Kompaniya nazorati ostidagi obyektlarda chiqindilarni saqlash va joylashtirish jarayonlari, shuningdek, ularni tashqi tashkilotlarga topshirish nazorat qilinadi. Statistik ma’lumotlar Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi tomonidan muntazam ravishda yig‘iladi.

77-jadval. Xavfli va xavfli bo‘lmagan chiqindilar kesimida utilizatsiya qilishga jo‘natilgan chiqindilar hajmi, tonna

Nomi	O‘lchov birligi	2022	2023	2024	2025
Kompaniyada utilizatsiya qilingan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Tonna	20.0	0.0	0	0
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	10.0	0.0	0	0
Utilizatsiya qilish uchun uchinchi shaxs tashkilotlarga o‘tkazilgan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Tonna	241.5	159.7	34.06	51.9
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	10,532.5	17,643.6	9,218.03	13,035.35
Qayta ishlatilgan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Tonna	61.9	33.0	129.67	80.66
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	79,110.3	41,739.7	43,069.41	34,204.54
Jami utilizatsiya qilingan va qayta ishlatilgan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Tonna	323.4	192.7	163,73	132,56
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	89,652.8	59,383.3	52,287.44	47,239.89

78-jadval. Xavfli va xavfli bo‘lmagan chiqindilar kesimida, ko‘mish uchun jo‘natilgan chiqindilar hajmi, ming tonna

Nomi	O‘lchov birligi	2022	2023	2024	2025
Kompaniyada utilizatsiya qilingan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Ming tonna	1.11	0.14	1.1	0.16
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Ming tonna	64.4	108.1	78.32	133.48

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

Utilizatsiya qilish uchun uchinchi shaxs tashkilotlarga o‘tkazilgan chiqindilar					
Xavfli chiqindilar	Ming tonna	0	0	0.096	0
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Ming tonna	1.7	2.7	1.9	3.14

79-jadval. Xavfli va xavfli bo‘lmagan chiqindilar kesimida yoq qilishga jo‘natilgan chiqindilar hajmi, tonna.

GRI 306-5

Nomi	O‘lchov birligi	2022	2023	2024	2025
Chiqindilarni joylashtirish va zararsizlantirish uchun uchinchi tomon tashkilotlariga topshirildi					
Xavfli chiqindilar	Tonna	241.5	56.8	34.057	51.9
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	10,532.5	17,643.6	9,250.028	3,140.46
Kompaniya korxonalarida chiqindilarni joylashtirish					
Xavfli chiqindilar	Tonna	84,990,699.3	88,193,075.3	93,207,367.4	103,960,988.91
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	33,812,612.0	16,687,147.2	17,071,582.7	16,891,136.19
Yo‘qotilgan chiqindilarning umumiy miqdori					
Xavfli chiqindilar	Tonna	84,990,940.8	87,467,930.5	93,207,891.05	103,961,050.80
Xavfli bo‘lmagan chiqindilar	Tonna	33,823,144.6	16,704,790.8	17,309,253.776	16,894,276.65

7.6. Suv resurslarini boshqarish

7.6.1. Boshqaruvga yondashuv

GRI 303-1, 303-2, 303-3, SASB EM-MM-140a.1

Suv resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish "NKMK" AJ va umuman O‘zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Suv Kompaniya uchun strategik ahamiyatga ega resurs bo‘lib, undan oqilona foydalanish Kompaniyaning rivojlanishi va jamoalar farovonligi uchun o‘ta muhim omildir.

"NKMK" AJ uchun suv resurslarini boshqarish, birinchi navbatda, tashqi suv ta’minoti manbalaridan mustaqillikka erishish uchun suvni qayta ishlash (qayta foydalanish)ning samarali texnologiyalarini topish va joriy etishni anglatadi. Shunday qilib, suvdan foydalanish samaradorligini baholashning asosiy parametri bo‘lgan "chuchuk suv — qayta ishlangan suv" nisbati qayta ishlangan suvni tayyorlash uchun eng yaxshi mavjud texnologiyalar (EYMT) asosida hisoblanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarga muvofiq, "NKMK" AJ iste’mol qilinadigan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish ustida ishlamoqda. Kompaniyaning suv resurslarini boshqarishga yondashuvi suvdan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi — suvdan qayta foydalanish hajmlarini oshirish, tabiiy manbalardan chuchuk suv olish hajmlarini qisqartirish, tozalash texnologiyalaridan foydalanish va kamroq suv iste’mol qiladigan ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish, oqova suvlar sifatini laboratoriya nazoratidan o‘tkazish hamda ularni suv chiqarishdan oldin tozalash.

Suvni tejash siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida 2024-yil 9-iyuldagi 343-son korporativ buyruq bilan "NKMK" AJda 2024–2030-yillarda suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish dasturi tasdiqlandi. Dastur Kompaniyaning suv xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Dastur 80 ta chora-tadbirni o‘z ichiga oladi. Ularni 2024–2030-yillarda amalga oshirish natijasida 36 000 mln litr (36 mln m³) suvni tejash, ya’ni 13 900,24 ming AQSh dollari (175 897 mln so‘m) miqdorida mablag‘ni tejash imkonini beradi.

Dasturning asosiy maqsadi — 2030-yilga borib rudaning bir tonnasini qayta ishlashga chuchuk suv sarfining o‘rtacha solishtirma normalarini 0.8 m³/tonnagacha kamaytirish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarida qayta foydalanilgan suv resurslari ulushini 35% gacha oshirishdir.

Suvdan foydalanish va suvni muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy baza:

- O‘zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi (30.07.2025-y. №O‘RQ-1076-son, 31.10.2025-y. dan kuchga kirdi) — ilgari amal qilgan O‘zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida"gi Qonuni (1993-y.) o‘rniga keldi;
- Maxsus suvdan foydalanishga ruxsatnomalar berish, oqava suvlar bilan suv obyektlariga va joy relyefiga tushadigan moddalarning ruxsat etilgan eng ko‘p oqizishlari (REMO) loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

- Qo‘shimcha tozalangan shahar oqava suvlaridan sanoat suv ta’minotida foydalanishning sanitariya qoidalari;
- O‘zbekiston Respublikasida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan ekologik monitoring davlat dasturi (Prezidentning 30.01.2025-y. № PF-16-son Farmoni ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining 25.05.2026-y. № 275-son qarori bilan tasdiqlangan).

WRI Aqueduct Water Risk Atlas suv riskini baholash metodologiyasiga muvofiq, “NKMK” AJning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari joylashgan (Navoiy, Samarqand, Jizzax va Xorazm viloyatlari) Zarafshon va Amudaryo daryolari havzalari “yuqori” va “nihoyatda yuqori” bazaviy suv stressi (Baseline Water Stress) toifasiga kiradi.

2023–2024-yillar bilan taqqoslaganda hisobot davri davomida Kompaniyaning faoliyat yuritilayotgan hududlardagi suv resurslariga ta’siri xususiyatida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmagan: suv olish va oqizish hajmlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat ekologik ekspertizasi bilan kelishilgan belgilangan limitlar doirasida saqlanmoqda, Kompaniyaning suv iste’molida ham sezilarli o‘sish bo‘lmagan.

Water Conflict Chronology (Pacific Institute) ma’lumotlar bazasi va Water, Peace and Security (WPS) erta ogohlantirish vositasiga muvofiq, “NKMK” AJ faoliyat yuritayotgan va ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirayotgan hududlar suv resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq qayd etilgan yoki prognoz qilinayotgan nizolar mavjud hududlar qatoriga kiritilmagan.

7.6.2. Suv ta’minoti

GRI 303-3, 303-5, EM-MM-140a.1

“NKMK” AJ bo‘linmalarining maxsus suvdan foydalanishi va suv iste’moli O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotlar yakunlari bo‘yicha zaxiralar hajmi, kimyoviy xossalari, oqim va suv havzasining boshqa parametrlari ko‘rsatilgan gidrogeologik xulosalar beriladi. Suv olish obyektlarini loyihalash va qurish O‘zbekiston Respublikasining milliy talablariga (QMQ) muvofiq amalga oshiriladi. Kompaniya hududida suv resurslari va suv oqimlarini tadqiq qilish ishlarini “O‘zbekgidrogeologiya” DUK Kompaniya buyurtmasi bo‘yicha shartnoma asosida olib boradi.

“NKMK” AJ obyektlarining faoliyat yuritilayotgan hududlardagi suv ta’minoti asosan yer usti manbalaridan – Amudaryo va Zarafshon daryolari, Tusunsoy suv omboridan, shuningdek, yer osti manbalaridan – Qoraqota, Beshbuloq, Sangzor va Boytup konlaridan amalga oshiriladi.

Navoiy shahrida joylashgan ishlab chiqarish obyektlarining (“Qizilqum” kon boshqarmasi, “NMZ” IChB va boshqalar) suv ta’minoti tashkiloti – “Navoiy suv ta’minoti” AJ tomonidan shartnoma bo‘yicha amalga oshiriladi. Navoiy shahrida suv ta’minoti (suv olish) Zarafshon daryosidan amalga oshiriladi.

Zarafshon-Uchquduq mintaqasidagi aholi punktlari, “NKMK” AJning ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlari, Zarafshon va Uchquduq shaharlarining ichimlik va texnik suv ta’minoti manbadan 310 km dan ortiq masofada joylashgan Amudaryodan, cho‘l bo‘ylab yotqizilgan “Amudaryo-Zarafshon” va “Zarafshon-Uchquduq” suv quvurlari yordamida ta’minlanadi. Ushbu suv quvuri nafaqat texnologik va ishlab chiqarish maqsadlari uchun, balki Zarafshon

shahri mahalliy aholisini suv bilan ta’minlash uchun ham zarur bo‘lib, bu suv resurslarini oqilona iste’mol qilishni Kompaniyaning ustuvor vazifasiga aylantiradi.

“NKMK” AJning 2025-yildagi umumiy suv olish hajmi 141,705 Ml ni tashkil etdi. So‘nggi yillarda suv iste’molining o‘sishi asosan ishlab chiqarish hajmining oshishi va Kompaniya ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi bilan bog‘liq. Hisobot davri uchun suv resurslaridan foydalanish intensivligi rudaning 0.86 m³/t ni tashkil etdi.

80-jadval. Suv olishning umumiy hajmi, Megalitr (ML)

GRI 303-3

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Suv olish hajmi	122,550	124,031	129,107	141,705

81-jadval. Manbalar bo‘yicha suv olishning umumiy hajmi, Ml

GRI 303-3

Manbalar nomi	2022	2023	2024	2025
Yer usti	97,862	95,499	92,090	94,155
Yer osti	8,075	12,377	14,183	16,080
Shaxta, kon, chiqindilar ombori	12,121	12,632	19,473	27,422
Uchinchi tomon yetkazib beruvchilardan	4,492	3,523	3,361	4,048
Jami	**122,550**	**124,031**	**129,107**	**141,705**

Kompaniya tabiiy yer usti suv obyektlariga tushadigan solishtirma yuklamani kamaytirishga intiladi. Ishlab chiqarishning umumiy o‘sishiga qaramay, Kompaniya yer usti manbalari — Zarafshon va Amudaryo daryolaridan suv olish hajmini izchil kamaytirmoqda (so‘nggi 4 yilda ko‘rsatkich 97 862 Ml dan 94 155 Ml gacha, ya’ni 3,8 foizga kamaydi), shuningdek, yuqori minerallashgan yer osti manbalaridan suv olish ulushini oshirmoqda (so‘nggi 4 yilda ko‘rsatkich 99 foizga oshdi).

Suv resurslarini tejash va ulardan qayta foydalanish

Suv resurslaridan oqilona foydalanish yangi texnologiyalarni qo‘llash, jumladan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, suv resurslarini tejash va ulardan qayta foydalanish, ilmiy yutuqlar hamda Kompaniya xodimlarining tajribasidan foydalanish orqali ta’minlanadi. “NKMK” AJda suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish dasturiga muvofiq, hisobot davrida jami 7,565 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflangan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Suv resurslarini tejash sohasida doimiy asosda quyidagi chora-tadbirlar bajariladi:

- Texnologik jarayonlarda suvdan qayta va ko‘p marta foydalanish;
- Aylanma suv ta’minotidan foydalanish;
- Shaxta va karyer suvlaridan foydalanish;
- Zavodlar va kon boshqarmalari hududidagi o‘simliklarni sug‘orish uchun tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish;
- Yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida texnologik uskunalarning ishlashini optimallashtirish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish.

82-jadval. “NKMK” AJ bo‘yicha suv tejamkorligi (Ml) va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni tejash chora-tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari

Yil	O‘lchov birligi	Xarajatlar va olingan chuchuk suv tejamkorligi
2023	Tejamkorlik, Ml	1,938
	Xarajatlar, ming AQSh dollari	689
2024	Tejamkorlik, Ml	6,929
	Xarajatlar, ming AQSh dollari	3,178
2025	Tejamkorlik, Ml	14,622
	Xarajatlar, ming AQSh dollari	7,565

Qisqartirish dasturiga muvofiq quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Zarmitan konining Bosh va 3-shaxtalaridan shaxta suvlaridan 4-GMZ texnologik ehtiyojlariga foydalanish hajmini oshirish;
- Kombinat gidrometallurgiya zavodlarining chiqindi saqlagichlaridan suv qaytarish miqdorini oshirish hisobiga chuchuk suvdan foydalanish hajmlarini kamaytirish;
- UISZ konining ruda shtabeli yaruslarini kamaytirish orqali texnik suvga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirish.
- 2025-yilda Kompaniya Beshbuloq manbasidan suv resurslarini olish miqdorini oshirdi, bu yer usti manbalaridan (Amudaryo) chuchuk suv olishni qisqartirish, shuningdek, bir kubometr suvni haydashga energiya sig‘imini kamaytirish imkonini berdi.

"NKMK" AJda suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish dasturida suv resurslaridan qayta va ko'p marta foydalanish ulushini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil joriy etish nazarda tutilgan. "NKMK" AJ shaxta va karyer suvlari, shuningdek, chiqindi saqlash omborlarida hosil bo'ladigan suvdan, ya'ni ishlab chiqarish sikli jarayonida hosil bo'ladigan suvdan foydalanish hajmini bir necha barobar oshirish ustida ishlamoqda. Shuningdek, Kompaniya Uchquduq va Zarafshon shaharlarining kommunal oqova suvlarni tozalash inshootlaridan (OTI) olinadigan tozalangan oqova suvlardan foydalanadi. Ushbu resurslar Kompaniya bo'linmalarining texnologik ehtiyojlariga, shuningdek, tutash hududlardagi ko'kalamzorlarni sug'orishga yo'naltirish uchun tegishli tozalash va suv tayyorlash bosqichlaridan o'tkaziladi.

So'nggi 4 yilda Kompaniya ushbu ko'rsatkichning sezilarli oshishiga erishdi. "NKMK" AJ umumiy suv iste'moli hajmida qayta foydalaniladigan suv resurslari ulushi 2022-yildagi 16% dan 2025-yildagi 26% gacha o'sdi, bu Kompaniyaning 2024–2030-yillarga mo'ljallangan suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish dasturi bilan belgilangan 35% maqsadli ko'rsatkich sari izchil harakatini aks ettiradi. Mutlaq ifodada qayta foydalaniladigan suv hajmi 2022-yildagi 20,494 Ml dan 2025-yildagi 37,253 Ml gacha — deyarli 1.8 barobar oshdi.

Qayta foydalanish hajmining asosiy qismini chiqindi saqlash omborlaridagi aylanma suv (18 013 Ml, qayta foydalanish umumiy hajmining 48 foizi) hamda yuqori minerallashgan yer osti suvlari (9 692 Ml, 26 foiz) tashkil etadi.

2025-yil uchun bo'linmalar kesimidagi dinamika aylanma suvdan foydalanishni joriy etish imkoniyatlarining sezilarli darajada notekis ekanini ko'rsatadi. Kompaniya bo'yicha qayta foydalanishning umumiy ulushi 26 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayrim bo'linmalarda bu ko'rsatkich maqsadli darajadan sezilarli darajada yuqori: Janubiy kon boshqarmasi (JKB) — 56 foiz, Shimoliy kon boshqarmasi (ShKB) — 48 foiz. Kompaniyada suvning eng yirik iste'molchisi bo'lgan Markaziy kon boshqarmasida (MKB) (umumiy suv olish hajmining 62,8 foizi) qayta foydalanish ulushi 15 foizni tashkil etadi.

Mintaqalarning iqlim xususiyatlari va obyektlarning geografik joylashuvini hisobga olgan holda, resurslardan qayta foydalanish ulushini oshirish chora-tadbirlari operatsion samaradorlikni maksimallashtirish va iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

83-jadval. 2025-yilda chuchuk va texnik suv olish hajmi, Megalitr (ML)

GRI 303-3

Bo‘linmalar	Chuchuk suv	Texnik suv	Jami suv olish hajmi
MKB	3,318	85,624	88,941
ShKB	4,475	28,001	32,476
JKB	894	6,271	7,165
QKB	376	11,479	11,855
“NMZ” IChB	278	698	975
Boshqa bo‘linmalar	146	147	293
Jami	**9,487**	**132,218**	**141,705**

84-jadval. 2025-yil uchun bo‘linmalar kesimida turlari bo‘yicha qayta foydalanilgan suv resurslari hajmi va suv iste’moliga nisbatan qayta foydalanish ulushi, Megalitr (ML)

Bo‘linmalar	2025-yil						
	Chiqindi saqlash joylaridan qayta ishlangan suv	Shaxta va karyer suvlari	Kanalizatsiya tozalash inshootlaridan olingan suvdan qayta foydalanish	Yuqori minerallashgan yer osti suvlari	Kompaniya obyektlaridagi OTI	Jami	Qayta foydalanish ulushi
MKB	12,057	1,379	0	40	0	13,477	**15%**
ShKB	1,349	0	4,325	9,652	143	15,469	**48%**
JKB	1,874	2,044	0	0	74	3,992	**56%**
QKB	2,733	1,534	0	0	48	4,315	**36%**
Kompaniya bo‘yicha jami	**18,013**	**4,958**	**4,325**	**9,692**	**265**	**37,253**	**26%**

85-jadval. Suv resurslaridan qayta foydalanish dinamikasi, Megalitr (ML)

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Umumiy suv iste’moli	122,550	124,031	129,107	141,705
Qayta foydalaniladigan suv resurslari	20,494	28,554	29,901	37,253
Kompaniya bo‘yicha umumiy suv iste’moliga nisbatan qayta foydalaniladigan suv resurslari, %	16%	23%	23%	26%

22-rasm. Umumiy suv iste’moliga nisbatan suv resurslaridan qayta foydalanish dinamikasi va qayta ishlangan rudaning tonnasiga chuchuk suv iste’moli sarfi dinamikasi, 2022 – 2025-yillar





“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

7.6.3. Oqova suvni oqizish

GRI 303-4

Har bir ishlab chiqarish obyekti uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat ekologik ekspertizasi tomonidan yo‘l qo‘yiladigan tashlamalarning (PDS) eng yuqori me’yorlari loyihalari kelishilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, PDS me’yorlari har uch yilda bir marta yangilanadi.

Oqova suvlar tarkibidagi ustuvor potensial xavfli moddalar ro‘yxatiga muallaq moddalar, nitrat azoti, nitrit azoti, ammoniy azoti, sulfatlar, xloridlar, fosfatlar, neft mahsulotlari, umumiy temir va biokimyoviy kislorodga bo‘lgan talab (BKT-1) kiradi.

Ishlab chiqarish oqava suvlaridan namuna olish va tahlil qilish mahalliy tozalash inshootlarining kirish va chiqish qismida, shuningdek, chiqarishdan bevosita oldin nazorat quduqlarida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, nazorat jarayonini amalga oshirish uchun nazorat quduqlarida va ishlab chiqarish kanalizatsiyasi tarmog‘ining eng sezgir nuqtalarida oqizilayotgan ishlab chiqarish oqava suvlari hajmi o‘lchanadi.

Kompaniya yer usti yoki yer osti suvlariga oqova suvlarni chiqarmaydi. Ishlab chiqarish oqova suvlari chiqindi saqlash omborlariga, tozalangan maishiy oqova suvlar esa biohovuzlarga chiqariladi. Shu bilan birga, tozalangan maishiy oqova suvlar Kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlarida qayta foydalaniladi hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarida foydalaniladi.

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshiradi. Hisobot yilida me’yoridan ortiq oqizishlar uchun amalga oshirilgan to‘lovlar PDSning yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori me’yorlaridan oshib ketish, shuningdek, tozalangan xo‘jalik-maishiy oqova suvlarning qo‘shimcha filtratsiyaga qarshi himoyasiz biologik hovuzlarga (relyefga) oqizilishi bilan bog‘liq.

86-jadval. Kompaniya tomonidan tozalash inshootlariga chiqindilarning umumiy hajmi, Megalitr (ML)

GRI 303-4

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Jami suv to‘kish hajmi	4,424	2,809.53	4,189.45

2024-yilda oqava suvlar oqizish hajmi 2,809.5 Ml ni tashkil etadi, bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan 1,614.5 Ml past. Ushbu kamayish o‘tgan yilgi darajaga nisbatan -36.5% ga teng.

87-jadval. 2025-yilda tozalangan va qayta foydalanilgan oqava suv hajmi, Megalitr (ML)

Hisobot davri	Oqizilgan oqavalar	Tozalangan va qayta foydalanilgan oqavalar
2023	3,783.7	3,492.0
2024	39.88	2,549.77
2025	731.26	3,458.19

7.6.4. Suv resurslari ifloslanishini monitoring qilish va oldini olish

GRI 2-27, 303-4, EM-MM-140a.2.

"NKMK" AJ xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish bo‘yicha ekologik normativlarga rioya etilishi ustidan ekologik nazoratni amalga oshiradi. Kompaniya ifloslangan oqava suvlarning suv resurslariga oqishini oldini olish va o‘z vaqtida aniqlash ustida ish olib bormoqda. Suvni tozalash biologik va fizik-kimyoviy usul bilan amalga oshiriladi.

Kompaniya tahliliy nazorat jadvaliga muvofiq oqova suv namunalarini olish orqali suv resurslarining ifloslanish manbalarini monitoring qiladi. Shuningdek, yer osti suvlarining ifloslanishi chiqindi omborlari perimetri bo‘ylab kuzatuv quduqlaridan namunalar olish yo‘li bilan ham monitoring qilinadi. Kompaniya ifloslanish monitoringini amalga oshiradi va ishlab chiqarish faoliyati ta’sir zonalaridagi kuzatuv zonalarida yer usti hamda yer osti suvlarining radiologik nazoratini o‘tkazadi.

Hisobot davri davomida "NKMK" AJning tarkibiy bo‘linmalarida 12 ta oqova suv manbalari tahlil qilinib, 447 ta suv namunalari olinib, 6,434 ta kimyoviy tahlildan o‘tkazildi. Bundan tashqari, chiqindi ombori hududidagi monitoring quduqlaridan 3,289 ta suv namunasi olindi va 12,505 ta kimyoviy tahlil o‘tkazildi.

Hisobot davri davomida “NKMK” AJ sanoat obyektlari ta’sir zonasidagi aholi punktlarida yer usti va yer osti suvlari, shuningdek, suv ta’minoti manbalari monitoringi natijalari bo‘yicha ifloslanishlar aniqlanmadi.

7.7. Chiqindilar va chiqindi omborlarini boshqarish

EM-MM-540a.1, EM-MM-540a.2, EM-MM-540a.3, EM-MM-150a.5

Chiqindilar (xvostlar) qimmatbaho metallar ajratib olingandan so‘ng ruda qayta ishlanishi natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar bo‘lib, mayda dispersli mineral zarrachalar, qoldiq reagentlar va suvdan iborat. Chiqindilar pulpa ko‘rinishida maxsus loyihalashtirilgan gidrotexnika inshootlariga — chiqindi saqlash omborlariga tashiladi. Ularni xavfsiz saqlashni ta’minlash, inshootlarning barqarorligini saqlash hamda atrof-muhit va aholi salomatligiga ta’sirini minimallashtirish “NKMK” AJ uchun obyektlarning hayotiy siklining barcha bosqichlarida ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Chiqindi omborlari qimmatbaho metallarni ajratish uchun ma’danni qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladi. Ular mayda mineral zarralar, reagent qoldiqlari va suv aralashmasidir. Ushbu chiqindilar suzpenziya sifatida chiqindi omborlari deb nomlangan maxsus mo‘ljallangan inshootlarga yetkaziladi. Ularni xavfsiz saqlash va atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish "NKMK" AJ uchun ustuvor vazifalardir.

Chiqindi saqlash omborlarini boshqarishning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi:

- O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-avgustdagi O‘RQ-865-son “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni;
- Konchilik va noruda korxonalarining chiqindi hamda shlam xo‘jaliklarini ekspluatatsiya qilishda ishlarni bajarish xavfsizligi qoidalari;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP), “Mas’uliyatli investitsiya tamoyillari” tashabbusi va Xalqaro konchilik va metallar kengashi (ICMM) tomonidan ishlab chiqilgan Chiqindi saqlash omborlarini boshqarish bo‘yicha global sanoat standarti (GISTM, 2020-yil 5-avgustdagi versiya);

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qiladi va chiqindi omborlarini boshqarishning ilg‘or xalqaro amaliyotlarini izchil joriy etadi. GISTM tamoyillarini joriy etish doirasida hisobot davrida tashkiliy va metodologik chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirildi:

- “NKMK” AJning chiqindi omborlarini boshqarish korporativ Standarti tasdiqlandi (“NKMK” AJning 16.11.2025-y. № 845-son buyrug‘i, 10.11.2025-y. dan amalga kiritilgan). Standart chiqindi omborlarining butun hayotiy siklini (loyihalash, qurish, ekspluatatsiya, konservatsiya va tugatish) qamrab oladi, 1 va 2-xavflilik sinfidagi gidrotexnika inshootlariga ega obyektlar uchun majburiy hamda GISTM/ICMMning barcha 15 ta tamoyiliga muvofiqlashtirilgan (muvofiqlik jadvali Standartga ilovada keltirilgan).
- 2025-yil aprel oyida 100 nafar profil mutaxassisi uchun GISTM tamoyillari asosida chiqindi saqlagichlarni boshqarish masalalari bo‘yicha axborot-o‘quv seminari o‘tkazildi.
- Kompaniya darajasida chiqindi omborlarning xavfsiz ekspluatatsiyasini ta’minlash bo‘yicha fanlararo komissiya tuzilgan bo‘lib, u yiliga 2 marta tekshiruv o‘tkazadi. Komissiya tarkibiga Chiqindi omborlarni boshqarish xizmati vakillari, ekologlar, FV, sanoat xavfsizligi, MLB mutaxassislari, shuningdek, “NKMK” AJ bo‘linmalarining bosh muhandislari kiradi. Komissiya raisi “NKMK” AJning texnologiya bo‘yicha direktori hisoblanadi.
- “NKMK” AJ boshqaruv apparati Texnologiya departamenti tarkibida chiqindi omborlarning xavfsiz ekspluatatsiyasi masalalarini muvofiqlashtirish va metodologik qo‘llab-quvvatlash yuklatilgan. Chiqindi omborlarini boshqarish xizmati (xizmat boshlig‘i va yetakchi muhandis-texnolog) tashkil etildi.

Chiqindi omborlarni boshqarish uchun mas’uliyat integratsiyalashgan xususiyatga ega va boshqaruvning barcha darajalari bo‘yicha taqsimlangan. Kompaniya darajasida qaror qabul qilish uchun mas’uliyat “NKMK” AJ bosh muhandisiga yuklatilgan. Ishlab chiqarish bo‘linmalarida ushbu vazifani kon boshqarmalarining bosh muhandislari va GMZ bosh muhandislari amalga oshiradi.

Chiqindi omborlarini loyihalash, qurish va boshqarish davlat qonunchilik talablariga muvofiq olib boriladi. Chiqindi omborlarini qurish va kengaytirishda "NKMK" AJdan mustaqil ekspert tashkiloti hisoblangan chiqindi omborlar loyihachisi tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazorati o'tkaziladi. Kompaniya ekologik yuklama darajasini kamaytirish va obyektning xavfsiz ekspluatatsiyasini ta'minlash uchun bir necha muqobilni tahlil qilgan holda chiqindi saqlagichlarni joylashtirish maydonchalarini tanlashga mas'uliyat bilan yondashadi. Asosan, saqlash quvvatlarini kengaytirish mavjud chiqindi saqlagichlarga yaqin joyda (yangi saqlash kartalarini qurish) yoki foydalanilayotgan kartalar dambalarini 1,5-3 metr doirasida oshirish orqali amalga oshiriladi.

Har bir chiqindi ombori bo'yicha avariyalarni tugatish rejalari ishlab chiqilgan va ular har yili yangilanadi. Avariya vaziyatlarini tugatish bo'yicha mashqlar "NKMK" AJning FV va ishlab chiqarish nazorati bo'limlari tomonidan nazorat qilinadigan jadvalga muvofiq o'tkaziladi. Kompaniya ish tarixida chiqindi omborlarining yaxlitligi yoki barqarorligi buzilishi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar qayd etilmagan.

Foydalanishga topshirilgandan keyin Kompaniya chiqindi omborlar holatining choraklik monitoringini amalga oshiradi. Monitoring ishlarini nazorat muhandisi vazifasini bajaruvchi, shuningdek, aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar to'g'risida hisobot tayyorlovchi ixtisoslashtirilgan ekspert tashkiloti olib boradi. Monitoringning maqsadi quyidagilardan iborat:

- Chiqindi omborlarining avariyasiz va ekologik xavfsiz ekspluatatsiyasini ta'minlash;
- Geotexnik, texnologik va ekologik parametrlarning ularning loyihaviy qiymatlariga muvofiqligini nazorat qilish;
- Chiqindilarni saqlash parametrlarini nazorat qilish;
- Chiqindi omborining foydali sig'imlaridan samarali foydalanish maqsadida chiqindilarni yotqizish.

Ko'rib chiqish zarur hollarda mas'ul shaxslar va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilagan holda amalga oshiriladi. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish uchun parametrlarning qo'shimcha baholanishi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Geodezik tadqiqotlar;
- Pulpaning chiqindi yotqiziqlarini geotexnik tadqiq qilish;
- Texnologik tadqiqotlar;
- Ekologik tadqiqotlar va suv obyektlari ifloslanishi monitoringi.

Monitoring natijalari kon boshqarmalari va GMZlarda tayinlangan rahbarlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Tizimli qarorlar qabul qilish zarur bo'lganda masalalar "NKMK" AJ ilmiy-texnik kengashining kollegial ko'rib chiqishiga olib chiqiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat qilishning tizimi doirasida Kompaniya chiqindi omborlar barqarorligi monitoringini o'tkazadi, uning natijalari bo'yicha barqarorlikni oshirish va ta'mirlash-tiklash ishlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

"NKMK" AJ chiqindi omborlarda va tutash hududlarda ekologik monitoring o'tkazadi. Barcha dambalar monitoring quduqlari tizimi bilan jihozlangan. Yer usti suvlaridan namuna olish har chorakda, chiqindi omborlarda va sanitariya-muhofaza zonasida atmosfera havosidan namuna olish — har oyda, kuzatuv quduqlari bo'yicha yer osti suvlari sifati monitoringi — har chorakda o'tkaziladi. Dambalarga gidrologik yuklamani kamaytirish uchun hovuzchalarni kartalar markaziga yaqinroq joylashtirish nazorat qilinadi, plyajlarni namlab yotqizish esa qat'iy jadval bo'yicha olib boriladi.

Qo‘shimcha chora-tadbirlar Navoiy shahri va Zarafshon daryosi doirasidagi kuzatuv zonalarida o‘tkaziladi. 2024-yilda obyektlar atrofidagi shamol gullarini hisobga olgan holda chiqindi omborlar hududidan potensial changlanishni kamaytirish uchun sanitariya-muhofaza zonasi chegaralarida yashil kamarlar yaratish loyihasi boshlandi.

Hisobot davri davomida “NKMK” AJ 10 ta chiqindi omborida ega bo‘lib, ulardan 8 tasi faol ekspluatatsiyada va 2 tasi konservatsiya qilingan. 2024–2025-yillarda Kompaniya chiqindilarni saqlash quvvatlarini oshirish bo‘yicha ishlarni olib bordi.

2025-yil davomida taklif etilgan xalqaro ekspertlar bilan birgalikda obyektlarga chiqib bir qator ishchi kengashlar o‘tkazildi, ular yakunlari bo‘yicha boshqaruv sifatini oshirish, dambalar barqarorligi monitoringi va ekologik monitoringning ilg‘or usullarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Kompaniya dambalar barqarorligi risklarini baholash va ularning bo‘lishi mumkin bo‘lgan buzilishi oqibatlarini tasniflash bo‘yicha muhandislik-geologik tadqiqotlarni rejalashtirdi.

2025-yil hisobot davri uchun hosil bo‘lgan chiqindilar hajmi 103,9 mln tonnani tashkil etdi.

88-jadval. Bo‘linmalar kesimida chiqindi (xvost) hosil bo‘lishi hajmlari, mln tonna

Bo‘linmalar	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
MKB	71.96	72.6	74.4	77.4
ShKB	8.65	8.7	8.62	16.0
QKB	1.94	4	7.07	7.5
JKB	2.9	2.9	2.88	3.0
Jami	**85.5**	**88.2**	**93.0**	**103.9**

Shimoliy KBning boyitish chiqindilari (chiqindi xvostlari) hosil bo‘lishi hajmi ko‘rsatkichining o‘sish dinamikasi 5-GMZ ning (5 mln tonna) ShKB ma’muriy bo‘ysunishiga (MKBdan) o‘tkazilishi, shuningdek, MMS 7,0×2,3 rusumidagi tegirmon qurilishi tufayli 2025-yilda 3-GMZ qayta ishlash quvvatlarining yiliga 8 mln dan 10 mln tonnagacha oshishi bilan bog‘liq. MKB dinamikasining saqlanishi MShTs 7,5x5,5 m rusumidagi tegirmon (4 dona) qurilishi tufayli 7-GMZ unumdorligining oshishi, shuningdek, 2-GMZ unumdorligining oshishi bilan izohlanadi.

23-rasm. "NKMK" AJ chiqindi saqlagichlarini boshqarish doirasidagi tuzilma va rollar.



Sxemada uzluksiz chiziq ma'muriy bo'ysunishni bildiradi.
Sxemada punktir chiziq funksional bo'ysunishni bildiradi.

"NKMK" AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

89-jadval. "NKMK" AJdagi chiqindi omborlari to'g'risida ma'lumot

Nomi	O'lchov birliklari	2022	2023	2024	2025
Amaldagi chiqindi omborlari soni	dona	7	8	8	8
Amaldagi chiqindi omborlari maydoni	km2	76.4	77.8	80.9	98.41
Nofaol chiqindi omborlari soni	dona	2	2	2	2
Nofaol chiqindi omborlari maydoni	km2	1.7	1.7	1.7	1.7
Hisobot davri uchun chiqindi (xvost) hosil bo'lishi hajmi	mln tonna	**85.5**	**88.2**	**93.0**	**103.9**

90-jadval. Chiqindi omborlar inventarizatsiyasi va saqlanayotgan chiqindilar hajmi, ming tonna.

T/r	Obyektlar nomi	Obyektlarning joylashuvi	Maksimal sig'im, mln tonna	Saqlanayotgan chiqindilarning joriy miqdori, mln tonna	Saqlash quvvatlarining loyihaviy oshishi, mln tonna
Amaldagi (8 ta obyekt)					
1.	1-GMZ chiqindi ombori	Navoiy sh. dan 4 km, Navoiy viloyati	103.472	97.538	**Usul: 8-karta dambasini oshirish Loyihaviy oshish: 12.12 mln tonna**
2.	2-GMZning 1-chiqindilar ombori	Zarafshon sh. dan 28 km, Navoiy viloyati	1,575.000	1,522.934	**Usul: 3-4, 5-6, 7-kartalar dambasini oshirish Loyihaviy oshish: 72.8 mln tonna**
3.	2-GMZning 2-chiqindilar ombori	Zarafshon sh. dan 50 km, Navoiy viloyati			**Usul: 1-2-kartalar dambasini oshirish Loyihaviy oshish: 184 mln tonna**

T/r	Obyektlar nomi	Obyektlarning joylashuvi	Maksimal sig‘im, mln tonna	Saqlanayotgan chiqindilarning joriy miqdori, mln tonna	Saqlash quvvatlarining loyihaviy oshishi, mln tonna
4.	3-GMZ chiqindi ombori	Uchquduq sh. dan 20 km, Navoiy viloyati	185.189	178.385	**Usul: yangi 3-kartani qurish Loyihaviy oshish: 34.000 mln tonna**
5.	4-GMZ chiqindi ombori	Zarkent sh. chasidan 5 km, Samarqand sh. dan 70 km, Samarqand viloyati	31.816	30.414	**Usul: yangi 3-kartani qurish Loyihaviy oshish: 6.0 mln tonna**
6.	5-GMZ chiqindi ombori	Dovgiztov sh. chasidan 10 km, Zarafshon sh. dan 37 km, Navoiy viloyati	30.400	21.262	**Usul: yangi 3-kartani qurish Loyihaviy oshish: 35.75 mln tonna**
7.	6-GMZ chiqindi ombori	Ulus q. dan 7.5 km, Navoiy viloyati	14.334	12.515	**Usul: yangi 2-kartani qurish Loyihaviy oshish: 26 mln tonna**
8.	Marjonbuloq oltin qazib olish sexining 2-chiqindilar ombori	Marjonbuloq sh. chasidan 5 km, Jizzax viloyati	23.279	21.374	-
Saqlashga qo‘yilgan (2 ta obyekt)					
9.	Oltin ajratib olish sexi chiqindi ombori	Zarafshon sh. dan 35 km, Navoiy viloyati	15.000	11.9	-
10.	Marjonbuloq oltin qazib olish sexining 1-chiqindilar ombori	Marjonbuloq sh. chasidan 5 km, Jizzax viloyati	20.000	19.94	-
	Jami		**1998.490**	**1916.263**	

8. MAHALLIY AHOLI BILAN HAMKORLIK VA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH

Muhim mavzular
• Faoliyat ta’sir qiladigan mahalliy aholi; • Adolatli mehnat sharoitlari, xilma-xillik va inklyuzivlik; • Mehnat munosabatlari, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish; • Mayda qazib oluvchilar bilan hamkorlik.
Asosiy ko‘rsatkichlar
• Homiylik yordami va xayriya uchun **98 mln AQSh dollari** yo‘naltirildi; • 2025-yilda **2,628 ta** yangi ish o‘rni yaratildi; • Jismoniy va yuridik shaxslarning **3,108 ta murojaati** ko‘rib chiqildi va ular bo‘yicha qarorlar qabul qilindi; • Kompaniya yuqori rahbariyati vakillari tomonidan fuqarolarning **477 ta** shaxsiy qabuli o‘tkazildi; • Hisobot davrida hududlarni rivojlantirish dasturlari bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishning jami hajmi **618.7 ming AQSh dollarini** tashkil etdi; • Faoliyat yuritilayotgan hududlar aholisini ish bilan ta’minlash **95 %** dan ortiqni tashkil etadi; • Ijtimoiy himoyaga muhtoj **11,133 nafar bola** uchun “NKMK Jamg‘armasi” DM ning 11 ta yozgi sog‘lomlashtirish lagerida dam olish tashkil etildi.
BMT BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

GRI, SASB ko‘rsatkichlari
GRI 3-3, 407-1, GRI 203-2, 411-1, 413-1, 413-2, GRI 203-1, 413-1, 413-2 SASB EM-MM-210b.1

8.1. Mahalliy aholi bilan hamkorlik va hududlarni rivojlantirish

GRI 3-3, EM-MM-210b.1

“NKMK” AJ faoliyat yuritayotgan hududlardagi mahalliy hamjamiyatlarni hurmat qiladi hamda mamlakatning ijtimoiy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishga intilgan holda ushbu hududlarda va ulardan tashqarida har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatadi. 2025-yil noyabr oyida “NKMK” AJ Kompaniyaning ijtimoiy mas’uliyatining yagona normativ asosini shakllantiruvchi ikkita asosiy ichki hujjatni — Inson huquqlari bo‘yicha siyosat va Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish siyosatini tasdiqladi. Mazkur hujjatlar Kompaniyaning xodimlar, biznes hamkorlar, mahalliy hamjamiyatlar va boshqa manfaatdor tomonlar

oldidagi majburiyatlarini belgilab, faoliyatning barcha bosqichlarida inson huquqlarini himoya qilishga tizimli yondashuvni joriy etishni ta’minlaydi.

“NKMK” AJ faoliyat yuritilayotgan hududlarda mahalliy jamoalar bilan hamkorlikni quyidagi asosiy tamoyillar asosida quradi: axborotning shaffofligi va ochiqligi, o‘zaro hurmat va ishonch, mas’uliyat va hisobdorlik, konstruktiv muloqot va sheriklik, shuningdek, hududlarning uzoq muddatli rivojlanishiga yo‘naltirilganlik.

Kompaniya manfaatdor tomonlar nafaqat Kompaniya bilan rasmiy munosabatlarga ega bo‘lgan shaxslar, balki uning faoliyatidan bilvosita ta’sirlanishi mumkin bo‘lgan barcha shaxslar, jumladan, tutash hududlarda yashovchi aholi, NNTlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari va kelajak avlodlardan iborat ekanini e’tirof etadi. Har bir guruh bilan hamkorlik ularning manfaatlari va ehtiyojlarini aniqlash, qayd etilgan kutilmalarni inobatga olgan holda chora-tadbirlarni rejalashtirish hamda murojaatlarning takroran kelib tushishini keyinchalik monitoring qilish asosida yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur monitoring asosida murojaat qiluvchilarning qoniqish darajasi kuzatib boriladi.

Kompaniyaning mahalliy aholi bilan hamkorlikning asosiy usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Murojaat va shikoyatlar bilan ishlash (grievance mechanism);
- Jismoniy shaxslar bilan kommunikatsiya majburiyatlari yuklatilgan Kompaniya rahbariyati tomonidan aholining shaxsiy qabullarini o‘tkazish;
- Mahalliy hokimiyat organlari vakillari bilan uchrashuvlar;
- Ishlab chiqarish obyektlariga yaqin joylashgan hududlarda jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va vazifalarini amalga oshirish;
- Ta’lim markazlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan sheriklik dasturlarini o‘z ichiga olgan holda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish;
- Ijtimoiy ko‘ngillilik loyihalarini amalga oshirish.

Kompaniya yuqori risk darajasidagi hududlarda aktivlarga ega emas va oltin qazib olish hamda qayta ishlash bilan shug‘ullanmaydi, noqonuniy qurolli nizolar yuzaga kelishini qo‘llab-quvvatlamaydi va ularga ko‘maklashmaydi, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va xalqaro gumanitar huquqqa oid normativ-huquqiy hujjatlarga qat’iy rioya qiladi.[1]

[1] The Conflict Barometer - 2022, Heidelberg Institute for International Conflict Research

24-rasm. "NKMK" AJning mahalliy aholi bilan munosabatlarni boshqarish tuzilmasi



25-yil uchun barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

8.2. Murojaatlarni boshqarish va muloqotni qo‘llab-quvvatlash

8.2.1. Murojaatlarni boshqarishning yagona mexanizmi

GRI 407-1

“NKMK” AJda murojaat etuvchilarning barcha toifalari — jismoniy va yuridik shaxslar, Kompaniya xodimlari va mahalliy jamoalar vakillari uchun teng imkoniyatni ta’minlovchi murojaatlar bilan ishlashning kompleks tizimi faoliyat yuritadi. Mexanizm faoliyatini muvofiqlashtirishni ixtisoslashgan tarkibiy bo‘linma — Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi amalga oshiradi. Tizim Kompaniyaning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarini qamrab oladi va murojaat topshirish kanallarining keng ro‘yxatini nazarda tutadi, bu murojaat etuvchilar uchun zarur ishonch darajasini ta’minlaydi:

- **yozma** — pochta jo‘natmasi orqali yoki qabulxonaga shaxsan tashrif buyurish yo‘li bilan;
- **og‘zaki** — telefon orqali, bo‘lim mutaxassislarining shaxsiy qabulida yoki rahbariyatning sayyor tadbirlari davomida;
- **elektron** — korporativ elektron pochta, “NKMK” AJ virtual qabulxonasi va rasmiy saytning chat-boti orqali;
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Bosh vazirining virtual qabulxonalari.**

Kelib tushayotgan barcha murojaatlar majburiy tartibda elektron ma’lumotlar bazasida va qog‘oz jurnallarda ro‘yxatga olinadi, so‘ngra kelib tushish kanalidan qat’i nazar yagona tartibda ko‘rib chiqiladi. Murojaatlar mexanizmining ishlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining 11.09.2017-yildagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga to‘liq muvofiq keladi va Kompaniyaning ichki nizomida mustahkamlangan.

Qonunchilik normalariga muvofiq “NKMK” AJ quyidagilarni ta’minlaydi:

- murojaat etuvchining shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning **maxfiyligi** (Qonunning 14 va 15-moddalari);
- murojaat mohiyatiga taalluqli bo‘lmagan ma’lumotlarni yig‘ishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- murojaat etuvchilar, ularning oila a’zolari va vakillarini ta’qibdan himoya qilish, jumladan, Kompaniya manziliga tanqid yoki buzilishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan murojaatlar uchun.

Ushbu kafolatlar Kompaniya xodimlariga ham, mahalliy jamoalar vakillariga ham tatbiq etiladi.

25-rasm. “NKMK” AJda murojaatlarni ko‘rib chiqish algoritmi



“NKMK” AJning jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq:

- Murojaatni ro‘yxatga olish va dastlabki tekshirish 1 ish kuni davomida amalga oshiriladi;
- Murojaatni mas’ul bo‘linmaga topshirish – 5 ish kunigacha;
- Murojaatni ko‘rib chiqish va murojaat etuvchiga qayta aloqa taqdim etish 15 kun davomida, qo‘shimcha tekshirish zarur bo‘lganda – 1 oygacha amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi murojaatlarni markazlashgan holda ko‘rib chiqishni va profil bo‘linmalar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni ta’minlaydi. Murojaat ro‘yxatga olingandan keyin Bo‘lim zarur ma’lumotlarni yig‘ishni tashkil etadi va masalani arizaning mazmunini batafsil tahlil qiladigan vakolatli mutaxassislarga ko‘rib chiqish uchun yo‘naltiradi.

Murojaatlar bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi, uning yakunlari bo‘yicha mas’ul ijrochilar tayinlanadi. Ular zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni, jumladan, bunday risklar tasdiqlangan taqdirda aniqlangan noqulayliklarni yoki mahalliy hamjamiyatlarga ehtimoliy salbiy ta’sirni bartaraf etishni ta’minlaydi. Ko‘rib chiqish yakunlangach, har bir murojaatchiga ko‘rilgan choralar va amalga oshirilgan ishlar natijalari yuzasidan tushuntirishlar berilgan rasmiy javob yuboriladi.

2025-yilda “NKMK” AJ nomiga 3,108 ta murojaat kelib tushdi, bu 2024-yil ko‘rsatkichidan (4,067 ta murojaat) 23,6 foizga kam. 2025-yildagi murojaatlar tarkibida eng katta ulushni ishga joylashish (49,9%) va mehnat munosabatlari (21,9%) masalalari tashkil etadi, bu ish izlovchilarning Kompaniya bilan muloqotga yuqori darajada jalb etilganligini aks ettiradi.

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

Kompaniya murojaatlar kanallari, ochiq muloqot va statistik ma’lumotlarning yillik monitoringi orqali inson huquqlari va tub aholi huquqlariga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalarni kuzatib boradi. 2025-yilda inson huquqlari va tub aholi huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq yoki bunday buzilishlarga sabab bo‘luvchi yoxud ushbu huquqlarga ta’sir ko‘rsatuvchi shikoyatlar va hodisalar qayd etilmagan. [1]

Xodimlarning mehnat nizolariga oid arizalari kasaba uyushmalari Kengashi va ish beruvchi vakillari ishtirokida, Jamoa shartnomasi qoidalari asosida komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi, zarur hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ko‘rib chiqiladi.

91-jadval. “NKMK” AJ rahbariyatiga murojaatlar mavzusi

Murojaat tasnifi	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Ish bilan ta’minlash	1,478	2,318	**2,378**	**1,552**
Mehnat munosabatlari (o‘tkazish, ish haqi, shartnomalar)	661	519	**586**	**680**
Uy-joy ajratish (yotoqxonalar)	49	25	**24**	**23**
Uy-joy bilan bog‘liq boshqa masalalar (kredit ajratish)	3	8	**9**	**4**
Xizmat uylarini xususiylashtirish to‘g‘risida	2	5	**3**	**2**
Abituriyentlarni o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash	64	65	**72**	**78**
Pensiya va nafaqalar tayinlash masalalari	13	33	**42**	**15**
Ijtimoiy himoya bilan bog‘liq boshqa masalalar	219	203	**167**	**146**
Kommunal xizmatlar bilan bog‘liq masalalar	2	0	**11**	**2**
Sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq masalalar	90	69	**178**	**46**
Boshqa masalalar	774	434	**597**	**560**
Jami	**3,355**	**3,679**	**4,067**	**3,108**

2025-yilda murojaatlarning aloqa kanallari bo‘yicha taqsimlanishi o‘zaro hamkorlikning elektron shakllari barqaror ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi: ular jami murojaatlarning 58,6 foizini tashkil etadi. 2025-yilda ishonch telefoniga murojaatlar sonining o‘sishi qayd etildi (2024-yilga nisbatan 37,9 foizga o‘sish), bu murojaat etuvchilarning

[1] Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida “tub aholi” toifasi belgilanmagan. Murojaatlar kelib tushganda, Kompaniya XMTning 1989-yildagi “Tub aholi va mustaqil mamlakatlarda qabila tarzida yashovchi xalqlar to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 1-moddasiga, shuningdek, murojaatning mazmun-mohiyatiga tayanadi.

anonim murojaat kanali to‘g‘risida xabardorligi oshganini va mazkur vositaga bo‘lgan ishonch ortganini ko‘rsatadi.

92-jadval. 2022–2025-yillar davri uchun aloqa kanallari kesimda berilgan arizalar soni

Ariza kelib tushish kanallari	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Elektron murojaatlar:	2,463	2,414	2,729	1,821
shu jumladan, Prezidentning Virtual qabulxonasi orqali murojaatlar	2,367	2,275	2,384	1,773
Yozma murojaatlar	681	796	867	810
Og‘zaki murojaatlar:	211	469	471	477
shu jumladan, Bosh direktor qabuli	77	126	112	158
shu jumladan, Bosh direktor o‘rinbosari qabuli	75	243	246	129
Sayyor qabullar	35	83	55	22
Ishonch telefoni	24	17	58	80
Jami	**3,355**	**3,679**	**4,067**	**3,108**

8.2.2. Shaxsiy qabullarni o‘tkazish

Aholi bilan tizimli ishlash doirasida “NKMK” AJ Bosh direktori, uning o‘rinbosarlari va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari fuqarolarni muntazam ravishda shaxsan qabul qiladilar. Sayyor qabullar jadvali har yili Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi va jamoatchilik qabulxonalarida joylashtiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish bo‘linmalarida ularning rahbarlari fuqarolarning murojaatlari, takliflari va e’tirozlarini ko‘rib chiqish uchun har hafta qabul kunlarini tashkil etadilar, shuningdek, bevosita ishlab chiqarish obyektlariga chiqadilar.

Shaxsiy va sayyor qabullar davomida kelib tushadigan barcha murojaatlar majburiy ro‘yxatga olinishi va murojaatlar mexanizmining belgilangan tartib-taomillariga muvofiq keyinchalik ko‘rib chiqilishi lozim.

8.2.3. Jamoatchilik eshituvlari

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 541-sonli qarori talablari asosida jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazadi. Qarorga muvofiq atrof-muhitga ta’sirning I va II toifalari bilan bog‘liq rejalashtirilgan, ko‘zda tutilgan yoki amalga oshirilayotgan tadbirlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini jamoatchilik va aholi o‘rtasida muhokama qilish bo‘yicha jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish tartibi tasdiqlangan. Qarorga ko‘ra, jamoatchilik eshituvlarining tashkilotchilari tuman (shahar) hokimliklari bo‘lib, bu borada Kompaniya davlat organlari vakillari bilan faol hamkorlik qiladi va tegishli organlarning ko‘rsatmalariga puxta amal qiladi.

2025-yil hisobot davrida “NKMK” AJ 2030-yilgacha bo‘lgan investitsiya loyihalari doirasida jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat ekspertizasi talablarini to‘liq

hajmda bajardi. Eshituvlar o‘tkazish talab etilmagan loyihalar bo‘yicha Kompaniya ekologiya sohasidagi mintaqaviy regulyatordan ularni tashkil etish zarurati yo‘qligi haqida rasmiy tasdiqnomalar oldi. Yil davomida amalga oshirilayotgan loyihalar ta’sir zonasiga kiruvchi hududlarda rejalashtirilayotgan faoliyatga jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashidan bosh tortish holatlari yoki kritik shikoyatlar qayd etilmagan.

8.3. Hududlarni rivojlantirish dasturlari

“NKMK” AJning hududiy dasturlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish chora-tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi PF-143-son Farmonida belgilangan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosati yo‘nalishlari doirasida amalga oshiriladi. Mazkur hujjatda 2025-yil oxiriga qadar kambag‘allik darajasini 6 foizgacha kamaytirish maqsadli ko‘rsatkichi belgilangan. Mazkur yo‘nalishni rivojlantirish maqsadida 2024-yil sentabr oyida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” maqsadli dasturi tasdiqlanib, uning doirasida respublika bo‘yicha ustuvor manzilli qo‘llab-quvvatlashga muhtoj 1,024 ta mahalla belgilangan.

Dasturni amalga oshirish mexanizmiga muvofiq, Respublika hukumati vazifalarni bajarish uchun javobgarlikni yirik iqtisodiyot subyektlari, shu jumladan davlat ishtirokidagi korxonalar o‘rtasida taqsimlaydi. “NKMK” AJga Navoiy viloyatining 14 ta mahallasi biriktirilib, ularda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, hududlarni obodonlashtirish va aholiga manzilli ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur majburiyatlarni bajarish maqsadida “NKMK” AJning 2024-yil 4-dekabrdagi 818-son ichki buyrug‘i bilan biriktirilgan mahallalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh tuzilgan. Vazifalarni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlik Boshqaruv raisi — Bosh direktor va uning o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilgan.

Tayyorgarlik bosqichida 2024-yilda Kompaniya hokimliklar va mahallalar vakillari bilan bir qator uchrashuvlar o‘tkazdi, ular yakunlari bo‘yicha aholi punktlarining pasportlari tuzildi va uy xo‘jaliklari ro‘yxatga olindi. Olingan ma’lumotlar va bo‘lib o‘tgan muhokamalar asosida har bir mahalla uchun chora-tadbirlar rejalari shakllantirildi, shuningdek, manzilli yordam oluvchilar ro‘yxati belgilandi. Manfaatdor tomonlarning qayd etilgan barcha kutish va ehtiyojlari mintaqaviy ma’muriyat vakillari ishtirokidagi uchrashuvlar bayonnomalarida mustahkamlangan.

Hisobot davrida biriktirilgan mahallalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Kommunal infratuzilma va suv ta’minotini rivojlantirish. Quduqlar, suv xo‘jaligi inshootlari va suv minoralari qurildi hamda ta’mirlandi; aholini ichimlik va sug‘orish suvi bilan ta’minlandi; quyosh panellari va tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy etildi.
- Ijtimoiy obyektlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sanitariya-gigiyena uzellari qurildi va rekonstruksiya qilindi, ta’lim hamda tibbiyot muassasalarining suv ta’minoti yaxshilandi.
- Hududlarni obodonlashtirish va uy-joy sharoitlarini yaxshilash. Mahallalarni obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, daraxt ko‘chatlari ekildi, kam ta’minlangan oilalarning turar joylari qurildi va ta’mirlandi.
- Manzilli qo‘llab-quvvatlash va bandlik manbalarini kengaytirish. Kam ta’minlangan fuqarolarga yirik va mayda shoxli chorva mollari, uy parrandalari, issiqxonalar hamda tikuvchilik uskunalari topshirildi. Og‘ir kasalliklarga chalingan va nogironligi bo‘lgan fuqarolar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va davolandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va aholi bandligini oshirishga xizmat qildi.

Hisobot davrida chora-tadbirlarni moliyalashtirishning jami hajmi 618.7 ming AQSh dollarini (7,780.48 mln so‘m) tashkil etdi. Ajratilgan mablag‘lar aholi turmush tarzini oshirish va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan rejalashtirilgan ijtimoiy va infratuzilma loyihalarining bajarilishini ta’minladi.

Shuningdek, 2024-yilda Kompaniya tomonidan suvi yuqori minerallashgan tumanlarda 26 ta chuchuklashtirish qurilmasini joriy etish ishlari boshlandi. Loyiha bo‘yicha ishlar 2025-yil may oyida yakunlandi. Chuchuklashtirish qurilmalari Respublikaning 7 ta viloyatida: (Andijon – 2 ta, Buxoro – 3 ta, Namangan – 2 ta, Qashqadaryo – 4 ta, Toshkent – 2 ta va Xorazm – 1 ta) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 10 ta, 350,262.6 AQSh dollari (4.4 mlrd so‘m) summasida joylashtirildi. Qurilmalar Respublikaning olis tumanlarida 64 mingdan ortiq aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash imkonini berdi.

8.4. Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash

GRI 203-2, 411-1, 413-1, 413-2

“NKMK” AJ mahalliy aholi uchun ish o‘rinlarini saqlab qolish va yaratish maqsadida faoliyat yuritilayotgan hududlarda ijobiy iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishga intiladi. “NKMK” AJ xodimlarining 99 foizdan ortig‘i O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridir. Faoliyat yuritilayotgan hududlar aholisini ish bilan ta’minlash (muayyan ishlab chiqarish obyektlari joylashgan hududlarga yaqin tumanlardan xodimlarni ishga qabul qilish) 95 foizni tashkil etadi. 2025-yil hisobot davrida Kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlarida Navoiy viloyatining 39,350 nafardan ortiq aholisi ishlagan.

93-jadval. 2025-yil uchun ro‘yxatga olish joyiga muvofiq, xodimlarning statistik soni, nafar va %

Viloyatlar	Ro‘yxatdagi son	Kompaniya xodimlarining umumiy sonidan %
Andijon viloyati	5	0.0%
Buxoro viloyati	1,629	3.2%
Jizzax viloyati	1,583	3.1%
Qashqadaryo viloyati	70	0.1%
Navoiy viloyati	39,350	77.9%
Namangan viloyati	11	0.0%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	146	0.3%
Rossiya Federatsiyasi	2	0.0%
Samarqand viloyati	7,056	14.0%
Surxondaryo viloyati	79	0.1%
Sirdaryo viloyati	9	0.0%
Toshkent	129	0.2%
Toshkent viloyati	80	0.1%
Farg‘ona viloyati	10	0.0%
Xorazm viloyati	332	0.7%
Jami	**50,491**	**100%**

“NKMK” AJning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarida mahalliy hokimiyat organlari bilan tizimli hamkorlik qo‘llab-quvvatlanadi. Tuman va shahar ma’muriyatlari vakillari bilan ishchi uchrashuvlar Kompaniya faoliyati va uning mahalliy jamoalarga ta’siri bilan bog‘liq masalalarni operativ ko‘rib chiqishni ta’minlash imkonini beradi.

Shuningdek, “NKMK” AJ Navoiy viloyatining olis tumanlari hokimliklari bilan erishilgan hamkorlik memorandumlariga muvofiq fuqarolarni maqsadli ishga qabul qilish bo‘yicha hamkorlik olib boradi. 2025-yilda “NKMK” AJning “Qizilqum” KB, “NMZ” IChB, “MKB”si, Navoiy viloyatining Nurota, Tomdi va Uchquduq tumanlari hokimliklari, Zarafshon shahri hokimligi, Xorazm viloyatining Tuproqqal’a tumani hokimligi, shuningdek, prokuratura, IIB va DSI o‘rtasida mahalliy hamjamiyatlarning aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga mansub vakillari uchun ish o‘rinlari yaratish va ularni ishga qabul qilish to‘g‘risida Hamkorlik memorandumi imzolandi. Ro‘yxatga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shuningdek, mehnat bozorida erkin raqobatlasha olmaydigan fuqarolar (daromadi past oilalar, oilaning yagona boquvchisi, malakasi past yoki malakaga ega bo‘lmagan shaxslar va boshqalar) kiritiladi. 2025-yil davomida mazkur kelishuvga muvofiq “NKMK” AJ bo‘linmalariga ishga joylashtirish uchun 274 nafar kishi yo‘naltirildi.

94-jadval. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, kishi

Yangi ish o‘rinlari yaratish		**2023**	**2024**	**2025**
Investitsiya dasturiga muvofiq:		**1,354**	**588**	**1,505**
1	Chuqurquduq koni zaxiralarini o‘zlashtirish	191	-	-
2	“Balpantov” va “Tomdibuloq” konlari negizida qazib olish karyerini qurish	43	-	-
3	“Pistali” konining oltin saqlovchi rudalarini qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ)	882	130	-
4	“Turbay” konlarini o‘zlashtirish uchun qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish	112	-	-
5	Zarmitan oltin ma’dani zonasi konlari (ufq 0.00 m gacha) konlari asosida kon kompleksining quyi gorizontlarini o‘zlashtirish	90	66	32
6	“Muruntov” karyerini o‘zlashtirish (V navbat) 1-bosqich	36	241	195
7	Qo‘qpatas va Dovgiztov oltin ma’dani konlarida ma’dan qazib olish (3-navbat)	-	151	734
8	7-GMZ ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	-	-	460
9	Qurilishlar smetasiga kirmaydigan uskunalarni xarid qilish	-	-	84
Innovatsion loyihalar, sohani rivojlantirish dasturlari:		**91**	**127**	**1,123**
1	2-GMZ dagi innovatsion loyiha			55
2	Bessapantov konini tashkil etish va geologiya xizmati xodimlari sonini ko‘paytirish			109
3	Konchilik texnikasini butlash va “Qizilqum” KB ish hajmlarini oshirish			123
4	2025-yilda MKB ish hajmlarini oshirish			744
5	2025-yilda ShKB ish hajmlarini oshirish			74
6	2025-yilga Metall konstruksiyalar va nostandart uskunalar ishlab chiqarish Taxiatosh zavodi ish hajmlarini oshirish			18
Jami		**1,445**	**715**	**2,628**

“NKMK” AJ davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish doirasida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratadi hamda fuqarolarning barcha guruhlarini ishga joylashtirishga ko‘maklashadi. Xodimlarni maqsadli ishga qabul qilish uchun korxona hududiy hokimliklar hamda Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish markazlari bilan hamkorlik qiladi. Har yili hokimlar tomonidan ish o‘rinlari uchun, shu jumladan nogironligi bo‘lgan fuqarolarni ishga joylashtirish bo‘yicha kvotalar tasdiqlanadi, ularning natijalari Navoiy, Uchquduq va Zarafshon hokimliklari tomonidan e’lon qilinadi. Kompaniya bo‘sh ish o‘rinlarini tahlil qiladi va maqsadli ishga joylashtirish uchun nomzodlarni tanlab beradigan Bandlik markazlariga ro‘yxatlarni yuboradi.

Sog‘lig‘i bo‘yicha imkoniyatlari cheklangan nomzodlar shifokorlik-malaka komissiyasidan o‘tadilar, mazkur komissiya ular uchun mos bo‘lgan ish turlarini belgilaydi. Ishga qabul qilinishdan oldin nomzodlar bepul majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar va mehnat vazifalarini bajarish imkoniyati to‘g‘risida xulosa oladilar. Olingan hujjat asosida “NKMK” AJning tibbiy va qabul komissiyalari har bir holatni sinchiklab tahlil qilib, mehnat sharoitlarining nomzodlarning sog‘lig‘i holati va malakasiga muvofiqligini ta’minlaydi.

95-jadval. 2025-yil davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun maqsadli ishga qabul qilish asosida ishga joylashtirilgan xodimlar, kishi

Bo‘linma	**Yolg‘iz otalar, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz onalar va ko‘p bolali otaonalar**	**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini tamomlab, kasbhunar egallagan yoshlar**	**Muddatli harbiy xizmatdan keyin ishdan bo‘shatilgan shaxslar**	**Nogironlar va pensiyadan oldin yoshdagi shaxslar**	**Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar, yoki sud qarori asosida tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llangan shaxslar**	**Odam savdosi qurbonlari**	**Qiyin hayot sharoiti dagi ayollar**	**Umumiy son**
3-avtobaza	1	1						**2**
GQE	1	8			1			**10**
“NMZ” IChB	2	15	4	1	1			**23**
QKB	3	7						**10**
ZQB		5			2			**7**
IChAB								**0**
ShKB	6	63	8	2	6		2	**87**
MKB	3	42	20	1	7	1	2	**76**
MMTB		1						**1**
MITL	1							**1**
JAMI	**17**	**142**	**32**	**4**	**17**	**1**	**4**	**217**

8.5. Yoshlarni rivojlantirish imkoniyatlari va kadrlarni rivojlantirish dasturlari

"NKMK" AJ ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va bandlikni qo'llab-quvvatlashni mahalliy hamjamiyatlar bilan ishlashdagi strategik ustuvor yo'nalish hamda faoliyat yuritilayotgan hududlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shiladigan hissa sifatida ko'rib chiqadi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va Respublikaning bir qator boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan hamkorlik bitimlari doirasida Kompaniya kombinat bo'linmalari bazasida ishlab chiqarish amaliyotining barcha turlarini tashkil etishni ta'minlaydi. Ushbu mexanizm malakali kadrlar tayyorlashning barqaror kanalini shakllantiradi va talabalarning amaliyot o'tagan joyida keyinchalik ishga joylashishi uchun real imkoniyatlar yaratadi.

"NKMK" AJ ma'muriyati va Kasaba uyushmasi kengashining qo'shma qarori asosida muntazam ravishda NDKTU talabalari va o'qituvchilari uchun Kompaniya xodimlari ishtirokida ishlab chiqarish ekskursiyalari o'tkaziladi. Hamkorlikning ushbu shakli ishlab chiqarish obyektlari bilan amaliy tanishish imkonini beradi, o'quv dasturlarini sohaning dolzarb talablariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, Kompaniya va tegishli yo'nalishdagi ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi.

96-jadval. Kompaniya va respublika ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik dasturlari doirasida amaliyot o‘tash va yosh mutaxassislarni ishga qabul qilish bo‘yicha ma’lumot

№	OTMlar nomi	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		Amaliyot (3-4-kurslar)	Ishga joy-lashtirish	Amaliyot (3-4-kurslar)	Ishga joy-lashtirish	Amaliyot (3-4-kurslar)	Ishga joy-lashtirish
1	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	811	569	780	475	1,025	532
2	Toshkent davlat texnika universiteti	65	80	70	66	67	192
3	Toshkent davlat transport universiteti	40	28	35	60	1	76
4	Nukus davlat texnika universiteti	-		5		36	26
5	Buxoro davlat texnika universiteti	-	20	15	7	1	44
6	Jizzax politexnika instituti	5	8	10	4	-	3
7	MISISning Olmaliq filiali	5	2	5		4	-
8	Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti	-	3	5	1	-	28
9	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	-	10	35	9	3	-
10	Geologiya fanlari universiteti	-		28	24	53	33
11	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	7	3	10	5	3	19
Jami		**926**	**723**	**998**	**651**	**1,193**	**953**

“NKMK” AJ, 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobot, https://www.ngmk.uz

2025-yilda kombinat korxonalari uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalari bilan tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Dual ta’lim tizimi doirasida talabalar malakali mutaxassislarni murabbiy sifatida jalb qilgan holda bevosita korxonaning ishlab chiqarish bo‘linmalarida amaliy tayyorgarlikdan o‘tadi.

Hisobot davrida 150 nafar talaba o‘qishni ishlab chiqarish faoliyati bilan uyg‘unlashtirgan holda dual ta’lim dasturiga jalb etildi. Kompaniya tomonidan dastur ishtirokchilariga amaliyot o‘tash uchun zarur sharoitlar, jumladan, transport, ovqatlanish va mehnat haqi bilan ta’minlandi. Dasturni amalga oshirish talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va bitiruvchilarni keyinchalik ishga joylashtirish istiqboli bilan korxonaning kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi.

8.6. Homiylik va xayriya

GRI 203-1, 413-1, 413-2

"NKMK" AJda Xayriya va homiylik yordamini korsatish tartibi amal qiladi: “Xayriya va homiylik yordamini korsatish Tartibi.pdf (ngmk.uz)”. "NKMK" AJning Boshqaruvi homiylik yordamini va xayriya ishlari uchun bir martalik mablag‘ ajratish to‘g‘risida qarori bilan 790.2 ming AQSh dollaridan (10 milliard so‘m) ajratishi va bu maqsadlarda yiliga jami 3.95 million AQSh dollaridan (50 milliard so’m) ko‘p bo‘lmagan mablag‘ ajratishi mumkin. Kuzatuv kengashi xayriya yordami uchun bir martalik mablag‘ ajratish to‘g‘risida qarori bilan 790.2 ming AQSh dollaridan (10 milliard so‘m) ortiq ajratishi va bu maqsadlarda yiliga 3.95 million AQSh dollardan (50 milliard so‘m) ortiq mablag‘ ajratishi mumkin. Shu munosabat bilan, Aksiyador homiylik yordami va xayriya mablag‘larini ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlar va davlat rivojlanish dasturlari asosida taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

“NKMK” AJ xayriya faoliyatining shaffofligi va adolatliligini ta’minlash maqsadida arizalarni sinchiklab tahlil qiladi. Mablag‘larni taqsimlash va yordam ko‘rsatishning shaffofligini ta’minlash maqsadida 2025-yilda Komplayens xizmati ishtirokida homiylik va xayriya yordami bo‘yicha komissiya yig‘ilishlari o‘tkazildi. Mahalliy aholi bilan o‘tkazilgan tadbirlar va uchrashuvlar, shuningdek, homiylik yordami to‘g‘risidagi hisobotlar Kompaniyaning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

2025-yilda mahalliy hamjamiyatlarga ko‘rsatilgan homiylik yordami va xayriya mablag‘lari 98 mln AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi. Mazkur mablag‘lar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlariga va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, sport tashkilotlari hamda ta’lim muassasalariga homiylik yordami ko‘rsatishga yo‘naltirildi.

Fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish doirasida Kompaniya davolanishni tashkil etishda yordam ko‘rsatish va homiylik mablag‘larini ajratish bilan bog‘liq so‘rovlarni ham qabul qiladi. 2025-yil davomida kelib tushgan so‘rovlar asosida murojaatlar bo‘yicha komissiya yig‘ilishlarida qabul qilingan qarorlarga muvofiq, tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun ajratilgan hamda jismoniy shaxslarning davolanish xarajatlarini qoplash uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 213,9 ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Kompaniya faoliyat yuritilayotgan hududlar infratuzilmasini rivojlantirishda faol ishtirok etadi. Jumladan, hisobot davri davomida ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarni rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi:

- Zarkent shaharchasida ikkinchi 32 xonadonli 4 qavatli turar joyni qurish;
- Navoiy sh. 1-yong‘in-qutqaruv qismi uchun ovqatlanish binosini qurish;
- Mamlakatda faol joriy etilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish doirasida Nurota tumani “Yangibino” MFY hududida maydoni 4.5 gektar bo‘lgan yer uchastkasida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan 3.5 ming dona mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ekish ishlari o‘tkazildi.

2025-yilda Jamoa shartnomasi ijrosi doirasida Kompaniya tomonidan “NKMK Jamg‘armasi” DM (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) bilan birgalikda “NKMK” AJ xodimlari va ishlamaydigan pensionerlari bolalarining yozgi dam olishi davrida bolalarni sog‘lomlashtirish va lagerlarda dam oldirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishga “NKMK” AJ tomonidan 2,774.9 ming AQSh dollari (34.9 mlrd so‘m) sarflandi.

2025-yil yozgi mavsumida ijtimoiy himoyaga muhtoj 11,133 nafar bola uchun Jamg‘armaning 11 ta sog‘lomlashtirish oromgohida dam olish tashkil etildi. Shundan:

- Kompaniya va Jamg‘arma xodimlari hamda pensionerlarining 10,133 nafar farzandiga “NKMK” AJ va Kasaba uyushmalari kengashining qo‘shma qaroriga asosan umumiy qiymati 2,520,4 ming AQSh dollariga (31.7 mlrd so‘m) teng yo‘llanmalar taqdim etildi;
- Navoiy, Samarqand va Xorazm viloyatlarida istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga, shu jumladan, kam ta’minlangan oilalarning farzandlari, sog‘lig‘i bo‘yicha imkoniyatlari cheklangan bolalar hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga 250 ming AQSh dollari (3.2 mlrd so‘m) miqdoridagi 1,000 ta yo‘llanma ajratildi.

Bolalarga yangi yil sovg‘alarini har yili topshirish an’anasi doirasida 2025-yilda “NKMK” AJ xodimlarining 1 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan 43.4 ming nafar farzandiga 544.4 ming AQSh dollari (6,847.5 mln so‘m) qiymatidagi bayram sovg‘alari topshirildi. Shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotgan Navoiy viloyati IIB xodimlarining farzandlariga 1.4 ming AQSh dollari (18.114 mln so‘m) qiymatidagi 115 ta Yangi yil sovg‘asi topshirildi.

97-jadval. "NKMK" AJ bo‘yicha 2025-yil uchun xayriya va homiylik yordami to‘g‘risidagi ma’lumot, ming AQSh dollari

Faoliyat yo‘nalishlari	**Qo‘llab-quvvatlash turlari**	**Summa, ming AQSh dollari**
Ijtimoiy infratuzilmani saqlash	Faoliyat yuritayotgan hududlardagi ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlar va infratuzilmalarni saqlash ("NKMK" AJning jamg‘armasi davlat muassasasining xodimlar va mahalliy aholi uchun xizmatlari)	**50,586.97**
Boshqa tashkilotlarga homiylik yordami	Sport, sog‘liqni saqlash va ekologiya bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkilotlar, shuningdek Rahbariyat yoki Aksiyadorning qarorlari asosida bir martalik arizalar	**4,716.58**
Sport va sog‘liq	Sport tashkilotlari va sport tadbirlari ishtirokchilariga homiylik yordami (oziq-ovqat, transport)	**18,300.04**
Hududlarni rivojlantirish	Davlat va munitsipal muassasalarni qo’llab-quvvatlash	**20,014.28**
Ta’lim va fan	Maktablar, institutlar, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, ilmiy konferensiyalar	**2,584.47**
Ijtimoiy-madaniy tadbirlar	Festivallar, tanlovlar, konferensiyalar, faxriy nishonlar; tadbir ishtirokchilariga yordam (ovqatlanish, transport)	**951.74**
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	Ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarni qurish (maktablar, kasalxonalar, sanatoriylar, markazlar va h.k.)	**508.93**
Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam	Tabiiy ofatlarda jabrlanganlarga va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam	**667.97**
Ijtimoiy himoya muassasalarini qo‘llab-quvvatlash	Keksalar uylari, nogironlar jamiyatlari, bolalar uylari, maktab-internatlar	**0.64**
Jami		**98,332**

26-rasm. "NKMK" AJ bo'yicha 2025-yil uchun homiylik yordami to'g'risidagi ma'lumot



8.7. Sportni qo'llab-quvvatlash

Sport va madaniy ma'rifat sohasidagi davlat siyosati yo'nalishini, shuningdek, millat salomatligini qo'llab-quvvatlagan holda "NKMK" AJ 2025-yilda sport tashkilotlariga 18.303 mln AQSh dollaridan (230.2 mlrd so'm) ortiq to'g'ridan-to'g'ri homiylik yordamini taqdim etdi:

- O'zbekiston kikboksing federatsiyasi;
- O'zbekiston boks federatsiyasi;
- O'zbekiston WT taekvondo assotsiatsiyasi;
- O'zbekiston suzish federatsiyasi;
- O'zbekiston baydarkada eshkak eshish federatsiyasi;
- O'zbekiston shaxmat federatsiyasi;
- O'zbekiston futbol federatsiyasi;
- O'zbekiston gandbol federatsiyasi;
- O'zbekiston triatlon federatsiyasi;
- Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi;
- Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo'mitalari;
- Boshqalar.

8.8. Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib oluvchilarni qo'llab-quvvatlash

GRI 14.13.1

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-noyabrdagi "Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-

sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4030-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 1-GMZ va 4-GMZ (Navoiy va Nurobod shaharlari) hududida oltin qabul qilish shoxobchalari tashkil etildi.

Kassalar O‘zbekiston Respublikasining yer qa’ridan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, hamda tegishli davlat organlari tomonidan berilgan barcha zarur ruxsatnomalar mavjud bo‘lganda oltin qazib olish bilan shug‘ullanuvchi qidiruvchilardan tarkibida oltin bo‘lgan mahsulotlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan.

Qazib oluvchilarning mahsulotni topshirishga qo‘yilishi Kompaniya tomonidan dastlabki tekshiruvdan o‘tkazilishiga bog‘liq bo‘lib, ushbu tekshiruv doirasida ruxsat beruvchi hujjatlarning mavjudligi va amal qilish muddati, faoliyatning litsenziya talablariga muvofiqligi, KYC tartib-taomillari natijalarining mas’uliyatli ta’minot zanjirlari bo‘yicha siyosat talablariga muvofiqligi, shuningdek, yer qa’ridan foydalanish sohasidagi davlat nazorati organlari tomonidan qayd etilgan ko‘rsatmalar va qoidabuzarliklarning mavjud emasligi baholanadi. Qazib olish uchastkalari faqat ochiq auksion yakunlari bo‘yicha olingan ruxsatnomada ko‘rsatilgan kon ajratmasi chegaralarida joylashishi kerak. Mas’uliyatli ta’minot zanjiri siyosati doirasida LBMA talablari asosida Kompaniya, zarurat tug‘ilganda, qazib olish va ishlab chiqarish uchastkalarida davriy sayyor tekshiruvlarni ham o‘tkazadi. Bunda tekshiruv dalolatnomalari rasmiylashtiriladi hamda tekshiruv guruhi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatlarda bartaraf etish bo‘yicha kelishuvlarga erishiladi. 2025-yil davomida 2 ta sayyor tekshiruv o‘tkazilib, ularning natijalari bo‘yicha bayonnomalar tuzildi.

Qonun hujjatlari talablariga muvofiq, yer qa’ridan foydalanish uchun ruxsatnoma olish uchun qazib oluvchilar ochiq auksionlarda ishtirok etishlari kerak, bunda qazib olish uchastkalari ruxsatnomada ko‘rsatilgan tog‘ ajratmasiga qat’iy muvofiq, joylarda joylashgan bo‘lishi kerak. Kompaniya qazib oluvchilarni dastlabki baholashni amalga oshiradi, tegishli ruxsatnomalar mavjudligini, ularning Qonunchilik talablariga muvofiqligini, shuningdek, yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarni nazorat qiluvchi davlat inspektsiyasi tomonidan qonunbuzarliklar yoki ko‘rsatmalar mavjudligini tekshiradi.

Tarkibida oltin bo‘lgan mahsulotlarni qabul qilish, qayta ishlash, hisob-kitob qilish va qiymatini to‘lash tartibi “NKMK” AJga topshirilgan tarkibida oltin bo‘lgan mahsulotlarni qabul qilish, qayta ishlash, hisob-kitob qilish va uning qiymatini to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi ichki nizom bilan tartibga solinadi. Qazib oluvchilarga to‘lanadigan haq London metall birjasining ertalabki fiksing narxi asosida hisoblab chiqiladi, bunda Kompaniyaning qadoqlash, tashish, probir tahlili va affinaj bo‘yicha amaldagi xarajatlari chegirib tashlanadi. “NKMK” AJ qabul qilingan mahsulotni keyinchalik qayta ishlash va realizatsiya qilish bo‘yicha barcha majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Shunday qilib, Kompaniya qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib oluvchi subyektlariga mahsulotni bozor narxlarida sotishning shaffof va adolatli mexanizmiga kirish imkonini ta’minlab, ularning faoliyatini rasmiylashtirishga va qimmatbaho metallarning qonuniy yetkazib berish zanjiriga integratsiyalashishga ko‘maklashadi.

98-jadval. Mayda konchilardan tarkibida oltin va kumush bo‘lgan mahsulotlarni qabul qilish, kg

Qabul qilish	Oltin, kg	Kumush, kg
2024-yil	59.93270	3.63245
2025-yil	65.53775	8.81784

NKMK" AJ noqonuniy qazib olishning salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi va shu maqsadda "NKMK" AJ mahalliy aholi uchun, shu jumladan, chekka hududlarda munosib ish haqi to‘lanadigan ish o‘rinlarini yaratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish borasida doimiy ravishda chora-tadbirlar ko‘radi.

8.9. "NKMK" AJ yoshlarining ijtimoiy volontyorligi: ezgu ishlar loyihalari

GRI 203–1, 413–1, 413-2

“NKMK” AJ yoshlari mahalliy jamoalar bilan hamkorlikka qaratilgan tashabbuslarda faol ishtirok etadi. 2025-yilda eng salmoqli misollar quyidagilar bo‘ldi:

- “Yashil makon” milliy loyihasi doirasida so‘nggi 6 yilda Mo‘ynoq tumanidagi Orol dengizining qurigan qismida 593 ming donadan ortiq daraxt ko‘chati ekildi. 2025-yilda “NKMK” AJning 1,500 ga yaqin yosh ko‘ngillisi ham 150 ming donadan ortiq daraxt ekib, ushbu loyihaga qo‘shildi.
- “Fidoyi yoshlar” aksiyasi doirasida 1,085 dan ortiq ko‘ngillilar qabristonlar, masjidlar va keksalar uylarini tozalash hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.
- “Ezgulik albatta qaytadi” tashabbusi doirasida 2025-yil davomida 280 dan ortiq donor mintaqaviy qon markazlariga qon va plazma topshirdi.

ILOVALAR

1-ILOVA. HISOBOT HAQIDA

GRI 2-2, GRI 2-3, 2-5

"NKMK" AJning mazkur barqaror rivojlanish hisoboti (keyingi o‘rinlarda — "Hisobot" yoki "Barqaror rivojlanish hisoboti") 2025-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyatning asosiy amaliyotlari, "NKMK" AJ faoliyat yuritayotgan hududlardagi ekologik va iqtisodiy ta’sir, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib beradi.

Hisobot GRI Standards 2021 standartlariga (ochiqlash darajasi — asosiy), metallurgiya va konchilik tarmoqlari uchun SASB standartlariga hamda GRI 14: Mining Sector (2024) standartini qo‘llashga muvofiq tayyorlangan.

Hisobot "NKMK" AJning yuqori rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi hamda korporativ veb-saytda e’lon qilish orqali manfaatdor tomonlar e’tiboriga yetkaziladi. Hisobotni tayyorlash jarayonini Transformatsiya boshqarmasining Barqaror rivojlanish va atrof-muhit bo‘limi boshlig‘i muvofiqlashtiradi.

Ushbu "NKMK" AJning 2025-yil uchun Barqaror rivojlanish bo‘yicha hisoboti 2026-yil 1-iyulida rus tilida "NKMK" AJ korporativ saytida e’lon qilindi.

2026-yilda Kompaniya nomoliyaviy hisobot doirasida taqdim etiladigan ma’lumotlarning ishonchliligini tasdiqlash va 2025-yil hisobot davri uchun Barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobotning tashqi tasdiqlanishini o‘tkazish uchun mustaqil maslahatchilarni jalb qilishni rejalashtirdi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarda foydalanilgan kurs 2025-yil uchun o‘rtacha ayirboshlash kursi bo‘yicha ma’lumotlarni ifodalaydi va 1 AQSh dollari uchun 12,577 so‘mni tashkil etadi.

Ushbu Hisobotda qabul qilingan ajratuvchi belgilar tizimiga muvofiq, minglik xonalarni ajratish uchun vergul (masalan, 5,708 xodim), kasr qismini ajratish uchun esa nuqta (masalan, 0.6%) qo‘llaniladi.

2019-yildan buyon Kompaniya har yili barqaror rivojlanish bo‘yicha hisobotlarni chop etadi. Kompaniyaning so‘nggi hisobotlari, shuningdek, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlar "NKMK" AJning rasmiy saytida joylashtirilgan.

Hisobotning ko‘lami

Barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobotning ko‘lami 2025-yil uchun moliyaviy hisobot ko‘lamiga mos keladi hamda oltin qazib olish ishlab chiqarishi va yordamchi bo‘linmalarni o‘z ichiga oladi. Axborotni ochiqlash ko‘lami keltirilgan ko‘lamdan farq qiladigan hollarda, bunday ko‘lam alohida ko‘rsatiladi.

99-jadval. Hisobotga kiritilgan aktivlar

Tarkibiy bo‘linma	Yuridik nomi	Mintaqa
